



MARKETING

ilmiy, amaliy va ommabop jurnal

MARKETING

BIZNES

BRENDING

SAVDO

INNOVATSIYA

RAQAMLI MARKETING

ELEKTRON TIJORAT

**2024-YIL, AVGUST
№6-SON**

*Bir bo'lsak – yagona xalqimiz,
birlashsak – Vatanimiz!*

Mustaqilligimizning 33 yilligi muborak bo'lsin!

№240874



9710 xalqaro daraja

ISSN: 3060-4621

www.marketingjournal.uz

2024-YIL
AVGUST
№ 6-SON



Marketing

ILMIY, AMALIY VA OMMABOP JURNAL

ELEKTRON NASHR. 31-AVGUST, 2024-YIL

JURNALNING MAQSADI

Tadbirkorlik-biznes faoliyatini tashkil etishning marketing asoslarini, yo'nalishlari, echimlari, vositalarini yaratish va rivojlantirish

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

TEL: (97) 783-84-64

VEB-SAYT
www.marketingjournal.uz

ELEKTRON POCHTA:
tdiu.marketing@mail.ru

TELEGRAM BOT:
[@marketinjournalbot](https://t.me/marketinjournalbot)

TELEGRAM KANAL:
<https://t.me/tdiumarketingjournal>

MUASSIS

“Tadbirkor va ishbilarmon” MCHJ

INDEKSATSIYA



BOSH MUHARRIR

Xakimov Ziyodulla Axmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Yusupov Muxamadamin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor;

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori;

Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna, i.f.d., prof., TDIU Marketing kafedrasini mudiri;

Soliyev Axmadjon Soliyevich, i.f.d., NaMTI Marketing kafedrasini professori;

Ikramov Murad Akramovich, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Tursunov Boburjon Ortqimrizevich, i.f.d., prof., TDIU Iqtisodiy xavfsizlik kafedrasini mudiri, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi;

Elena Zarova Viktorovna, i.f.d., G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti professori, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi

Akramov Tohir Abdirahmonovich, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Ostonaqulova Gulsaraxon Muhammadyoqub qizi, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Samadov Asqarjon Mishomovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi, i.f.n., dots., TDIU Kengash kotibi;

Kasimova Fatima Tulkunovna, i.f.d., TKTI professori;

Sobirov Azizbek Avazbekovich, PhD., TDIU Marketing kafedrasini dotsenti;

Sadikov Shoxrux Shuxratovich, PhD., dots., TIU Departament boshlig'i;

Odilova Sitora Sayfitdin qizi, PhD., TDIU Marketing kafedrasini dotsenti;

Musyeva Shoira Azimovna, i.f.n., SamISI Marketing kafedrasini professori;

Axmedova Mavluda Shavkatovna, PhD., TDIU Statistika kafedrasini dotsenti;

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li, PhD., TDIU Marketing kafedrasini dotsenti;

Djurabayev Otabek Djurabayevich, i.f.d., TDIU Innovatsion menejment kafedrasini dotsenti;

Karimova Shirin Zoxid qizi, PhD., TDIU Axborot texnologiyalari kafedrasini katta o'qituvchisi;

Saidova Marhabo Xabibullo qizi, PhD., Norma kompaniyasi eksperti, dotsent

Baibagyshov Ermek, PhD., Naryn State University (Narin Davlat Universiteti) rektori

Dr. Kedar Mehta, PhD, Germaniyaning Yangi energiya tizimlari instituti (Institute of new Energy Systems) professori

G'ofurov Azizbek Umarjonovich, PhD., Farg'ona davlat universiteti dotsenti;

Elektron nashr. 191 sahifa. E'lon qilishga 2024-yil 31-avgustda ruxsat etildi

HAMKORLARIMIZ:

1. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
2. Namangan muhandislik-texnologiya instituti
3. "O'zto'qimchilik sanoat" uyushmasi



MUNDARIJA

Axunova Gulchehra Nazarovna, Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo‘ja qizi OLIY TA‘LIM MUASSASALARINING MIJOZLARGA YO‘NALTIRILGAN MARKETING STRATEGIYALARINI ISHLAB CHIQISHGA YONDASHUVLAR ..4	
Akbarov Nodir Gafurovich O‘ZBEKISTONDA ELEKTRON DAVLAT XARID TIZIMINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH	19
Xo‘jayev Fazliddin Elmurodovich TADBIRKORLIK SUB‘EKTлари FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA MARKETING VA LOGISTIKA XIZMATLARI O‘ZARO ALOQALARINING AHAMIYATI.....	29
Boymatov O‘tkirbek Tilovmurod o‘g‘li OMBORLARDA LOGISTIKA JARAYONLARINI BOSHQARISHNINING XORIJIY TAJRIBALARI	36
Qo‘ziyeva Nilufar Norxidirovna YOQILG‘I-ENERGETIKA TARMOG‘INING IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH VA OSHIRISH YO‘NALISHLARI	44
Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat ugli ЭФФЕКТИВНОСТЬ СТРАТЕГИЙ ИНТЕРНЕТ-МАРКЕТИНГА В ЖИЛИЩНО- КОММУНАЛЬНОМ ХОЗЯЙСТВЕ.....	55
Mamadaliyev Anaxxon Ziyodillayevich SANOAT KLASTERLARINING RAQAMLI TRANSFORMATSIYASI VA ISTIQBOLI RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	63
Тилляходжаев Азизхон Алохонович УПРАВЛЕНИЕ ИНВЕСТИЦИЯМИ В РАЗВИТИЕ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ	71
Parpiyeva Malika Muxamadjonovna RAQAMLI IQTISODIYOTDA ELEKTRON TIJORATNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	79
Xakimdjanova Dildora Kamilevna JAHON BOZORLARI RIVOJLANISHINING ELEKTRON TIJORAT STRATEGIYALARIGA TA‘SIRI	89
Rahimov Said Abdulloh Saminjon o‘g‘li O‘ZBEKISTON VA OSIYO-TINCH OKEANI MINTAQASI MAMLAKATLARI TASHQI SAVDOSINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARINI BAHOLASH.....	98
Tursunova Mastura Taxirovna STAGES OF E STORE ANALYSIS IN E COMMERCE	107

Парпиева Раъно Абдурасуловна, Норбоева Нафиса Эркиновна, Абдуллаева Исмигул Сардор кизи	
КОНЦЕПЦИИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ БАНКОВСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ УЗБЕКИСТАНА	116
Кулдашева Наргиза Комолиддин кизи	
ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫЙ АНАЛИЗ БОЛЬШИХ ДАННЫХ: ИССЛЕДОВАНИЕ ПРОЦЕССОВ СБОРА И ОБРАБОТКИ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ	123
Mirzarakhimova Aziza Bakhrom qizi	
CHALLENGES AND PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF EHEALTH SERVICES	130
Kurbanova Maftuna Lazizovna	
XIZMAT KO'RSATISH SOHALARINDA FIRMOGRAFIK TAHLILDAN FOYDALANISH	135
Qobilov Alisher Urinovich	
ASSESSMENT OF ECONOMIC IMPACTS OF CLIMATE CHANGE IN UZBEKISTAN.....	143

OLIV TA'LIM MUASSASALARINING MIJOZLARGA YO'NALTIRILGAN MARKETING STRATEGIYALARINI ISHLAB CHIQUISHGA YONDASHUVLAR

Axunova Gulchehra Nazarovna
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi
TDIU, Kengash kotibi, i.f.n., dotsent

Annotatsiya

Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarining mijozlarga yo'naltirilgan marketing strategiyalarini ishlab chiqishning ilmiy-nazariy jihatlari o'rganilgan. Universitetlarda mijozlarga yo'naltirilgan yondashuv asosida ta'limni tashkil etish quyidagi asosiy prinsiplari aniqlangan. Universitetda yaratilgan akademik, ilmiy, ma'naviy va tashkiliy omillarning (X_n) bog'liq o'zgaruvchilar sifatida tanlangan universitetning raqobatbardoshligi va talabalar sodiqligi (Y_n) ta'siri o'rganilgan. Olingan natijalar asosida universitetlarning marketing faoliyatini takomillashtirish va ta'lim sifatini oshirish bo'yicha takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: OTM, mijozlarga yo'naltirilgan marketing, marketing strategiyasi, ta'lim sifatini oshirish, raqobatbardoshlik, talabalar sodiqligi, akademik faoliyat, ilmiy faoliyat.

Аннотация

В данной статье исследованы научно-теоретические аспекты разработки клиентоориентированных маркетинговых стратегий высших учебных заведений. В вузах определены следующие основные принципы организации образования на основе клиентоориентированного подхода. Изучено влияние академических, научных, моральных и организационных факторов (X_n), созданных в вузе, на конкурентоспособность выбранного вуза и лояльность студентов (Y_n). На основании полученных результатов были выдвинуты предложения по совершенствованию маркетинговой деятельности вузов и повышению качества образования.

Ключевые слова: вуз, клиентоориентированный маркетинг, маркетинговая стратегия, повышение качества образования, конкурентоспособность, лояльность студентов, академическая деятельность, научная деятельность.

Abstract

This article studies the scientific and theoretical aspects of the development of customer-oriented marketing strategies of higher education institutions. The following basic principles of organization of education based on a customer-oriented approach have been defined in universities. The impact of academic, scientific, moral and organizational factors (X_n) created in the university on the competitiveness of the selected university and student loyalty (Y_n) was studied. Based on the obtained results, proposals were put forward to improve the marketing activities of universities and increase the quality of education.

Keywords: HEI, customer-oriented marketing, marketing strategy, improving the quality of education, competitiveness, student loyalty, academic activity, scientific activity.

KIRISH

Jahon bankining ma'lumotlariga ko'ra, "2000-yilda dunyo bo'yicha oliy ta'lim muassasalarida jami 100 million talaba tahsil olgan bo'lsa, bu ko'rsatkich bugungi kunda 220 millionga yaqin talabani tashkil qilmoqda"[1]. Bugungi kunda oliy ta'lim sohasini maqsadli rivojlantirish va boshqarish samaradorligini oshirishda aniq maqsadli va barqaror rivojlanishni ta'minlashga yo'naltirilgan strategiyalar, jumladan, innovatsion marketing faoliyatini boshqarish strategiyalariga dolzab muammolardan biri sifatida qaralmoqda.

"O'zbekiston–2030" strategiyasida "oliy ta'lim bilan qamrovni kengaytirish", "oliy ta'lim muassasalari tashkiliy-boshqaruv faoliyatini takomillashtirish", "korxonalar – oliygoh — ilmiy tashkilot" klaster tizimini joriy etish va "ilmiy tadqiqotlarni va innovatsion tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash" kabi vazifalar belgilab berilgan. Belgilangan vazifalarni samarali amalga oshirishda oliy ta'lim muassasalari (OTM) raqobatbardoshligini oshirish, inson kapitalini mehnat bozori talablari asosida rivojlantirish, sog'lom raqobat muhitini rivojlantirish va muassasalar jozibadorligini oshirish ta'lim jarayoniga raqamli va zamonaviy ta'lim texnologiyalarini tabaqalashtirilgan holda qo'llash, oliy ta'limning innovatsion marketing faoliyatini boshqarishning metodologik-uslubiy asoslarini takomillashtirish kabi yo'nalishidagi ilmiy tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish maqsadga muvofiq.

ADABIYOTLAR SHARHI

Marketingni tashkil etish jarayoni bir necha bosqichlardan iborat bo'lib, va ularning har biri samarali marketing strategiyalarini ishlab chiqish uchun juda muhimdir.

Marketing biznes-tadbirkorlik faoliyatining bozorga moslashuvining asosiy va hal qiluvchi vositasi hisoblanadi. Marketing korxonalar uchun mahsulot yoki xizmatlarni sotish, mijozlarni jalb qilish va ularni saqlab qolish, shuningdek, biznes maqsadlariga erishish uchun tadqiqotlar o'tkazish va qarorlar qabul qilish kabi bir qator strategiya va taktikalardan iborat bo'ladi.

"Marketing faoliyatini tashkil etish va boshqarish" nazariyalarni o'rganishda tushunchalarining mazmun-mohiyatini chuqur anglash, "faoliyatni tashkil etish" va "boshqarish" tushunchalarining ma'nosi va ular o'rtasidagi farqlarni aniqlash maqsadida, 1-jadvalda jahonning yetakchi marketolog olimlari tomonidan ilmiy tadqiqotlarda keltirilgan yondashuvlar tahlil qilindi.

Korxonalar marketing faoliyatini tashkil etishning asosiy maqsadi bozorda ko'zlagan maqsadlariga erishishdir. Bunday jarayonda korxonalar bir qator qiyinchiliklarga duch kelishadi.

Marketing faoliyatini tashkil etish va boshqarishning tushunchalarga olimlarning yondashuvi

Mualliflar	Ta'rif
Doyl P.	"Marketing menejmenti iste'molchilarning ehtiyojlarini aniqlash va ularni qondirish uchun mo'ljallangan takliflarni ishlab chiqish orqali raqobatchi firmalarning foyda olishga intilishiga yordam beradi"[2]
Kotler F.	"Marketing menejmenti (marketing menejmenti) — bu individual va tashkiliy maqsadlarga javob beradigan almashinuvni amalga oshirishga qaratilgan umumiy konsepsiyani, narx siyosatini, g'oyalarni, tovarlarni va xizmatlarni ilgari surish va tarqatishni rejalashtirish va amalga oshirish jarayoni"[3]
Pirs Dj., Robinson R.	"Strategik menejment — raqobat muhitida kompaniyani yaxshilashga, uning tashqi o'zgarishlarga, ichki ehtiyojlarga va raqobatchilarning harakatlariga moslashishga qaratilgan boshqaruv jarayonlarini optimallashtirish"[4] "Strategiya — kompaniya maqsadlariga erishish uchun raqobat muhiti bilan o'zaro munosabatlarning uzoq muddatli istiqbolli rejaları"
Adamenko Ye.Yu.	"Intellectual intensiv innovatsion mahsulotlar marketingini tashkil etish innovatsiyalarni yaratish va tijoratlashtirish, joriy etish va samaradorligini baholash, shuningdek integral ma'lumotlar bazalarini shakllantirish bo'yicha sa'y-harakatlarni integratsiya, uyg'unlashtirish va qo'llab-quvvatlash jarayoni sifatida"[5]
Balakina Yu.Yu.	"Mijozlar bilan samarali va muvozanatli munosabatlar uchun dasturlarni tahlil qilish, rejalashtirish, amalga oshirish va nazorat qilish tartiblari va bosqichlarini amalga oshirish"[6]
Baranovskiy A.I.	"Ta'limda marketingni tashkil etishning asosiy yo'nalishlari ta'lim tashkilotining "inson kapitali" raqobatbardoshligini oshirish va ta'lim xizmatlarini ishlab chiqarish jarayonining raqobatbardoshligini oshirishdan iborat, umuman olganda, ma'lum bir universitetning noyob taklifi qiymatining o'sishini ta'minlash"[7]
Gaydayenko T.A.	"Marketing yaxlit boshqaruv konsepsiyasi va kompaniya boshqaruv tizimi sifatida" "Marketing menejmenti faoliyat sifatida marketing tizimi tomonidan tartibga solinadi". "Marketingni tashkil etish jarayoni korxonaning marketing imkoniyatlarini tahlil qilish, jozibador maqsadli bozorlar / segmentlarni tanlash, marketing aralashmasi formatida marketing taktikasini ishlab chiqish va uni amalga oshirish bilan bog'liq"[8].
Danko T.P.	"Marketing menejmenti — bu marketing va raqobat muhitining dinamikasi va qonuniyatlarini, shuningdek, iste'molchi xatti-harakatlarining omillari va xususiyatlarini hisobga olish va foydalanishga asoslangan o'z marketing pozitsiyasini shakllantirish va tartibga solish bo'yicha korporativ subyektning ongli maqsadli faoliyati. Marketing menejmentining maqsadi — mijozlarga e'tibor qaratish, marketingni joylashtirish va o'zgarish qilish strategiyasi orqali amalga oshiriladigan marketing o'zaro ta'siri va bozor almashinuv subyektlari manfaatlarini muvozanatini topishdir"[9].
Yermakov D.N.	"Marketing menejmenti tahliliy, ishlab chiqarish, marketing va tashkiliy funksiyalarning kompleksi (amalga oshirishning texnologik jarayoni) sifatida"[10]
Korotkov A.V., Sinyayeva I.M.	"Marketingni tashkil etish tizimi faoliyat iyerarxiyasi, marketing rejaları va ularning tarkibiy dasturlari, shuningdek, aniq marketing qarorlari sifatida"[11]
Krasovskaya N.V.	"Marketingni boshqarish — bu maqsadli marketing ko'rsatkichlariga erishishga qaratilgan xizmat ko'rsatish sohasi tashkilotining marketing kompleksini shakllantirish, amalga oshirish, nazorat qilish va sozlash jarayoni"[12]
Kornyushin V.Yu.	"Marketing menejmenti faoliyatni tashkil etish, talabni boshqarish va funksional marketingni tashkil etish bilan bog'liq boshqaruv ta'siri majmuasi sifatida"[13]
Ksendzova G.F.	"Ta'limda marketing menejmenti — ta'lim tashkilotining qiymat taklifi doirasida mehnat bozori ehtiyojlarini yuqori malaka darajasidagi istiqbolli mehnat resurslarining mavjudligi va sifati (ish qobiliyati) bilan o'zaro bog'liqligi"[14]

Universitetlar talabalarga moslashuvchan marketing strategiyalarini ishlab chiqishda, birinchi navbatda, talabalarning ehtiyojlari va qiziqishlarini aniqlash uchun bozor tadqiqotlari o'tkazishi zarur. Bu ularning demografik, akademik va qiziqishlar asosida segmentlarga ajratilishiga imkon yaratadi. Shuningdek, talabalarga shaxsiylashtirilgan marketing takliflarini ishlab chiqish, marketing strategiyalarida innovatsion yondashuvlarni qo'llash va sanoat hamkorlari, professional tashkilotlar bilan hamkorlik qilish universitetlarning marketing strategiyalarini talabalarning o'zgaruvchan ehtiyojlariga moslashtirishga va ularning qiziqishlarini qondirishga yordam beradi.

Marketingning "4C" modellaridan foydalanishning asosiy tamoyili universitet yoki ta'lim muassasalarida talabalarga yo'naltirilgan dars mashg'ulotini tashkil etishdir. Robert Loterbornning "4C" tomonidan taklif etilgan modeli doirasidagi marketing elementlari strategik marketing konsepsiyasida tovar va xizmatlar ishlab chiqaruvchilarni bozor maqsadlari emas, balki iste'molchilarning talab va ehtiyojlarini qondirishni asosiy maqsad sifatida belgilaydi. Mazkur konsepsiya O'zbekiston ta'lim tizimi oldida turgan bugungi muhim vazifalar bo'lib, ta'lim xizmatlari bo'yicha brend strategiyalari orqali talabalar tomonidan qabul qilinish uchun bir-biriga bog'liq tadbirlarni amalga oshirishni anglatadi. Shuningdek, Marketing MIKSning zamonaviy shakli sifatida "4C" elementlaridan foydalanishni nazarda chetda qoldirmaslik lozim.[15]

"Marketingning 4C" modeli ta'lim muassasalari uchun muvofiqlashtirilgan ta'lim xizmatlarini samarali yetkazib berish va turli manfaatdor tomonlar bilan hamkorlikni ta'minlash uchun muhim bo'lgan jihatlarga e'tibor qaratishni o'z ichiga oladi. Ta'lim tashkilotlari kontekstida 4C – Iste'molchi yechimi (customer solution) haridorning xarajatlari (customer cost), qulaylik (convenience), aloqa (communication) kabi tarkibiy elementlarni o'z ichiga oladi.

Universitetlarda mijozlarga yo'naltirilgan yondashuv asosida ta'limni tashkil etish quyidagi asosiy prinsiplarga asoslanadi:

1. Mijozlarga yo'naltirilgan yondashuv: talabalarga yo'naltirilgan xizmatlarni, individual ta'lim tajribalarini taqdim etish.

2. Xizmatlar uchun to'lovlarni boshqarish: xarajatlar va moliyaviy yordam ta'limning qiymati mutanosib boshqarish.

3. Talabalar uchun qulaylik va imkoniyatlar taqdim etish: ta'lim resurslari, qo'llab-quvvatlash xizmatlari ahamiyat berish.

4. Samarali kommunikatsiyani yo'lga qo'yish:

Ta'lim muassasalari marketingning "4C" tizimini qo'llash orqali talabalar bilan samarali aloqani yo'lga qo'yish va ularni saqlab qolish, yuqori sifatli ta'limni taqdim etish imkoniyatini oshiradi. Xizmat ko'rsatish sohalari o'z faoliyatini, tabiiyki, mijozlarga yo'naltirilgan holda tashkil etadi. Oliy ta'limda esa bu talabalarning o'zgaruvchan talablariga to'liq moslashishni va ijtimoiy imtiyozlarni inobatga olgan holda moslashishni talab qiladi.[16]

Universitetlarning talabalarga moslashuvchan marketing strategiyalarini ishlab chiqish uchun mazkur holatni baholash talab etiladi. Oliy ta'limning talabalar bilan ishlashda funksiyalari:

- Tashkiliy faoliyat;
- Akademik faoliyat;
- Ilmiy faoliyat;
- Ma'naviy faoliyat;

Universitetlarning talabalar uchun akademik funksiyasidan kelib chiqib, talabalarni intellektual jihatdan o'zlashtirishga yordam beradigan mustahkam ta'lim tajribasini ta'minlashga qaratilgan. Ushbu ta'lim muassasalarni funksiyasi qanchalik talabalar ehtiyojlariga moslashuvchan bo'lsa, ular xizmatlar o'z o'rniga ega bo'lib shunchalik raqobatbardosh bo'ladi. Ushbu yondashuv asosida universitetlar talabalarga yo'naltirilgan marketing vositalaridan foydalanib, ta'lim xizmatlari samaradorligini yuksaltirishga erishadi. Universitetlar o'z faoliyatida "Marketing 4C" strategiyalarini qo'llashda uning barcha faoliyatlarni talabalar manfaatlarini inobatga olish, moslashish va xizmat qiymat taklifini aniqlash orqali amalga oshirishlari zarur.

METODOLOGIYA

Universitet talabalarga yo'naltirilgan ta'limning samaradorligi universitet raqobatbardoshligi va talabalarning sodiqligi asosida namoyon bo'ladi. Tadqiqot maqsadidan kelib chiqib, tadqiqotda mustaqil o'zgaruvchilar bo'lib talabalar uchun universitetda yaratilgan akademik, ilmiy, ma'naviy va tashkiliy omillar (X_n) tanlanadi. Bog'liq o'zgaruvchilar sifatida esa universitetning raqobatbardoshligi va talabalar sodiqligi (Y_n) ko'rib chiqiladi.

Universitetlarning talabalarga moslashuvchan marketing strategiyalarini ishlab chiqishda ushbu holatni baholash talab etiladi. Biz tadqiqotimizda quyidagi gipotezalar shakllantirdik:

H1 – universitetning akademik faoliyatini talabalarga yo'naltirilgan shaklda tashkil erish uning raqobatbardoshligini oshiradi;

H2 – universitetning akademik faoliyatini talabalarga yo'naltirilgan shaklda tashkil erish unga talabalarning sodiqligini oshiradi;

H3 – universitetning ilmiy faoliyatini talabalarga yo'naltirilgan shaklda tashkil etish uning raqobatbardoshligini oshiradi;

H4 – universitetning ilmiy faoliyatini talabalarga yo'naltirilgan shaklda tashkil etish unga talabalarning sodiqligini oshiradi;

H5 – universitetning ma'naviy-ma'rifiy faoliyatini talabalarga yo'naltirilgan shaklda tashkil etish uning raqobatbardoshligini oshiradi;


H6 – universitetning ma'naviy-ma'rifiy faoliyatini talabalarga yo'naltirilgan shaklda tashkil etish unga talabalarning sodiqligini oshiradi;

H7 – universitetning tashkiliy faoliyatini talabalarga yo'naltirilgan shaklda tashkil etish raqobatbardoshligini oshiradi;

H8 – universitetning tashkiliy faoliyatini talabalarga yo'naltirilgan shaklda tashkil etish unga talabalarning sodiqligini oshiradi;

Qo'yilgan gipotezalarni asoslash uchun ushbu yondashuvga ko'ra, universitetlarning talabalarga yo'naltirilgan marketing vositalaridan foydalanishi ularning raqobatbardoshligini oshiradi va ta'lim xizmatlarining samaradorligini oshirdi. Shu asosida ta'lim muassasalari "Marketingning 4C" marketing

strategiyalarini ishlab chiqish orqali talabalar bilan samarali munosabat o‘rnatadi va samarali strategiya ishlab chiqishga imkon yaratadi. Universitetlar faoliyatini marketing “4C” elementlari asosida baholashga bo‘lgan yondashuv 1-rasmda tavsiai etiladi.



1-rasm. Universitetlar faoliyatini marketing “4C” elementlari asosida baholash usullari¹

Gipotexalarni asoslash uchun marketing tadqiqotlarining so‘rov usulidan foydalaniladi. Talabalar o‘rtasida anketa tarqatiladi. Anketada har bir belgilab olingan o‘zgaruvchilar uchun likert shkalasi asosida baholanadi, bunda so‘rovnomada keltirilgan fikrlarga to‘liq rozi 5 ball, rozilik 4 ball, qisman rozilik 3 ball, norozilik kayfiyati 2 ball va to‘liq norozilik 1 ball etib belgilanadi. So‘rovnomada 3 mingdan ortiq respondentlar ishtirok etgan va tanlanma uchun 2900 tasi olingan. Mazkur gipotezalarni asoslash uchun PLS modelidan foydalaniladi. PLS dan foydalangan holda murakkab iqtisodiy tizimlarda jarayonlarni modellashtirish imkoniyati mavjud. PLS modeli regressiya funksiyalari asosida o‘zgaruvchilarning standartlashgan koeffitsiyentlari asosida tuziladi va har bir standartlashgan koeffitsiyentlar omillarga ta’sir etuvchi o‘zgaruvchilarning ahamiyatini ko‘rsatib beradi. PLS modeli asosida olinadigan standartlashgan regressiyaning vazn koeffitsiyentlarining ahamiyatligini tekshirish talab etiladi.

PLS modeli ahamiyatlilik va sifat ko‘rsatkichlari natijalari o‘rtacha ichki mustahkamlik ishonchliligi, ko‘rsatkich ishonchliligi, konvergent haqiqiyliigi, multikollinearlik va yuklashdan iborat.[17] Olingan natijalar ichki va tashqi modelning mezon bilan taqqoslanadigan qiymat belgisi tegishli moslik testlari asosida p-qiymati bilan 2-jadvalda keltirilgan.

¹ Muallif ishlanmasi

PLS modelining mosligi va sifat indekslarining mezonlari[18]

Validlik	Mezonlar	O'rnatilgan mezonlar
Reflektor o'lchov modellari		
Ichki mustahkamlik ishonchliligi (Internal consistency reliability)	Kompozit Ishonchlilik (CR)	>0.70 (tadqiqotida 0,60 dan 0,70 gacha maqbul qiymat hisoblanadi)
Ko'rsatkich ishonchliligi	Indikatorni yuklash	>0.70 (kamida 0.05 darajasida muhim)
Convergent validlik	Average Variance Extracted (AVE)	>0.50
Multikollinearlik	Har bir indikatorning dispersiya inflyatsiya omili (VIF)	<5.00
Tarkibiy Model		
R ²	R ²	0.75, 0.50, or 0.25 strukturaviy modeldagi endogen yashirin o'zgaruvchilar uchun
Yo'l koeffitsiyentlarining ahamiyatini baholash uchun bootstrappingdan foydalanish	Bootstrap namunalarining minimal soni 5000 tani tashkil qiladi.	t- ikki tomonlama sinov uchun qiymatlar 1.65 (sig.=0.1), 1.96 (sig.=0.05), va 2.58 (sig.=0.01)

Baholash uchun so'rovnomaga qo'yilgan asosiy muammolar 5 balli likert shkalasi asosida aniqlanadi va ular quyidagilar:

X_1 – Akademik faoliyat

Q_1 – talabalarga o'quv dasturlarining moslashuvchanligi;

Q_2 – o'quv dasturlari qiymatini qulayligi;

Q_3 – talabalarga o'quv dasturlarining qulay tanlash imkoniyati mavjudligi;

Q_4 – talabalarining o'quv dasturlarini bo'yicha tushunchalari;

X_2 – ilmiy faoliyat (yashirin omil);

Q_5 – talaba uchun ilmiy faoliyatni moslashuvchanligi;

Q_6 – ilmiy faoliyatlar olib borish uchun to'lovlar qulayligi;

Q_7 – ilmiy faoliyatlarning talabaga qulayligi (lobaratoriyalar va amaliyot obyektlarining mavjudligi);

Q_8 – ilmiy faoliyatlar bo'yicha axborot va ma'lumotlar bazalarining mavjudligi;

X_3 – ma'naviy faoliyat (yashirin omil)

Q_9 – ma'naviy tadbirlarning talaba uchun moslashuvchanligi;

Q_{10} – ma'naviy tadbirlar uchun talabalarga to'lovlar qulayligi;

Q_{11} – ma'naviy tadbirlarning darslardan bo'sh vaqtlarida tashkil etilishi;

Q_{12} – ma'naviy tadbirlar bo'yicha talabalarga ma'lumotlar olish imkoniyatining borligi;

X_4 – tashkiliy faoliyat (yashirin omil);

Q_{13} – talaba uchun tashkiliy faoliyatlarni moslashuvchanligi;

Q_{14} – tashkiliy xarajatlar uchun to'lovlar qulayligi;

Q_{15} – tashkiliy ishlarni hujjatlashtirish, joylashuv, kampusda harakatlanishda talaba uchun qulayligi;

Q_{16} – tashkiliy masalalar bo'yicha axborot va ma'lumotlar bazalarining mavjudligi;

PLS tahlilni amalga oshirish uchun "Smartpls 3.0" paket dasturidan foydalaniladi. SmartPLS 3.0. tizimlashtirilgan tenglamalarni modellashtirish (SEM) uchun eng samarali dasturiy paket hisoblanadi. SmartPLS 3.0 foydalanuvchilarga o'zgaruvchilar o'rtasidagi tizimli munosabatlarni tahlil qilish uchun ishlatiladigan statistik usul bo'lgan tizimli tenglamalar modellashtirish (SEM)ni o'tkazish imkonini beradi. Ushu dasturiy paket qisman eng kichik kvadratlar (PLS) yo'lini modellashtirish bo'yicha tahlillarini o'tkazadi.

Ushbu usul, murakkab modellarni tahlil qilishda, yashirin o'zgaruvchilar va bir nechta ko'rsatkichlar mavjud bo'lgan vaziyatlarda qulay hisoblanadi. Universitet faoliyatidagi iqtisodiy, ijtimoiy yoki texnologik omillarni birgalikda o'rganishda foydalanildi. SmartPLS 3.0 modelni ishlab chiqishda sudrab tashlash usulidan foydalanadi va natijalarning grafik tasvirini taqdim etadi. Dasturiy ta'minot ko'p guruhli tahlil, vositachilik tahlili, moderatsiya tahlili va yuklash kabi ilg'or tahlillarga imkon beradi. SEM doirasidagi to'g'ridan-to'g'ri, bilvosita va umumiy ta'sirlarni baholashni qo'llab-quvvatlaydi.

SmartPLS 3.0 yo'l diagrammalari, o'lchov modellari va strukturaviy modellarning grafik natijalarini taqdim etadi. U nashr yoki keyingi tahlil uchun moslashtirilgan va eksport qilinadigan keng qamrovli hisobotlar va natijalarni yaratadi. SmartPLS 3.0 PLS-SEM va SEM tahlillarini o'tkazish uchun ko'p qirrali dasturiy vosita bo'lib, u ilg'or tahliliy imkoniyatlar va turli sohalarda tadqiqot hamda amaliy vositalar uchun mos bo'lgan keng qamrovli hisobotlar yaratiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

TDIU talabalari o'rtasida o'tkazilgan anketa savollari asosida SmartPLS 3.0 dasturidan foydalanilgan holda PLS modelini olish uchun "Complete Bootstrapping" modelidan foydalaniladi.

Bootstrapping — bu ma'lumotlar namunalaridan olingan taxminlarning ishonchliligi va mustahkamligini baholash uchun ishlatiladigan statistik usuldir. Strukturaviy tenglamalarni modellashtirish (SEM) tahlilda ma'lumotlarning taqsimlanishi haqida taxminlar qilmasdan standart xatolar, ishonch oralig'i va ahamiyatlilik darajalarini olish imkonini beradi.

"Bootstrapping" barcha mavjud natijalarni olishga imkon beradi. Jumladan: yo'l koeffitsiyentlari (β -koeffitsiyenti), bilvosita ta'sirlar, umumiy effektlar, tashqi yuklanishlar, tashqi og'irliklar, R kvadrati, chiqarilgan o'rtacha farq (AVE), kompozit ishonchlilik, Cronbach's Alpha va geterotrait-monotrait nisbati (HTMT) va boshqalar.


Bootstrappingning asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

- Parametrik bo‘lmagan yondashuv: bu yondashuv ma’lumotlarning taqsimlanishi haqidagi taxminlarga asoslanmaydi, shuning uchun u noan’anaviy yoki egri ma’lumotlar holatlarida yanada ishonchli hisoblanadi.

- Bias-Correction: Parametrlarni baholashda noto‘g‘ri fikrlarni tuzatishga yordam beradi va ishonchli standart xatolar va ishonch oraliqlarini ta’minlaydi.

- Moslashuvchanlik: an’anaviy taxminlar bajarilmasligi mumkin bo‘lgan murakkab modellar uchun javob beradi.

Tanlangan tadqiqot uchun “Bootstrapping” asosida PLS modelining standart yo‘l koeffitsiyentlari bo‘yicha tuzilgan va olingan model natijalari 4.2-rasmda aks etgan. Mazkur model barcha omillarning o‘zaro korrelyatsion bog‘liqligi va regressiya usuli asosida olinadigan β -koeffitsiyentlarini vizual tarzda namoyish etadi (2-rasm).



2-rasm. Universitet talabalarga yig‘ilgan anketalar asosida olingan PLS model natijalari¹

Tizimli tenglamalarni modellashtirish (SEM) asosiy komponenti bu yo‘l koeffitsiyenti (Path coefficients) hisoblanadi. Ular faraz qilingan nazariy model doirasida o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi munosabatlarning kuchi va yo‘nalishini miqdoriy jihatdan aniqlaydi. Yo‘l koeffitsiyentlari tizimli tenglama modelida o‘zgaruvchilar (kuzatilgan va yashirin) o‘rtasidagi munosabatlarning kattaligi va yo‘nalishini ko‘rsatadigan standartlashtirilgan regressiya og‘irliklarini β -koeffitsiyent ifodalaydi.

¹ SmartPLS 3.0 dasturi asosida olingan natijalar

Bu ekzogen (mustaqil) o'zgaruvchilar va endogen (qaram) o'zgaruvchilar orasidagi yo'llarni qiymat jihatidan baholashga olib keladi.

Yo'l koeffitsiyentlari musbat yoki manfiy belgi bilan ifodalanishi mumkin. Ijobiy yo'l koeffitsiyenti o'zgaruvchilar orasidagi ijobiy chiziqli munosabatni ko'rsatadi (ya'ni, bir o'zgaruvchining ortishi bilan ikkinchisi o'sish tendensiyasiga ega). Salbiy yo'l koeffitsiyenti teskari munosabatni ko'rsatadi (ya'ni, bir o'zgaruvchining ortishi bilan ikkinchisi pasayish tendensiyasiga ega).

Yo'l koeffitsiyentining kattaligi munosabatlarning kuchini aks ettiradi. Kattaroq koeffitsiyentlar o'zgaruvchilar o'rtasidagi kuchli munosabatlarni ko'rsatadi.

Yo'l koeffitsiyentlari standartlashtirilgan, ya'ni ular standart og'ish birliklarida ifodalangan. Ushbu standartlashtirish turli xil o'zgaruvchilar va modellar bo'yicha ta'sir o'lchamlarini taqqoslash imkonini beradi. Yo'l koeffitsiyentlari modeldagi o'zgaruvchilar o'rtasidagi munosabatlar haqidagi farazlarni sinash uchun muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot munosabatlarning mavjudligi va mustahkamligini aniqlashda yo'l koeffitsiyentlarining statistik ahamiyati tekshiriladi. Bu, koeffitsiyentlarning nolga nisbatan sezilarli darajada farq qilishini baholashni o'z ichiga oladi. Tadqiqot uchun qo'yilgan gipotezalarni asoslashda olingan yo'l koeffitsiyentlari, standartlashtirilgan qiymatlari va ularning statistik ahamiyati 3-jadvalda ko'rsatilgan.

3-jadval

Yo'l koeffitsiyentlari

Mean, STDEV, T-Values, P-Values					
Bog'lanishlar	Original Sample (O)	Sample Mean (M)	Standard Deviation (STDEV)	T Statistics ((O/STDEV))	P Values
X1 -> Y1	0,064	0,062	0,032	1,963	0,025
X1 -> Y2	-0,045	-0,049	0,023	1,936	0,027
X2 -> Y1	0,051	0,049	0,027	1,870	0,031
X2 -> Y2	-0,123	-0,126	0,020	6,038	0,000
X3 -> Y1	0,108	0,101	0,044	2,468	0,007
X3 -> Y2	-0,079	-0,080	0,022	3,529	0,000
X4 -> Y1	0,083	0,078	0,057	1,457	0,073
X4 -> Y2	-0,118	-0,110	0,055	2,148	0,016

Olingan natijalarga ko'ra X1 -> Y1 musbat kuchsiz bog'lanishga ega bo'lib, bu universitetning akademik faoliyatni talabalarga qay darajada maslashuvchanligini ettiruvchi ko'rsatkichning miqdoriy qiymatini ifodalaydi. Xuddi shunday universitetning akademik faoliyatining talabalarga yo'naltirilganlik darajasining mavjud holati mazkur universitetning raqobatbardoshligini oshirishga teskari munosabatda ekanligini asoslamoqda. Ushbu holatda universitetning akademik faoliyat funksiyalari talabalar uchun moslashuvchan, ammo ta'lim sifatini ta'minlashga moslashuvchan emas degan xulosaga kelish mumkin.

3-jadvalda keltirilgan ma'lumotlariga asosan universitetning ilmiy faoliyat funksiyalari natijalari talabalar uchun moslashuvchan bo'lib, ushbu faoliyatni tashkil etish universitetning raqobatbardoshligini oshirishga teskari bog'liqlikda ekan.

Universitetning akademik, ilmiy, ma'naviy va tashkiliy funksiyalarining anketa savollari asosida ko'rib chiqilsa Marketing "4C" elementlaridan xar bir o'zgaruvchilar sifatida tanlangan savollar ($Q_n <- X_n$) bog'lanishlarni aniqlanadi. Mazkur bog'lanishlar "Bootstrapping" modelida tashqi yuklanishlar (Outer Loadings) sifatida hisoblanadi va tadqiqotda olingan natijalar 4-jadvalda aks etgan.

4-jadval

Tashqi yuklanishlar (Outer Loadings)

Mean, STDEV, T-Values, P-Values

Omillar ta'siri	Original Sample (O)	Sample Mean (M)	Standard Deviation (STDEV)	T Statistics (O/STDEV)	P Values
Q1 <- X1	-0,232	-0,195	0,167	1,393	0,082
Q10 <- X3	0,719	0,713	0,077	9,287	0,000
Q11 <- X3	0,620	0,613	0,073	8,468	0,000
Q12 <- X3	-0,579	-0,565	0,085	6,801	0,000
Q13 <- X4	0,511	0,470	0,216	2,371	0,009
Q14 <- X4	0,643	0,580	0,256	2,512	0,006
Q15 <- X4	-0,599	-0,524	0,285	2,104	0,018
Q16 <- X4	0,225	0,203	0,132	1,709	0,044
Q17 <- Y2	0,808	0,806	0,042	19,221	0,000
Q18 <- Y2	0,676	0,673	0,055	12,354	0,000
Q19 <- Y1	0,781	0,745	0,283	2,766	0,003
Q2 <- X1	0,730	0,700	0,136	5,381	0,000
Q20 <- Y1	-0,616	-0,539	0,253	2,435	0,007
Q3 <- X1	-0,532	-0,483	0,198	2,694	0,004
Q4 <- X1	0,484	0,481	0,156	3,112	0,001
Q5 <- X2	0,497	0,499	0,097	5,132	0,000
Q6 <- X2	-0,265	-0,263	0,101	2,630	0,004
Q7 <- X2	0,620	0,613	0,069	9,003	0,000
Q8 <- X2	0,659	0,644	0,068	9,683	0,000
Q9 <- X3	-0,267	-0,248	0,109	2,450	0,007

Tashqi yuklanishlar (Outer Loadings) PLS-SEMda omil yuklari yoki indikator yuklamalari, deb ham ataladi. Bu yashirin o'zgaruvchilar (konstruktsiyalar) va ularning kuzatilgan ko'rsatkichlari (manifest variables or items) o'rtasidagi munosabatlarni ifodalaydi. Ular har bir ko'rsatkich o'zining tegishli yashirin o'zgaruvchisini qanchalik yaxshi o'lchaganini miqdoriy jihatdan aniqlaydi. 4-jadval ma'lumotlariga ko'ra

Q1 <- X1 bog'lanish quyidagilar bilan ifodalanadi. O'quv dasturlarining talaba uchun moslashuvchanligi (Q_1) va Akademik faoliyatning (X_1) o'zaro ta'siri manfiy biroq past qiymatga ega ekanligini ko'rish mumkin. Mazkur holatlar o'quv dasturlarini talabalar uchun yanada moslashuvchanligini oshirish kerak degan xulosalarni chiqarish imkonini beradi. Shuningdek, universitetlarning o'quv dasturlarining talabalarga qulay tanlash imkoniyati (Q_3) haligacha ta'minlanmaganligi akademik faoliyat funksiyalarini samarali bajarilishini ta'minlash imkoniyatini bermagan.

Universitetlar faoliyatini "4C" marketing elementlari asosida baholash bo'yicha olingan natijalar asosida strategik vazifalarni belgilash uchun xizmat qiladi.

Qo'yilgan gipotezalarni asoslash uchun esa yo'l koeffitsiyentlari asosida miqdoriy mezonlarga muvofiqlik tekshirilishi lozim. Koenning, [19] Fey, C.F.; Hu, T.; Delios, A. [20] hamda Nieminen P. lar [21] tosonidan ta'sir o'lchamlarini tasniflash

bo'yicha ko'rsatmalari berib o'tganlar. Ular β koeffitsiyenti uchun 0,10-0,29 gacha bo'lgan ta'sir kichik, 0,30-0,49 gacha bo'lgan ta'sir o'rtacha va 0,50 yoki undan katta ta'sir mezonlari qabul qilingan. Bunda muhimlik darajasi kamida $p(\text{value}) \leq 0,10$ bo'lganida quyidagi shartlar kiritiladi:

Yo'l koeffitsiyenti ($0 \leq \beta \leq 0,10$) bo'lganda sezilmas ta'sir kuchiga ega bo'lgan omil;

Yo'l koeffitsiyenti ($0,10 \leq \beta \leq 0,29$) bo'lganda kichik ta'sir kuchiga ega bo'lgan omil;

Yo'l koeffitsiyenti ($0,30 \leq \beta \leq 0,49$) bo'lganda o'rtacha ta'sir kuchiga ega bo'lgan omil;

Yo'l koeffitsiyenti ($0,50 \leq \beta \leq 1$) bo'lganda yuqori ta'sirga ega bo'lgan omil;

Yo'l koeffitsiyenti ($-0,10 \leq \beta \leq 0$) bo'lganda sezilmas teskari ta'sir kuchiga ega bo'lgan omil;

Yo'l koeffitsiyenti ($-0,29 \leq \beta \leq -0,10$) bo'lganda kichik teskari ta'sir kuchiga ega bo'lgan omil;

Yo'l koeffitsiyenti ($-0,49 \leq \beta \leq -0,30$) bo'lganda o'rtacha teskari ta'sir kuchiga ega bo'lgan omil;

Yo'l koeffitsiyenti ($-1 \leq \beta \leq -0,50$) bo'lganda barcha natijalardan katta teskari ta'sirga ega bo'lgan omil aniqlanadi.

Ushbu holatlarni inobatga olgan holda universitetlarning akademik, ilmiy, ma'naviy va tashkiliy funksiyalari marketing "4C" elementlariga qay darajada moslik ekanligini aniqlash uchun kiritilgan gipotezalar asosida 5-jadval ma'lumotlarini olamiz.

5-jadval

Marketing "4C" elementlariga asosida qo'yilgan gipotezalar natijalari

Gipotezalar	Bog'lanishlar	Original Sample (O) Ko'rsatgichi	P Values Ko'rsatgichi	Kritik mezonlarga moslik	Gipotezalar qabul qilinishi
H1	X1 -> Y1	0,064	0,025	$0 \leq \beta \leq 0,10$	Rad etiladi
H2	X1 -> Y2	-0,045	0,027	$-0,10 \leq \beta \leq 0$	Rad etiladi
H3	X2 -> Y1	0,051	0,031	$0 \leq \beta \leq 0,10$	Qabul qilinadi
H4	X2 -> Y2	-0,123	0,000	$-0,29 \leq \beta \leq -0,10$	Qabul qilinadi
H5	X3 -> Y1	0,108	0,007	$0,10 \leq \beta \leq 0,29$	Qabul qilinadi
H6	X3 -> Y2	-0,079	0,000	$-0,10 \leq \beta \leq 0$	Rad etiladi
H7	X4 -> Y1	0,083	0,073	$0 \leq \beta \leq 0,10$	Rad etiladi
H8	X4 -> Y2	-0,118	0,016	$-0,29 \leq \beta \leq -0,10$	Qabul qilinadi

Universitetlarning talabalarga yo'naltirilgan marketing faoliyatini "4C" elementlariga mosligini tekshirish bo'yicha qo'yilgan gipotezalar bo'yicha olingan natijalar bo'yicha 4 ta gipoteza asosli va qolgan gipotezalar rad etiladi.

Universitetlarning talabalarga yo'naltirilgan marketing faoliyatida "4C" elementlarini samarali tashkil etish bo'yicha Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti faoliyatiga baho berish imkoniyati ham mavjud. 5-jadval bo'yicha olingan natijalar bo'yicha ham belgilab olingan kritik mezonlarga mos kelishiga qarab universitetning talabalarga yo'naltirilgan faoliyatini samaradorligiga 6-jadval asosida baho beriladi. Jadvalda olingan TDIUning talabalarga yo'naltirilgan marketing

faoliyatini “4C” konsepsiyasi asosida tashkil etilish holati bo‘yicha ishonchli dalillarni taqdim etish mumkin.

6-jadval

TDIuning talabalarga yo‘naltirilgan marketing faoliyatini “4C” konsepsiyasi asosida tashkil etilishini baholash natijalari

Omillar	Bog‘lanishlar	Original Sample (O)	P Values	Kritik mezonlarga moslik	Baholash
Akademik faoliyatning moslashuvchanligi	Q1 <- X1	-0,232	0,082	$-0,29 \leq \beta \leq -0,10$	kichik teskari ta'sir
Ma'naviy tadbirlar uchun to'lovlar	Q10 <- X3	0,719	0,000	$0,50 \leq \beta \leq 1$	yuqori ta'sir
Ma'naviy tadbirlarning qulayligi	Q11 <- X3	0,620	0,000	$0,50 \leq \beta \leq 1$	yuqori ta'sir
Ma'naviy tadbirlar bo'yicha axborot olish	Q12 <- X3	-0,579	0,000	$-1 \leq \beta \leq -0,50$	katta teskari ta'sir
Tashkiliy faoliyatlar moslashuvchanligi	Q13 <- X4	0,511	0,009	$0,50 \leq \beta \leq 1$	yuqori ta'sir
Tashkiliy ishlar uchun to'lovlar qulayligi	Q14 <- X4	0,643	0,006	$0,50 \leq \beta \leq 1$	yuqori ta'sir
Tashkiliy ishlar qulayligi	Q15 <- X4	-0,599	0,018	$-1 \leq \beta \leq -0,50$	katta teskari ta'sir
Tashkiliy faoliyat bo'yicha axborot olish	Q16 <- X4	0,225	0,044	$0,10 \leq \beta \leq 0,29$	kichik ta'sir
Raqobatbardoshlik va talabalar o'qishdan qoniqishi	Q17 <- Y2	0,808	0,000	$0,50 \leq \beta \leq 1$	yuqori ta'sir
Raqobatbardoshlik va ta'lim sifati	Q18 <- Y2	0,676	0,000	$0,50 \leq \beta \leq 1$	yuqori ta'sir
Sodiqlik va qoniqish	Q19 <- Y1	0,781	0,003	$0,50 \leq \beta \leq 1$	yuqori ta'sir
Akademik faoliyat uchun to'lovlar (kontrakt)	Q2 <- X1	0,730	0,000	$0,50 \leq \beta \leq 1$	yuqori ta'sir
Sodiqlik va ta'lim sifati	Q20 <- Y1	-0,616	0,007	$-1 \leq \beta \leq -0,50$	katta teskari ta'sir
O'quv dasturlarining qulayligi	Q3 <- X1	-0,532	0,004	$-1 \leq \beta \leq -0,50$	katta teskari ta'sir
O'quv dasturlarining tushunarligi	Q4 <- X1	0,484	0,001	$0,30 \leq \beta \leq 0,49$	o'rtacha ta'sir
Ilmiy faoliyatning moslashuvchanligi	Q5 <- X2	0,497	0,000	$0,30 \leq \beta \leq 0,49$	o'rtacha ta'sir
Ilmiy faoliyat uchun to'lovlar qulayligi	Q6 <- X2	-0,265	0,004	$-0,29 \leq \beta \leq -0,10$	kichik teskari ta'sir
Ilmiy faoliyatning qulayligi	Q7 <- X2	0,620	0,000	$0,50 \leq \beta \leq 1$	yuqori ta'sir
Ilmiy faoliyat olib borish uchun axborot olish imkoniyatlari	Q8 <- X2	0,659	0,000	$0,50 \leq \beta \leq 1$	yuqori ta'sir
Ma'naviy tadbirlarning talabalarga mosligi	Q9 <- X3	-0,267	0,007	$-0,29 \leq \beta \leq -0,10$	kichik teskari ta'sirga ega

Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining asosiy muammolari Akademik faoliyatning moslashuvchan emasligi, talabalarda ta'lim sifatiga bo'lgan ishonchini, o'quv dasturlarining noqulayligi, ilmiy faoliyat uchun to'lovlar noqulayligi va ma'naviy tadbirlarning talabalar bo'sh vaqtlariga mos kelmaslik holatlari aniqlandi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Amalga oshirilgan tadqiqot natijalaridan xulosa qilganda raqobat-bardosh oliy ta'lim tizimini shakllantirish, ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchi oliy ta'lim muassasalarining strategik yo'nalishlarini "ta'lim berishni ta'lim oluvchiga yo'naltirilgan" zamonaviy marketing konsepsiyasi asosida tashkil etish va xalqaro standartlar talablariga javob beruvchi marketing strategiyalarini joriy etish O'zbekistonda sohadagi islohotlarning asosiy ustuvor vazifalari sifatida qaralishi lozim

Mazkur muammolarga yechim topish uchun Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tomonidan bir qator ishlar amalga oshirildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 7-fevraldagi "Iqtisodiyot sohalari uchun kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-62-son qarori asosida o'quv reja qayta ishlab chiqish muhokamasi, malaka talablari, fan dasturlari ishlab chiqildi. Ushbu qarorga muvofiq, yetakchi xorijiy oliy ta'lim muassasalarining ta'lim yo'nalishlari va ularning malaka talablari, o'quv rejasi va dasturlarini ishlab chiqish zarurligi to'g'risida topshiriqlar berilgan.

Mazkur qarorda belgilangan topshiriqlar maqsadida Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti iqtisodchi kadrlar tayyorlashda malaka talablari va o'quv rejalarini xalqaro reytingda "Top-100" talikka kiruvchi universitetlarning o'quv dasturlariga moslashtirib ishlab chiqilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. <https://www.worldbank.org/en/topic/tertiaryeducation#1>
2. Дойль П., Штерн Ф. Маркетинг, менеджмент и стратегии. СПб.: Питер, 2007 //Маркетинг. Энциклопедия./Под ред. М. Бейкера. СПб.: Питер. – 2002.
3. Котлер Ф., Келлер К. Л. Маркетинг менеджмент. СПб.: Питер. – 2014.
4. Пирс Д. А., Робинсон Р. Б. Стратегический менеджмент: учебник для вузов-12-е изд. – 2013.
5. Адаменко Е. Ю. Управление маркетингом интеллектуальноемких инновационных продуктов //Научное обозрение. Серия. – 2013. – Т. 1. С. 30-39.
6. Балакина Ю. Управление маркетингом, ориентированным на потребителя //Балтийский экономический журнал. – 2014. – №. 2. – С. 48-54.
7. Глебова Н. М., Барановский А. И., Лейнвебер О. Ю. Интегрированный маркетинговый подход в формировании системы коммуникаций вуза //Проблемы современной экономики. – 2011. – №. 4. – С. 239-243.
8. Гайдаенко Т.А. Маркетинговое управление. М., Эксмо, 2008. – 512 с. С. 441.
9. Данько Т.П. Управление маркетингом: учебник и практикум для бакалавриата и магистратуры. М., Юрайт, 2016. – 521 с. С. 26.
10. Ермаков Д.Н. Сущность и содержание понятия «управление маркетингом» // Научные труды Вольного экономического общества России. 2016. Том 198. № 2. С. 238-243.
11. Коротков А.В., Синяева И.М.Управление маркетингом / под ред. А.В. Короткова, И.М. Синяевой. М., ЮНИТИ-ДАНА, 2005. С.455.

12. Красовская Н.В. Управление маркетингом на рынке услуг: понятийный анализ // Казанская наука. 2016. №3. С. 47–49.
13. Корнюшин В.Ю. Управление маркетингом. М., МИЭМР, 2014. – 166 с..
14. Ксендзова Г.Ф. Управление маркетингом в сфере образовательных услуг высшего профессионального образования // Историческая и социально-образовательная мысль. 2012. № 4 (14). С. 109–113.
15. Варакулина М.В., Ходжамырадов Б.Х. Управление маркетингом на предприятии: современные подходы //Всборнике «Устойчивое развитие экономики: состояние, проблемы, перспективы». Сборник трудов XII международной научно-практической конференции. Пинск, Полесский государственный университет. 2018. С. 173-174
16. Danko T.P. Upravleniye marketingom. M., Yurayt, 2017. – 521s. S. 28.
17. Jakobowicz E. Méthodes pour la construction du modèle conceptuel en vue de l’application de l’approche PLS //Journées de Statistique de la SFdS, Clamart. – 2006. – Т. 172.
18. Sangnak, Danupon & poo-udom, Aunchistha. (2021). The mode of entry strategies for Multinational Enterprise to investment the hotel industry in Myanmar. 10. 1-46.
19. Cohen, J. Statistical Power Analysis for the Behavioral Sciences, 2nd ed.; Erlbaum: Hillsdale, MI, USA, 1988; ISBN 0-8058-0283-5. [Google Scholar]
20. Fey, C.F.; Hu, T.; Delios, A. The Measurement and Communication of Effect Sizes in Management Research. Manag. Organ. Rev. 2022, 1–22.
21. Nieminen P. Application of standardized regression coefficient in meta-analysis //BioMedInformatics. – 2022. – Т. 2. – №. 3. – С. 434-458.

O‘ZBEKISTONDA ELEKTRON DAVLAT XARID TIZIMINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Akbarov Nodir Gafurovich

TDIU, Raqamli Iqtisodiyot fakulteti dekani, PhD, dotsent

ANNOTASIYA

Mazkur maqolada davlat xaridlari nazariy va amaliy jihatlari o‘rganilgan. O‘zbekiston Respublikasi davlat xaridlari tizimidagi mavjud muammolar aniqlanib, xorijiy mamlakatlar tajribalarini o‘rganish orqali tizimini xalqaro talablarga muvofiqligini ta‘minlash yo‘llari taklif etilgan. Maqolada davlat budjeti tomonida ajratilayotgan mablag‘larni tejash, ularni samarali va oqilona sarflanishini ta‘minlovchi ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: davlat xaridi, budjetdan mablag‘ oluvchilar, elektron katalog, buyurtmachi, yetkazib beruvchi, kafolatlovchi yetkazib beruvchilar, auksion savdolari, kichik tadbirkorlik subyektlari, kvota.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются теоретические и практические аспекты государственных закупок. Выявлены существующие проблемы в системе государственных закупок Республики Узбекистан и предложены пути обеспечения соответствия системы международным требованиям путем изучения опыта зарубежных стран. В статье даны научное предложение и практические рекомендации по экономии средств, выделяемых из государственного бюджета, обеспечению их эффективного и разумного расходования.

Ключевые слова: государственные закупки, получатели бюджетных средств, электронный каталог, заказчик, поставщик, поставщики-гаранты, аукционные продажи, субъекты малого предпринимательства, квота.

ABSTRACT

This article examines the theoretical and practical aspects of public procurement. The existing problems in the public procurement system of the Republic of Uzbekistan are identified and ways to ensure the system’s compliance with international requirements by studying the experience of foreign countries are proposed. The article provides a scientific proposal and practical recommendations for saving funds allocated from the state budget, ensuring their effective and reasonable spending.

Keywords: public procurement, recipients of budget funds, electronic catalog, customer, supplier, guarantor suppliers, auction sales, small business entities, quota.

KIRISH.

Davlat xaridlarini amalga oshirish orqali raqobatni rivojlantirish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotning sifatini oshirish, iqtisodiyotning jumladan, sanoatni hamda kichik biznesni qo‘llab-quvvatlashning yangi imkoniyatlari yaratiladi. Davlat xaridlari o‘ziga xos tizim bo‘lib, uning asosiy turlarini tender, tanlov, elektron auksion

savdolar, to'g'ridan-to'g'ri shartnoma tuzish, kapital qurilish bo'yicha tanlov savdolari tashkil etadi.

Davlat xaridlarining iqtisodiyotdagi o'ziga xos o'rni va ahamiyatidan kelib chiqqan holda ushbu tizimni joriy etishga mamlakatimizda kechayotgan islohotlarning harakatlantiruvchi kuchi sifatida katta e'tibor berilmoqda. Bu borada avvalo, tizimdagi munosabatlarning qonunchilik negizi shakllantirildi. Davlat xaridlari bilan bog'liq jarayonlarni huquqiy tartibga solishda dastlab, O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, Budget kodeksi shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 29-avgustdagi "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi, 2000-yil 21 noyabrdagi 456-sonli "Tender savdolarini tashkil etishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlar muhim omil bo'lib xizmat qildi. Bunga esa mamlakatimiz birinchi Prezidentining 2011 yil 7 fevraldagi PQ-1475-sonli "Davlat xaridlari tizimini maqbullashtirish va ularga kichik biznes subyektlarini jalb etishni kengaytirish to'g'risida"gi qarori muhim asos bo'ldi. 2018 yil kelib, joriy yilning 9-aprelida № 472 son bilan yagona tartibga soluvchi hujjat "Davlat xaridi to'g'risida" Qonun qabul qilindi.

Amalga oshirilayotgan islohotlardan ko'zlangan maqsad, davlat budjeti mablag'laridan foydalanishning samarali tizimni yo'lga qo'yish va shu orqali kichik biznes subyektlari moliyaviy faoliyatini barqarorligini ta'minlash asosida ularning mamlakat yalpi ichki mahsuloti tarkibidagi ulushini oshirish masalalari ham ko'zda tutilgan.

Davlat moliyasi sohasidagi islohotlar natijasida davlat moliyasini boshqarishning huquqiy tizimi shakllantirilmoqda. Bu, o'z navbatida, davlat mablag'laridan foydalanish samaradorligini ta'minlashga, uning zamonaviy mexanizmlarini amalda tatbiq etishga imkon beradi. Ushbu holatlar ma'lum bo'lmoqdaki, O'zbekistonda elektron davlat xarid tizimini boshqarishni takomillashtirish o'rganilishi lozim bo'lgan dolzarb masaladir.

ADABIYOTLAR TAXLILI.

The European Bank for Reconstruction and Development ma'lumotiga ko'ra, davlat xaridi siyosati, hukumat uchun muhim ahamiyatga ega va bu sohada islohotlar talab qilinadi, chunki ba'zi davlatlar davlat xaridlari YaIMga nisbatan o'rta hisobda 10-20% ni tashkil etadi. Davlat xaridlari tizimining samarasizligi sababli budgetning 20-30% shartnomalari uchun isrof qilinadi.[1] Xarid islohotlari orqali korrupsiyaga barham berilishi mumkin; xarid jarayonini samarasi YaIMga nisbatan foydasi 1-2% tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligini qo'lga kiritgan dastlabki kunlardan boshlab ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti sari islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirmoqda. Davlat tizimi va boshqaruv sohasidagi islohotlar natijasida xarajatlarni boshqarishning yangi huquqiy tizimi shakllantirilmoqda. Bu, o'z navbatida, davlat mablag'larini sarflanishi samaradorligini ta'minlashga, uning zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini amalda tatbiq etishga imkon beradi.

Xalqaro miqyosda yuzaga kelgan yangi iqtisodiy vaziyat, davlat mablag'lari hisobidan xarajatlarni amalga oshirishda hukumatlar oldiga qo'yilgan vazifalarning muhimligini oshirmoqda.

Ma'lumki, davlat o'z vazifalarini bajarish jarayonida bir qator xarajatlar qilishi zarur. Bu xarajatlar, eng avvalo, mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish uchun turli tarmoqlarga investitsiya qilishga, aholining turmush darajasini ko'tarishga hamda ijtimoiy vazifalarni bajarishga qaratilgan, davlatni boshqarish, mudofaani ta'minlash kabi aniq maqsadlarga yo'naltirilgan, rejalashtirilgan xarajatlardan iborat bo'ladi. Umumdavlat xarajatlari, asosan, davlat budjeti va davlatning boshqa markazlashtirilgan fondlari orqali moliyalashtiriladi.

O'zbekistonda davlat xaridining hajmi YaIMning 11 foizini tashkil etgani holda, uni iqtisodiy o'sishga ta'sir etuvchi muhim omil ekanligini ko'rsatadi. Davlat xaridi YaIMni shakllanishiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi.[2]

Davlat xaridlarining ilmiy-nazari jihatlarini va amaliy muammolarini yechimi borasida mamlakatimizda bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan va bir qancha xorijiy mutaxassislarning davlat xaridlari sohasida fikrlar xilma-xilligini ko'rish mumkin. Jumladan, M.Vohidova o'z ilmiy maqolasida birinchi navbatda xarid qilishni soddalashtirish va tartibga solish zarur deb ta'kidlaydi. Buyurtmachi va ta'minotchilarga xalaqit emas, balki yordam beradigan me'yor va qoidalarni ishlab chiqish muhim sanalishi asoslaydi.[3]

S.Allayorov davlat xaridini boshqarishning xorijiy tajribasi, davlat xaridini elektron tarzda tashkil etish bo'yicha Germaniya tajribasini o'rgangan va davlat xaridi sohasidagi Yevropa qonunchiligiga so'zsiz amal qilishi, milliy qonunchiligini Yevropa mamlakatlarning davlat xaridi bo'yicha qonunchiligiga ancha muvaffaqiyatli tarzda moslashtirib olish mumkin bo'lgan siyosat ekanligini asoslaydi[4].

D.Po'latov[5], o'z maqolasida ta'kidlashicha, davlat xarid YaIMning shakllanishiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi. Shuni inobatga olib, davlat xaridlarini amalga oshirish sohasida olib borilgan oqilona siyosat makroiqtisodiy o'sishga jiddiy ta'sir etuvchi instrument sifatiga yuzaga keladi deb aytilgan.

E.Kolnoochenko[6], maqolada Kanada davlati korrupsiya darajasi eng past bo'lgan dunyodagi o'nta davlatdan biri hisoblanishi, davlat xaridlari sohasida korrupsiyaga qarshi kurashda Kanada davlat ishlari va xizmatlari vazirligi tomonidan samarali usullar ishlab chiqilganligi va amaliyotda qo'llanib kelinayotganligi to'g'risida aytib o'tadi.

V.V.Kikaves[7] o'z maqolasida Rossiya Federatsiyasida davlat xaridlari sohasida o'tkazilayotgan islohotlar vaqtida xorijiy davlatlarning ushbu sohadagi tajribalarini o'rganib chiqish maqsadga muvofiq bo'lishini aytib o'tib, g'arbiy Yevropa va Amerika mamlakatlarining tajribalarini yoritib beradi.

V.T. Gadjeva[8] tadqiqotlarida davlat buyurtmalari davlat moliyasini boshqarishning asosiy institutlaridan biri hisoblanib, moliyaviy tartibga solishning vositasi sifatida bir qator muhim funksiyalarni bajarishini ko'rsatib o'tadi hamda maqolada ushbu masalani atroflicha tahlil qiladi.

Dunyo tajribasi va hozirgi davrdagi xorijiy iqtisodchilarning ishlarini ko'rib chiqib, muallif quyidagicha xulosa qiladi: davlat buyurtmasi tizimi davlat budjeti va

solih tizimi bilan bir qatorda iqtisodiyot, fan va texnikani rivojlantirish, iqtisodiyotni yuqori o‘shish ko‘rsatkichlarini ta‘minlash uchun davlat moliyasini boshqarishning muhim quroli sifatida maydonga chiqadi. Bu sharoitda davlat buyurtmasi tizimi budget mablag‘larini sarflashning samarali va shaffof formasi bo‘libgina qolmay, davlat tomonidan moliyaviy tartibga solishni va mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiya qilishni boshqarishning quroli bo‘lib qoladi.

A. Xmara[9] tadqiqotlarida Ukrainada davlat xaridlari tizimini tartibga solish bo‘yicha qonunchilikka kiritilgan o‘zgartirishlarni tahlil qiladi. Jumladan, davlat mulki bo‘lgan korxonalar va davlat ulushi 50 % dan ortiq bo‘lgan xo‘jalik jamoalarining o‘z mablag‘lari (budgetdan tashqari mablag‘lari) hisobidan qilinadigan xaridlarini tender qonunchiligidan chiqarilishi, ya‘ni ushbu mablag‘lar hisobidan xaridlarni tendersiz sotib olishlari mumkinligini negativ holat, deb hisoblaydi.

METODOLOGIYA

Tadqiqotning uslubiy asosini dialektikaning asosiy qoidalari va tamoyillari tashkil etdi. O‘zbekistonda elektron davlat xarid tizimlarini to‘g‘ri tanlash (masalan, ishlab chiqarish, energiya, qishloq xo‘jaligi) va ushbu tarmoqlar qanday qilib to‘g‘ri boshqarishni takomillashtirishni boshqa xorij tajribalari orqali tahlil qilish hamda jarayonlarni miqdoriy o‘rganish, ya‘ni, iqtisodiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha ma‘lumotlarni to‘plash, qayta ishlash va tahlil qilish uslubiga tayanildi. Ma‘lumotlardan xulosa chiqarishda mantiqiy tahlil, sintez, umumlashtirish, induktsiyava deduktsiya, iqtisodiy hodisa va jarayonlarga tizimli yondashuv usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xorijiy davlatlarda davlat xaridlari tizimi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining muhim bir elementi sifatida qaraladi. Shuningdek, davlat xaridlari davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solishning vositasi hisoblanadi. Rivojlangan davlatlarda davlat xaridlarining YaIM dagi ulushi salmoqli hisoblanadi (1-jadval).

1-jadval¹

Xorijiy mamlakatlarda davlat xaridlarining YaIM dagi ulushi, foizda

№	Davlatlar	Yillar					
		2018	2019	2020	2021	2022	2023
1	Amerika Qo'shma Shtatlari	12%	12%	14%	13%	12%	11%
2	Germaniya	15%	14%	16%	15%	14%	13%
3	Buyuk Britaniya	13%	12%	14%	13%	12%	12%
4	Fransiya	18%	17%	19%	18%	17%	16%
5	Yaponiya	10%	10%	11%	10%	10%	9%
6	Xitoy	20%	21%	22%	21%	20%	19%
7	Hindiston	25%	24%	26%	25%	24%	23%
8	Braziliya	22%	23%	24%	23%	22%	21%

¹ Manba: Muallif tomonidan www.data.oecd.org ma‘lumotlari asosida tayyorlangan.

Umuman olganda xorijiy davlatlarda davlat xaridlari tizimi asosida ochiqlik, davlat xaridlari ishtirokchilarining tengligi, tuziladigan bitimlarning samaradorligi va tomonlarning javobgarligi yotadi.

O‘zbekistonda elektron davlat xarid tizimni qay darajada samarali ishlayotganligi, budget muassasalariga budget mablag‘larini sarflanishida ijobiy ta’sirlari, korrupsiya holatlari va tizimni salbiy muammolarini aniqlash statistik manbalar orqali aniqlash murakkab masala hisoblanadi. Sababi davlat xaridlari bo‘yicha tanlangan omillar bo‘yicha statistika yuritilmaydi. Buni elektron davlat xarid tizim ishtirokchilari, ya’ni budget tashkilotlarini xarid uchun mas’ul bo‘lgan rahbar yoki xodimi o‘rtasida pozitivistik yondashuvni sifat ma’lumotlaridan bo‘lgan anketa so‘rovnoma tarzda muammolarni aniqlab olish imkoniyati mavjud.

Pozitivistik tadqiqotda so‘rovlar birlamchi va ikkilamchi ma’lumotlarni tanlanmani to‘plab olish va ularni statistik jihatdan tahlil etish hamda natijalarni populyatsiyaga umumlashtirish uchun ishlatiladi. Shuning uchun tanlanmani respublika bo‘yicha budget muassasalari o‘rtasida so‘rov o‘tkazish ma’nan va jismonan ko‘p vaqt ketishi inobatga olib, tanlama sifatida bir tuman hududida joylashgan budget muassasalari olindi.

Davlat xarid tizimida ilg‘or davlatlarni elektron xarid tizimini o‘rganishda va baholashda davlat xarid tizimi ishlash tamoyili, me’yoriy huquqiy normalar bilan ta’minlanganligi, ochiqligi, shaffofligi, tizim yaxlitligi, axborot-texnologiya resurslarni rivojlanganligi darajasini taqqoslash bilan birga ularning amaldagi mamlakatni davlat xarid tizimi bilan ham taqqoslama tahlilni amalga oshirish mumkin. Taqqoslama tahlili ijtimoiy-iqtisodiy fan va izlanishlarda eng ko‘p qo‘llaniladigan metodlardan biri hisoblanadi. Taqqoslama tahlil kelgusida tajriba olish maqsadida, biron bir xo‘jalik yurituvchi subyektni yoki faoliyat samaradorligi ichki va tashki imkoniyatlari, sabablari, o‘xshashliklari, miqdor ko‘rsatkichlari ta’siri, salbiy va ijobiy tomonlari o‘rganishlikda qo‘llaniladi. Taqqoslama tahlilni afzallik tomoni o‘rganilayotgan obyekt umumiy parametrlari va turli davlatlarda, tizimlarda siyosiy hodisalarni obyektiv qonuniyatlarga asoslanganligi va o‘ziga xos xususiyatlarini amalda tajribalarini foydalanishni ifodalaydi

Ilmiy tadqiqotlarda davlat xaridlari tizimini samaradorligini baholashda, amalga oshirgan davlat xarid natijasida budget mablag‘i iqtisodi ko‘lamini va xorij davlat xarid tizimi afzallik tomonlarini o‘rganishda bir qator usullardan foydalanilgan. Ushbu usullarni tizimlashtirilgan holda 2-jadvalda ifodalaymiz.

Davlat xarid tizimi samaradorligi baholash alohida bir xaridga yoki buyurtmachilar va sohalar bo‘yicha ham amalga oshirilishi mumkin. Shuningdek, alohida bir xaridga budget mablag‘larini sarflanishi samaradorligi ham mavjud bo‘lib, u xaridga budget mablag‘ ko‘rsatkichi orqali aniqlanadi. Bu borada budget mablag‘lari iqtisodi ko‘rsatkichlari olinib, ularning natijalari bo‘yicha taklif beriladi.

Elektron xarid tizimini holati va samaradorligini baholash usullari

Tadqiqot usullari	Davlat xarid tizimi mezonlari	Davlat xarid tizimiga qo'llash imkoniyatlari
Pozitivistik yondashuvni (so'rov, ma'lumotlarni statistik tahlil qilish),	Davlat xarid tizimidagi mavjud muammolarni tizim-ning samaradorlik, shartnomalarni bajarilishini va xakozolarni ta'sirini aniqlash	Davlat xarid tizimi cheklangan yoki boshlang'ich ma'lumotlar olish imkoniyati hamda tovar,(ish, xizmatlar) yetkazib beruvchilarni raqobatbardoshligiga ta'sir etuv-chi omillar tizimini shakllan-tirishga yordam beradi
Baholash usuli (budget mablag'lari hisobidan shartnomaning boshlang'ich va tuzilgan bahosi foydalanish orqali o'lchash)	Davlat xaridi tizimining samaradorligini baholash	Davlat budget mablag'larini samarali sarflanishini va tejalishini belgilashda yordam beradi.
Interpretivistik yondashuvni sifatli uslubi (taqqoslama tahlil)	Xorijiy davlatlarning elektron davlat xarid tizimining kuchi va afzalligi aniqlanadi (taqqoslanadi)	Xorij davlatning elektron davlat xarid tizimi amaliyotini afzallik holatlari o'rganib O'zbekistonga tatbiq etish imkoniyatlari yoritiladi

Budget mablag'i iqtisodi ko'rsatkichi (E) formula yordamida aniqlab olamiz(Arstarxova, Zueva, Perevezensova, 2017).

$$E = \frac{B_6 - B_{sh}}{B_6} \times 100\% \quad (1.1.)$$

bu yerda: B_6 – shartnomaning boshlang'ich bahosi, B_{sh} – shartnomaning tuzilgan bahosi.

Ushbu usulni Ivanova[10] o'zning “Orlovskiy viloyatida davlat xaridini samaradorligini kompleks baholash” mavzusidagi ilmiy ishida ushbu formula yordamida baholagan.

Ko'pgina xorijiy mamlakatlarda davlat ehtiyojlarini ta'minlash maqsadida shartnoma tizimining rejalashtirilishi, joylashtirilishi va amalga oshirilishida yagona boshqaruv texnologiyalaridan foydalaniladi. Milliy shartnoma tizimining o'ziga xos jihatlari bo'lib, davlat ehtiyojlarini ta'minlashda rejalashtirish metodikasi keng qo'llash, narxlar monitoring, namunaviy shartnomalar, shartnomalar amalga oshirish nazorati mexanizmi, davlat shartnomalarni ijro etish natijalari baholash va shartnoma tizimini boshqarishdagi maxsus axborot resurslari hisoblanadi. Umuman olganda rivojlangan davlatlarda davlat xaridlari tizimi asosida ochiqlik, davlat xaridlari ishtirokchilarining tengligi, tuziladigan bitimlarning samaradorligi va tomonlarning javobgarligi yotadi. Shundan kelib chiqib, O'zbekistonda mavjud elektron davlat xarid tizimini rivojlantirishda xorij davlatlar tajribasini o'rganish taqozo etadi.

¹ Manba: Muallif ishlanmasi

Aniqlangan budget mablag‘i iqtisodi ko‘rsatkichi asosida 3-jadvalda keltirilgan baholash mezonini bo‘yicha xarid faoliyatini baholaymiz.

3-jadval¹

Budget mablag‘lari iqtisodi ko‘rsatkichi asosida xarid faoliyatini baholash

Budget mablag‘i iqtisodi ko‘rsatkichi	Xarid faoliyati samaradorligini baholash	Zarur bo‘lgan choralar
$E=0$	Samarasiz	Bozorni o‘rganish va yetkazib beruvchilarni jalb etish.
$E<5\%$	Past samarasiz	Bozorni o‘rganish va yetkazib beruvchilarni jalb etish. Shartnoma bozor bahosining aniq belgilanganligi bo‘lishi mumkin.
$5\%<E<12\%$	Samaradorlikning normada bo‘lishi	Alohida harakatlar talab etilmaydi.
$12\%<E<20\%$	Yuqori samaradorlik	Shartnomaning yetkazib beruvchi tomonidan bajarilishini nazoratga olish.
$E<20\%$	O‘ta yuqori samaradorlik	Shartnomaning boshlang‘ich bahosiga aniqlik kiritish. Shartnomaning yetkazib beruvchi tomonidan bajarilishini nazoratga olish.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-dekabrda PQ-4544-sonli “Davlat xaridlari tizimini yana-da takomillashtirish va davlat xaridlari jarayoniga tadbirkorlik subyektlarini keng jalb qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq 2020-yil 1-apreldan boshlab davlat xaridlari bo‘yicha jarayon savdolarining elektron shakliga bosqichma-bosqich o‘tkazilishi ko‘zda tutilgan. Shunga ko‘ra barcha davlat xaridlari uchun yagona savdo portali sifatida <https://xarid.uzex.uz/> portali orqali amalga oshirila boshlagan.

Davlat xaridlari jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilinishi va xaridlarni elektron tartibda amalga oshirilishi davlat xaridlari bozorida oshkoralik va raqobatni ta‘minlash, narxlarning pasayishiga va budgetni tejashga olib keladi.

Elektron savdolarini tashkil etilishidan asosiy maqsadlardan biri davlat budgetidan samarali foydalangan holda, uning iqtisodiga erishish hisoblanadi. Elektron savdolarini ochiq-oshkoraligi, davlat xarid tizimini rivojlanishiga va budget mablag‘larining tejalishini yanada samarali bo‘lishini ta‘minlaydi. Agarda budget tashkilotlari tomonidan tovar (ish, xizmat)larni sotib olinishi to‘liq elektron portal orqali amalga oshiriladigan bo‘lsa, budget mablag‘larining samarali va oqilona sarflanishi yanada ortadi.

Elektron davlat xaridlari — axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda davlat xaridlarini amalga oshirish barcha shakllaridir. Davlat xaridlari sohasida savdolarining bir qator shakllari mavjud bo‘lib ular quyidagilardir:

¹ Manba: Muallif tomonidan Aristarxova, Zueva, Perevezzensova, (2017) ma‘lumotlari asosida tayyorlangan.

boshlang'ich narxni pasaytirish uchun o'tkaziladigan auksion — davlat xaridlari elektron tizimining maxsus platformasida davlat xaridlarini amalga oshirishning raqobatli usuli bo'lib, uni tashkil etish chog'ida narx g'olibni aniqlashning yagona mezonida amalga oshiriladigan auksion savdo nazarda tutiladi.

Tender savdolari davlat xaridini amalga oshirishning raqobatli tartib-taomili vositasida davlat xaridlarining ijrochisini aniqlash tartib-taomilini nazarda tutuvchi tanlov bo'lib, uning natijalariga ko'ra davlat xaridlari to'g'risidagi shartnomani bajarishning eng yaxshi shartlarini taklif etgan xarid qilish tartib-taomillarining ishtirokchisi g'olib, deb topiladigan savdoni nazarda tutadi ;

Elektron do'kon davlat xaridlarining elektron tizimidagi maxsus maydonda savdolari elektron shaklda amalga oshirishni nazarda tutuvchi, maxsus talablar qo'yilmaydigan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridlarini amalga oshirishning raqobatli usuli asosida amalga oshiriladigan savdodir;

Eng yaxshi takliflarni tanlash — xarid qilish tartib-taomillarining bir nechta ishtirokchisidan olingan takliflarni taqqoslash asosida davlat xaridlarini amalga oshirishning raqobatli usulidir;

Vazirlik va idoralar tomonidan 2022-yilda jami 1523794630 mln so'mlik davlat xaridlari amalga oshirilgan bo'lib, shundan boshlang'ich narxini pasaytirish uchun o'tkaziladigan auksion savdolari jami 46965337,3 mln.so'm, elektron do'kon savdolari 264319358 mln.so'm, tender savdolari 696017901 mln.so'm eng yaxshi taklifni tanlash 516492034 mln.so'mni tashkil etgan. Mos ravishda 2023-yilda esa narxini pasaytirish uchun o'tkaziladigan auksion savdolari jami 88515875,7 mln.so'm, elektron do'kon savdolari 630480982 mln.so'm, Tender savdolari 1175323764 mln.so'm eng yaxshi taklifni tanlash 381071346,1 mln.so'mni tashkil etgan. O'zbekiston Respublikasida davlat xaridlari monitoringi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

O'zbekiston Respublikasida davlat xaridlari monitoringi, mln so'm

Savdolar	2022-yilda				
	1-chorak	2-chorak	3-chorak	4-chorak	jami
Auksion savdolari			12128363,3	34836974	46965337,3
Elektron do'kon	248		86343095,1	177976014	264319358
Tender savdolari		23600557,8	414984214,7	672417343	696017901
Eng yahshi taklifni tanlash	97464,3	1270576,5	141200354	373923639	516492034
	2023-yil				
	1-chorak	2-chorak	3-chorak	4-chorak	Jami
Auksion savdolari	12849377,9	23500101,4	27603406,6	24562989,8	88515875,7
Elektron do'kon	97270 935,1	199485628	208456611	222538743,4	630480982
Tender savdolari	109446397	403569101,3	574821203	491056164,3	1175323764
Eng yahshi taklifni tanlash	58007276,2	152770686 8	153734678	169329391,8	381071346,1

Keltirib o'tilgan statistik ma'lumotlardan ham ma'lum bo'ladiki, O'zbekiston davlat xaridlari tizimini rivojlantirishda qonunchilikni takomillashtirish, samaradorlikni ta'minlash, samaradorlikni oshirish va ishonchli yetkazib beruvchilarni tanlash kabi asosiy yo'nalishlarga yuqori ahamiyat qaratilmoqda. Shuningdek, yangi texnologiyalarni qo'llash, ta'lim va malaka oshirish, monitoring va baholash

tizimlarini kuchaytirish orqali davlat xaridlari jarayonlarini yanada samarali va shaffof qilishga harakat qilinmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi tahlil natijalaridan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi davlat xaridlarini amalga oshirishni hamda uning uslubiy asoslarini takomillashtirish yuzasidan quyidagi takliflarni maqsadga muvofiq, deb hisoblayman:

- O‘zbekiston Respublikasida davlat xaridlarini yanada takomillashtirish uchun O‘zbekiston Respublikasida Davlat xaridlari sohasini tartibga soluvchi vakolatli organlar – Davlat xaridlari siyosatini instituti va Davlat xaridi monitoringi va koordinatsiyasi boshqarmasi tashkil etish.

- Amaldagi O‘zbekiston Respublikasi Tovar xom ashyo birjasida faoliyat yuritayotgan portal bazasida yagona integratsiyalashgan elektron tizim yaratish va uni Davlat xaridlari monitoringi va koordinatsiyasi boshqarmasi tasarrufiga o‘tkazish. Kichik biznes subyektlarini elektron davlat xaridlari tizimida ishtirokini oshirish uchun motivatsiya qilish va preferensiya qo‘llash tizimini joriy qilish lozim. Ularni davlat xaridlari tizimidagi ishtiroklari tovar (ish, xizmat)lar sifatini oshirishga, budjet mablag‘larini yanada iqtisod qilinishiga, sog‘lom raqobat muhitini yaratilishiga erishiladi. Qolaversa, bugungi kunda jahon bozorlarida elektron savdolari rivojlangan bir paytda milliy korxonalarimiz jahon bozorlarida integratsiyalashib boradi.

- Tovar sifati hamda raqobatbardoshlikni oshirish maqsadida, jahon standartlariga mos tovar va mahsulotlarni maxsus “nomer”lovchi yagona standart ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Bu savdo qatnashuvchilari orasidagi ziddiyat va nizolarning oldini oladi, qolaversa, tovar va mahsulotlar sifati yanada oshadi.

- Amaldagi me‘yoriy normalarda davlat xaridlarini tashkil etuvchi xodimlarning bilimi va malakasi qanday bo‘lishi, ular uchun talab xususiyatlari yoritilmagan. Shuningdek, ularning malakasini oshirib borish bo‘yicha tizim yo‘lga qo‘yilmagan. Xarid jarayoniga mas‘ul bo‘lgan xodimlarga majburiy sertifikatlash va moddiy manfaatdorlik tomonini ta‘minlash lozim. Bu esa korrupsiyaning oldini olishga xizmat qiladi.

- Buyurtmachi tomonidan maxsus elektron portalida joylashtirilgan tovar(ish,xizmat)larning o‘z ehtiyojlariga qarab to‘liq nomi va tarkibi, uning belgilari, hajmlari va boshqa ma‘lumotlarni kiritilishi belgilangan bo‘lsa, ko‘p hollarda buyurtmachi va yetkazib beruvchilar orasida nizolar keltirib chiqarmoqda. Tovar spesifikatsiyasi maxsus elektron portalga to‘liq kiritilgan spesifikatsiyaga to‘g‘ri kelsa-da, sifatsiz tovar yetkazib berilish natijasida tushunmovchiliklar yuzaga kelmoqda. Ayrim tovarlarga esa (masalan, qurilish-ta‘mirlash ishlari, mebel jihozlari va shu kabi tovarlarni) to‘liq ma‘lumot va spesifikatsiya berishning imkoni mavjud emas. Tabiiyki, buyurtmachi sifatli mahsulotlarni ko‘zlab ma‘lumotlarni kiritsa, yetkazib beruvchi esa, imkoni boricha kam harajatli, tannarxi kam bo‘lgan mahsulot yetkazib berishga harakat qiladi.

- Davlat xaridlari tizimi qatnashuvchilar uchun yagona uslubiy hujjatning mavjud emasligi. Mazkur uslubiy hujjat davlat xaridlarining barcha bosqichlarini qamrab oladi,

yetkazib beruvchilar va buyurtmachilarga maxsus axborot portalida ishlash usullarini ko'rsatadi.

- Maxsus axborot portalida o'rtacha bozor narxlarini shakllantiruvchi modulning mavjud emasligi. Natijada portalda bozor narxlaridan keskin farq qiladi. Bu esa budget mablag'larini samarali sarflanishiga ta'sir etadi.

Keltirib o'tilgan takliflarning amaliy natijasida O'zbekistonda davlat xarid tizimini qay darajada tashkil etilganligi va budget mablag'larini samarali sarflanishdagi xizmatini baholash imkoni beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. The European Bank for Reconstruction and Development (2013), "Efficient implementation of Procurement: Centralized Purchasing", "9th Public Procurement Knowledge Exchange Platform", Holiday Inn, Skopje, FYR Macedonia May 28-31.

2. Voxidova M. (2014) "Davlat xaridi hukukiy asosining joriy holati va muammolari", "Iqtisodiyotda moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda davlat xaridlarining rolini oshirish" mavzusidagi respublika turdosh Oliy o'quv yurtlariaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami, Toshkent, noyabr 128 bet.

3. The European Bank for Reconstruction and Development, "Efficient implementation of Procurement: Centralized Purchasing", "9th Public Procurement Knowledge Exchange Platform", Holiday Inn, Skopje, FYR Macedonia May 28-31.

4. Allayorov S. "Xorijiy mamlakatlarda davlat xaridini tashkil etish", Iqtisodiyotda moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda davlat xaridlarining rolini oshirish mavzusidagi respublika turdosh Oliy o'quv yurtlari aro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. Toshkent, 2014 y. Noyabr, 177 bet.

5. Po'latov D. (2015) "Elektron katalog orqali davlat xaridini tashkil etish", Soliq solish va buxgalteriya hisobi, Toshkent 2015 y. №5 (107), 22-b.

6. Колнооченко Э. «Антикоррупционные меры при госзакупках: Опыт Канады», Журнал бюджет, 2015 №1, 92-95 с.

7. Кикавес В.В. (2010) «Особенности правового регулирования в сфере государственных закупок за рубежом», Госзаказ в вопросах и ответах, №1, 3-5 с.

8. Гаджиева В.Т. «Государственный заказ как инструмент государственного финансового регулирования экономики», вестник Волгоградского института бизнеса. 2011 № 1(14), 176-183с.

9. Хмара А. (2013) «Нужны ли бизнесу открытие и честные Государственные закупки», Аукционный вестник, № 151, 1-2 с.

10. Иванова О.В. «Методика комплексной оценки эффективности государственных закупок Орловской области» Известия Тульского государственного университета. Экономические и юридические науки, 2010, issue 2-2, 183-192.

TADBIRKORLIK SUB'EKTLARI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA MARKETING VA LOGISTIKA XIZMATLARI O'ZARO ALOQALARINING AHAMIYATI

Xo'jayev Fazliddin Elmurodovich
"Biznes boshqaruvi" kafedrası dotsenti, Phd
fxujaev72@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu ilmiy maqolada marketing logistikasi asoslari yoritilgan. Ushbu maqola marketing logistikasining ta'riflari, tamoyillari va funksiyalarini taqdim etadi, marketing logistikasi konsepsiyasini belgilaydi, marketing logistikasini qo'llashning asosiy yo'nalishlarini taqdim etadi, logistika va marketingning o'zaro ta'sirini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Marketing logistikasi, oqimlarni optimallashtirish, marketing tizimining sub'ektlari, logistika yondashuvi, marketing tadqiqotlari, assortiment siyosati, narx siyosati, sotish, reklama, xizmat ko'rsatish.

Аннотация

В данное научное статьи изложены основы маркетинговой логистики. В данное статье представлены определения, принципы и функции маркетинговой логистики, изложена маркетинговая логистическая концепция, представлены основные направления применения маркетинговой логистики, показано взаимодействие логистики и маркетинга.

Ключевые слова: Маркетинговая логистика, оптимизация потоков, субъекты маркетинговой системы, логистический подход, маркетинговые исследования, ассортиментная политика, ценовая политика, сбыт, реклама, сервис.

Abstract

This scientific article outlines the basics of marketing logistics. This article presents the definitions, principles and functions of marketing logistics, outlines the marketing logistics concept, presents the main areas of application of marketing logistics, and shows the interaction of logistics and marketing.

Key words: Marketing logistics, optimization of flows, subjects of the marketing system, logistics approach, marketing research, assortment policy, pricing policy, sales, advertising, service.

KIRISH

Zamonaviy ko'rinishdagi marketing murakkab va juda ziddiyatli hodisadir. Bu holatning sabablari ham ko'p. Eslatib o'tamiz, marketingning 200 dan ortiq ta'riflari mavjud. Marketing ta'siri ostida kompaniya ichidagi menejment vazifalari, ichki korporativ rejalashtirish nazariyasi va amaliyoti, shu jumladan logistika faoliyatida o'zgarishlar yuz beradi.

Zamonaviy kompaniya murakkab tashkiliy tuzilmaning mavjudligi bilan ajralib turadi va intensiv integratsiyalashgan bozorda ishlaydigan ko‘p maqsadli tashkilotdir. Bunday vaziyatda marketing kompaniyaning logistika faoliyatining samarali ishlashini ta‘minlashning eng muhim zaruriy sharti hisoblanadi. Shunga ko‘ra tadbirkorlik sub‘ektlari faoliyatini rivojlantirishda marketing va logistika xizmatlari o‘zaro aloqalarining ilmiy – uslubiy asoslarini yaratish muhim tadqiqot yo‘nalishi hisoblanadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Birinchi marta "Marketing logistikasi" termini Rossiyalik iqtisodchi olim professor G.L. Bagiev 1998 yilda o‘z ilmiy asarida kiritgan [3].

Professor G.L. Bagievning ilmiy asarida marketing logistikasi (Marketing-logistics) ikki xil talqin qilingan[4]:

1) biznes logistikasi bo‘limi, jumladan metodologiya; marketing faoliyati bilan birga keladigan barcha turdagi oqimlarni optimallashtirish (takomillashtirish) nazariyasi va usullarini o‘z ichiga olgan;

2) marketing tizimi ishlab chiqaruvchidan ma‘lum bir xaridorga mahsulot yoki xizmat bilan birga keladigan barcha turdagi oqimlarni sintez qiladigan, tahlil qiladigan va optimallashtiradigan usullar to‘plami bo‘lib u marketing tizimining sub‘ektlari o‘rtasida o‘zaro aloqalarni bog‘lab turadi.

Ushbu ikkala ta‘rif ham tegishli vositalarning mazmuni va ko‘lamini mohiyatini har tomonlama aniqlaydi. Bu tushuncha A.I. Semenenkoning 1999 yilda marketing logistikasi asarida ham keltirib o‘tilgan [5].

Klassik iqtisodiy nazariyalar va global geosiyosiy muammolar va inqirozli vaziyatlar kontekstida transport xizmatlarini rivojlantirishning zamonaviy kontseptsiyalari turli sohalar va iqtisodiyot tarmoqlari faoliyatiga, birinchi navbatda, milliy manfaatlarni ta‘minlash uchun strategik "yutuq" bo‘lganlarga nisbatan faol muhokama qilinmoqda. Bir necha o‘n yillar davomida iqtisodiy integratsion guruhlar faoliyati muhokama qilingan asosiy masalalar transport va yuk tashish modellari bo‘ldi. Logistika iqtisodiy fanning eng muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida iqtisodiy materiya oqimini tashkil etishning qonuniyatlari va tamoyillarini va ushbu qonuniyatlarni ishlab chiqish nuqtai nazaridan va uning zamonaviy modellarga "integratsiyalashuvi" tamoyillarini o‘rganadi. (nazariy va tashkiliy-amaliy) innovatsion tadbirkorlik ilmiy qiziqish uyg‘otadi.

Asosiy to‘siqlar sifatida U. Baumoll quyidagilarni nazarda tutgan:

birinchidan, nostandart mahsulotlarga innovatsiyalarni kiritish bilan bog‘liq masalalar;

ikkinchidan, tadbirkorlikni tavsiflash va uni oddiy matematik shakllardan foydalanishga imkon bermaydigan rasmiy optimallashtirish modellarini ishlab chiqishda noaniqlik va nomuvofiqlik. Rasmiy optimallashtirish cheklangan va innovatsion tadbirkorlikni tahlil qilish uchun noqulay vositadir.

METODOLOGIYA

Tadqiqotning uslubiy asosini transport xizmatlari ko'rsatish tizimini takomillashtirish sohasidagi xorijiy va o'zbekistonlik olimlarning ilmiy ishlarida bayon etilgan fundamental tushuncha va qoidalar tashkil etadi. Muallif, shuningdek, ilmiy jamoalarning transport xizmatlarini ko'rsatish tizimini takomillashtirish, transportning barcha turlaridan cheklangan va cheksiz foydalanish sharoitida ulardan foydalanish samaradorligi muammolarini o'rganish, shakllantirish, foydalanish sohasidagi tadqiqotlar natijalariga tayanadi.

Iqtisodiyotda tovarlarni tashish va iste'mol qilishning yangi yo'nalishlarini ishlab chiqish, davlat organlari hisobotlari va statistik ma'lumotlar, qonunchilik va me'yoriy-huquqiy hujjatlar, O'zbekiston kompaniyalarining uzoq muddatli rivojlanish dasturlari va hisobotlari shular jumlasidandir. Tadqiqot jarayonida funksional yo'naltirilgan qidiruv, iqtisodiy va statistik tahlil, prognozlash va modellashtirishning turli usullari va vositalaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Marketing logistikasi deganda, biz qandaydir iqtisodiy, nisbatan mustaqil tuzilmaning marketing tizimi kabi obyekt haqida gapirayotganimizni va unga vosita (tizim) sifatida logistika yondashuvini tushunamiz.

Bunday holda, ushbu yirik tizimning tarkibiy elementlari — tizimosti konseptual harakatlarning funksional bloklari quyidagilar bo'lishi mumkin:

- marketing tadqiqotlari;
- assortiment siyosati;
- narx siyosati;
- sotish;
- reklama;
- xizmat ko'rsatish;

Shu bilan birga, ushbu "murakkab" tizimning tarkibiy elementlari marketingni boshqarish funksiyalarini o'z ichiga olishi mumkin:

- maqsadni belgilash;
- tashkil etish;
- rejalashtirish;
- operativ va tartibga soluvchi qarorlar;
- diagnostika nazorati;
- baholash tahlili;

Xalqaro marketingning logistika tizimi, birinchi ikkitasiga o'xshash konseptual simvolik tizim tuzilishi, ammo quyidagilarni hisobga olgan holda:

- bojxona masalalari;
- pul va moliyaviy farqlar;
- xalqaro huquqning iqtisodiy va motivatsion subyektlaridagi farqlar, umumiy tarkibiy, iqtisodiy va marketing bilan birlashtirilgan.

Marketing logistikasi — bu xom ashyo, butlovchi qismlar va boshqa oqimlarining kelib chiqish joyidan boshlab, materiallar va tayyor mahsulotlarning jismoniy oqimlarini rejalashtirish, tezkor boshqarish va nazorat qilish va iste'molchilarning

ehtiyojlarini eng samarali qondirish uchun yakuniy mahsulotlarni etkazib berish bilan yakunlanadi.

Marketing logistikasi — marketing va logistika g'oyalarini uyg'unlashtirish asoslangan. Bu erda marketing xizmatlari tomonidan shakllantirilgan buyurtmalar portfeli asosida mahsulot assortimentini yuklash muammolari hal qilinadi, resurslar va mahsulotlarning optimal harakatlanishi texnologiyasi aniqlanadi, qadoqlash va mahsulot sifatiga standart talablar ishlab chiqiladi, mahsulotlarning saralash markazlari ishlab chiqiladi, moddiy va mehnat resurslari, asbob-uskunalar va binolardan oqilona foydalanish masalalari o'rganib chiqiladi [2].

Zamonaviy axborot texnologiyalari marketing logistikasida muhim rol o'ynaydi: kompyuterlar, kassa terminallari; tovarlarni kodlash; sun'iy yo'ldosh orqali transport vositasini kuzatish tizimlari; elektron ma'lumotlar almashinuvi va pul o'tkazmalari shular jumlasidandir. Shunday qilib marketing logistikasi xarajatlari tayyor mahsulot tannarxining 30-40 foizini tashkil qiladi.

Marketing logistikasining vazifasi ishlab chiqaruvchidan iste'molchigacha bo'lgan tayyor mahsulot oqimini boshqarishdir.

Marketing logistikasi — bu ishlab chiqarish liniyasining tugashidan to bozorga chiqishigacha bo'lgan tayyor mahsulot oqimi bilan bog'liq bo'lgan barcha harakat va ombor faoliyatini tahlil qilish, rejalashtirish, tashkil etish va nazorat qilish, shuningdek, tarqatish kanallari, kompaniya va uning mijozlari o'rtasidagi o'zaro aloqani tashkil qilish va osonlashtirishdir.

Ushbu ta'rif marketing logistikasining o'zaro bog'liq ikkita jihatini ochib beradi:

- 1) funksional, moddiy oqimning o'tishi bilan bog'liq (jismoniy taqsimot bilan);
- 2) tarqatish kanalini tanlash va uni boshqarish bilan bog'liq bo'lgan institutsional.

Marketing logistikasida quyidagi asosiy bosqichlar ajratiladi:

- tizim maqsadlarini belgilash;
- joriy holatni aniqlash;
- muqobil tizim loyihalarini yaratish va ko'rib chiqish;
- optimal tizim variantini tanlash, uni amalga oshirish va uni nazorat qilish.

1-jadvalda logistika va marketingni integratsiyalashuvi nuqtai nazaridan korxonada asosiy boshqaruv funksiyalarining umumlashtirilgan tuzilishini taklif qiladi.

1-jadval

Boshqaruv funksiyalarining marketing va logistika bilan integratsiyalashuvi va korxonada ishlab chiqarish-xo'jalik faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha.

№	Funksiyaning tabiati	Logistika	Marketing
1.	Korxonaning joylashuvi	+	+
2.	Mahsulotni ishlab chiqish, ishlab chiqarish assortimenti tuzilishi, qadoqlash	+	+
3.	Ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish.	+	
4.	Uskunalarni tanlash va texnologik jarayonlarni ishlab chiqish	+	
5.	Ishlab chiqarish-xo'jalik faoliyatini rejalashtirish	+	
6.	Transport va omborlar tarmog'ini rejalashtirish	+	+
7.	Ichki va tashqi transportni boshqarish	+	+

№	Funksiyaning tabiati	Logistika	Marketing
8.	Xomashyo zaxirasini boshqarish	+	
9.	Tovar zaxirasini boshqarish	+	+
11.	Ishlab chiqarishni material texnik ta'minoti	+	
12.	Mahsulotlarni ishlab chiqarish, iste'moliga tayyorlash	+	
13.	Tarqatish tizimida transport modelini tanlash	+	+
14.	Xizmatlarni rejalashtirish	+	+
15.	Xizmat ko'rsatish tizimini boshqarish	+	+
16.	Ishlab chiqarishda dispetcherlik xizmati	+	+
17.	Ta'minot jarayonida dispetcherlik xizmati	+	
18.	Sotish jarayonida dispetcherlik xizmati	+	+
19.	Ishlab chiqarish va transport-ombor jarayonlarini proyektlash	+	+

Logistika talabga ega bo'lgan tovar massasining iste'molchiga jismoniy harakatini ta'minlaydi. Logistika integratsiyasi

kerakli mahsulotni kerakli joyga, kerakli vaqtda minimal xarajatlar bilan yetkazib berish imkon beradi, ya'ni. "Logistikaning olti qoidalari" ga rioya qilishni ta'minlaydi.

Jadvalda keltirilgan yettita marketing savoli (7 ta savol – 7Q) va logistikaning yettita qoidasi (7 Rait – 7R) o'rtasida o'xshashlik keltiramiz.

2-jadval

Marketingning yetti savoli va logistikaning yetti qoidasini solishtirma jadvali.

№	Etti savol (7Q)	№	Etti qoida (7R)
1.	Qanday tovar zarur	1.	Zarur tovar
2.	Qayerda	2.	Zarur bo'lgan joyda
3.	Qachon	3.	Zarur bo'lgan vaqtda
4.	Qanday miqdorda	4.	Zarur hajimda
5.	Qanday sifatda	5.	Zarur bo'lgan sifatda
6.	Qanday narxlarda	6.	Minimal xarajatlar bilan
7.	Kimga	7.	Zarur bo'lgan iste'molchiga

Marketing mahsulot taqsimotini tashkil etishga tizimli yondashish vazifasini qo'yadi: mahsulotni taqsimlashni samarali tashkil etish bilan ushbu jarayonning har bir bosqichi muvozanatli va mantiqiy tuzilgan umumiy tizimning ajralmas qismi sifatida rejalashtirilgan bo'lishi kerak.

Biroq, mahsulotni taqsimlash jarayonini barcha ishtirokchilarining texnik va texnologik integratsiya usullari marketingning emas, balki logistikaning asosiy o'rganish predmeti hisoblanadi.

Marketing bozorni o'rganish, reklama qilish, xaridorga psixologik ta'sir ko'rsatish va boshqalarga qaratilgan.

Logistika, birinchi navbatda, materiallarni tashish uchun texnik va texnologik jihatdan bog'langan tizimlarni yaratishga qaratilgan.

Marketing va logistika o'rtasidagi eng muhim farqlar 3 — jadvalda keltirilgan.

3-jadval

Marketing va logistika sohasidagi tadqiqot ob'ekti va predmetining qiyosiy tavsifi.

№	Taqqoslash sohasi	Marketing	Logistika
	Tadqiqot ob'ekti	Muayyan tovarlar va xizmatlarni bozori va konyunkturasi.	Ushbu bozorlarda moddalar oqimi aylanishi. Ishlab chiqarish, tijorat faoliyati (tadbirkorlik), oqim jarayonlari sifatida.
	Tadqiqot predmeti	Sotish uchun tovarlar yoki xizmatlarning bozor xatti-harakatlarini optimallashtirish.	Materiallar oqimini boshqarish jarayonlarini optimallashtirish. Ishlab chiqarish va tijorat faoliyatida tovarlar oqimi jarayonlarini optimallashtirish.
	Tadqiqot metodi	Bozor konyunkturasi, aniq tovar va xizmatlarga bo'lgan talab va taklifni o'rganish usullari.	Materiallarni o'tkazuvchi sxemalarni yaratishga tizimli yondashuv, shuningdek, ishlab chiqarish va iqtisodiy tizimlarni rejalashtirish va boshqarishda-hammaga tanish usullardan foydalanish. Umumiy tizimlar nazariyasi, kibernetika, operatsiyalarni tadqiq qilish, prognozlash usullarini sintez qilish — mikro va makro yondashuvlar.
	Yakuniy natija	Ishlab chiqarish va sotish bo'yicha tavsiyalar kompaniya strategiyasi va taktikasi: nima ishlab chiqarish kerak qaysi hajmda, qaysi bozorlarga va qaysi muddatda. Qanday imtiyozlar bo'lishi mumkin?	Logistika maqsadlariga javob beradigan tizimlar loyihalari: to'g'ri mahsulot, kerakli miqdorda, kerakli sifatda, kerakli joyda, kerakli vaqtda va minimal xarajatlar. Ishlab chiqarish va tijorat faoliyatining umumiy xarajatlarini kamaytirish. Tarqatish muammolarini optimallashtirish.
	Fanning qo'llanilish Iyerarxiyasi (sfera)	Firma va kompaniyalar darajasi	Xalq xo'jaligida sanoat sohasi, firma va kompaniyalar darajasi

XULOSA VA TAKLIFLAR

Shunday qilib, quyidagicha xulosalar chiqarish mumkin:

1. Korxonaning xizmat ko'rsatish siyosatini ishlab chiqish logistika xizmatlarining butun majmuasi uchun standartlarni belgilash va ularni baholashning asosiy ko'rsatkichlarini aniqlashni o'z ichiga oladi. Har bir iste'molchi segmenti yoki har bir mijoz uchun xizmat ko'rsatish darajasi individual ravishda belgilanadi.

2. Mijozlarga xizmat ko'rsatish darajasini baholash uchun qabul qilingan asosiy ko'rsatkichlarni nazorat qilish va doimiy monitoring qilish, ko'rsatkichlar monitoringi usullarini tanlash va belgilash, ushbu ko'rsatkichlarning miqdoriy qiymatlarini rejalashtirish va ularni o'lchash natijasida haqiqiy ko'rsatkichlarni olish.

3. Mijozlarga xizmat ko'rsatishni nazorat qilish va monitoring qilishning olingan natijalarini tahlil qilish xizmatlar ko'rsatishning haqiqiy natijalarida rejalashtirilgan ko'rsatkichlardan chetga chiqish sabablarini aniqlashni o'z ichiga oladi.

4. Rejalashtirilgan xizmatlar ko'rsatkichlariga rioya qilmaslikning aniqlangan sabablari logistika bo'limining xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq jarayonlarni rejalashtirish darajasida yoki o'z vaqtida tartibga solishga (to'g'rilashga) majbur qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 28 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston respublikasi temir yo'llarda yuk va yo'lovchilar tashish xavfsizligini nazorat qilish davlat inspeksiyasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"ги 28.11.2017 yildagi 948-son qarori.

3. Бауэрсокс Доналд Дж., Клосс Дейвид Дж. Логистика: интегрированная сеп поставок / Пер. с англ. М.: ЗАО «Олимп — Бизнес», 2011.-640 с.

4. Миротин Л.Б., Ташбаев И.Э. Логистика для предпринимателя: основные понятия, положения и процедуры: Учебное пособие. М.: ИНФРА-М, 2021.

5. А.А. Трифилжва, А.Н. Воронков. Маркетинговая логистика. Учебная пособия. Санкт-Петербург. изд. "Союз" 2021 год.

6. Ф.Хўжаев. «Логистика» дарслик. Тошкент. Инновацион ривожланиш нашриёт матбаа уйи. 2022 йил.

7. Ф.Хўжаев, И.Мухторова «Халқаро логистика» ўқув қўлланма Инновацион ривожланиш нашриёт матбаа уйи. 2023 йил.

OMBORLARDA LOGISTIKA JARAYONLARINI BOSHQARISHNIHNG XORIJIY TAJRIBALARI

Boymatov O‘tkirbek Tilovmurod o‘g‘li

Termiz injener – texnologiya instituti

“Transport munosabatlari va logistika” kafedrası o‘qituvchisi

utkirbekboymatov92@gmail.com

Annotatsiya

Har bir mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishida uning qon tomiri bo‘lgan logistika tizimi juda muhim ahamiyatga ega ekanligi ushbu maqolada tadqiq qilingan. Samarador logistika tizimi ichki bozorda tayyor mahsulot va xom-ashyo harakatini optimallashtirish orqali tovar va xizmatlarning xaridorlar uchun qulay sharoit va arzon narxlarda yetkazib berilishini ta‘minlaydi, bozordagi raqobatni rag‘batlantiradi. Tashqi bozorda esa mamlakatning iqtisodiy raqobatbardoshligini oshiradi va jahon iqtisodiyotiga integratsiya jarayonini tezlashtiradi. Rivojlanib borayotgan mamlakatimiz uchun samarador logistika tizimini tashkil qilish juda ham muhim.

Hozirgi paytda tovarlarni saqlash va tashish logistika faoliyatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ularni amalga oshirish qiymati kompaniyaning logistika xarajatlarining 12% dan 40% gacha qismini o‘z ichiga oladi.

Kalit so‘zlar: logistika ombor, binolar soni, ularning hajmi, joylashuvi, ma‘lum bir saqlash tizimidan foydalanish, parvarish qilish, nazorat qilish.

Аннотация

В данной статье изучается, что логистическая система, являющаяся ее жизненной силой, имеет очень важное значение в развитии экономики каждой страны. Оптимизируя движение готовой продукции и сырья на внутреннем рынке, эффективная логистическая система обеспечивает доставку товаров и услуг на выгодных условиях и по низким ценам для покупателей, стимулирует конкуренцию на рынке. На внешнем рынке это повышает экономическую конкурентоспособность страны и ускоряет процесс интеграции в мировую экономику. Для нашей развивающейся страны очень важно организовать эффективную систему логистики.

В настоящее время хранение и транспортировка грузов считается важной составляющей логистической деятельности. Стоимость их реализации включает от 12% до 40% логистических затрат компании.

Ключевые слова: логистический склад, количество зданий, их размер, расположение, использование определенной системы хранения, обслуживание, контроль.

Abstract

This article studies that the logistics system, which is its lifeblood, is very important in the development of the economy of each country. By optimizing the movement of finished products and raw materials in the domestic market, an effective logistics system ensures the delivery of goods and services on favorable terms and at low prices for buyers, and stimulates competition in the market. In the foreign market,

this increases the country's economic competitiveness and accelerates the process of integration into the world economy. For our developing country, it is very important to organize an effective logistiks system.

Currently, storage and transportation of goods is considered an important component of logistiks activities. The cost of their implementation includes from 12% to 40% of the company's logistiks costs.

Keywords: logistiks warehouse, number of buildings, their size, location, use of a specific storage system, maintenance, control.

KIRISH

Logistika – bu moddiy oqimlarni harakatini boshqarish sohasi bo‘lib, uning asosiy maqsadi turli korxonalar va tashkilotlarni, aholini tashishga bo‘lgan ehtiyojlarini o‘z muddatida, belgilangan hajmlar va assortimentda eng kam xarajatlar bilan yetkazib berishdan iborat jarayondir. Hozirgi bozor raqobati sharoitida iste‘molchilarni tashishga bo‘lgan ehtiyojini eng samarali texnologiyalarni qo‘llagan holda qondirishda logistika va ombor xujjaligini samarali tashkil etish muhim omil hisoblanadi. Shuni hisobga olgan holda omborlarda logistika jarayonlarini boshqarishning xorijiy tajribalarini keng o‘rganish va xalqaro amaliyotdan O‘zbekistonda qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish muhim tadqiqot yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Rus olimi T.M. Ponomareva nuqtai nazaridan. Omborxonalar logistikasi — bu korxonaga kiradigan, qayta ishlanadigan va chiqadigan materiallar oqimini saqlash, rejalashtirish, boshqarish va nazorat qilish fanidir.

Rossiyalik iqtisodchi olim professor G.L. Bagiev o‘zining "Ombor logistikasi" asarida omborlarni korxonalar faoliyatini samarali boshqarishning asosiy omillaridan biri sifatida qaragan [3].

Dosent F.Xo‘jaev "O‘zbekiston Respublikasi eksportini rivojlantirishda logistik boshqaruvni takomillashtirish" PHd ilmiy darajasini olish uchun yozgan dissertatsiyasida yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yil davomida eksportini ta‘minlashda omborlarning ahamiyatini o‘z tadqiqotida matematik hisob kitoblar yordamida asoslab bergan.

Dosent v.b. Po‘latxo‘jaeva D.M. va S.Salixovlarning "Omborxonalar logistikasi" o‘quv-qo‘llanmasida ombor xo‘jaligida ishni tashkil qilish tartibi, omborlarning jihozlanishi, omborlarda mehnat xavfsizligi va omborlarda tovar moddiy boyliklarini qabul qilish va saqlash tartiblari to‘g‘risida tadqiqotlar olib borganlar.

1) biznes logistikasi bo‘limi, jumladan metodologiya; marketing faoliyati bilan birga keladigan barcha turdagi oqimlarni optimallashtirish (takomillashtirish) nazariyasi va usullarini o‘z ichiga olgan;

2) marketing tizimi ishlab chiqaruvchidan ma‘lum bir xaridorga mahsulot yoki xizmat bilan birga keladigan barcha turdagi oqimlarni sintez qiladigan, tahlil qiladigan va optimallashtiradigan usullar to‘plami bo‘lib u marketing tizimining sub‘ektlari o‘rtasida o‘zaro aloqalarni bog‘lab turadi.

Ushbu ikkala ta‘rif ham tegishli vositalarning mazmuni va ko‘lamini mohiyatini

har tomonlama aniqlaydi. Bu tushuncha A.I. Semenenkning 1999 yilda logistik omborlarning iqtisodiy samaradorligi asarida ham keltirib o'tilgan [5].

Klassik iqtisodiy nazariyalar va global geosiyosiy muammolar va inqirozli vaziyatlar kontekstida transport xizmatlarini rivojlantirishning zamonaviy konsepsiyalari turli sohalar va iqtisodiyot tarmoqlari faoliyatiga, birinchi navbatda, milliy manfaatlarni ta'minlash uchun strategik "yutuq" bo'lganlarga nisbatan faol muhokama qilinmoqda. Bir necha o'n yillar davomida iqtisodiy integratsion guruhlar faoliyati muhokama qilingan asosiy masalalar transport va yuk tashish modellari bo'ldi. Logistika iqtisodiy fanning eng muhim yo'nalishlaridan biri sifatida iqtisodiy materiya oqimini tashkil etishning qonuniyatlari va tamoyillarini va ushbu qonuniyatlarni ishlab chiqish nuqtai nazaridan va uning zamonaviy modellarga "integratsiyalashuvi" tamoyillarini o'rganadi va nazariy va tashkiliy-amaliy, innovatsion tadbirkorlik ilmiy qiziqish uyg'otadi.

Asosiy to'siqlar sifatida U. Baumol[1] quyidagilarni nazarda tutgan: birinchidan, nostandart mahsulotlarga innovatsiyalarni kiritish bilan bog'liq masalalar;

ikkinchidan, tadbirkorlikni tavsiflash va uni oddiy matematik shakllardan foydalanishga imkon bermaydigan rasmiy optimallashtirish modellarini ishlab chiqishda noaniqlik va nomuvofiqlik. Rasmiy optimallashtirish cheklangan va innovatsion tadbirkorlikni tahlil qilish uchun noqulay vositadir.

METODOLOGIYA

Tadqiqotning uslubiy asosini transport xizmatlari ko'rsatish tizimini takomillashtirish sohasidagi xorijiy va o'zbekistonlik olimlarning ilmiy ishlarida bayon etilgan fundamental tushuncha va qoidalar tashkil etadi. Muallif, shuningdek, ilmiy jamoalarning transport xizmatlarini ko'rsatish tizimini takomillashtirish, transportning barcha turlaridan cheklangan va cheksiz foydalanish sharoitida ulardan foydalanish samaradorligi muammolarini o'rganish, shakllantirish, foydalanish sohasidagi tadqiqotlar natijalariga tayanadi.

Iqtisodiyotda tovarlarni tashish va iste'mol qilishning yangi yo'nalishlarini ishlab chiqish, davlat organlari hisobotlari va statistik ma'lumotlar, qonunchilik va me'yoriy-huquqiy hujjatlar, O'zbekiston kompaniyalarining uzoq muddatli rivojlanish dasturlari va hisobotlari shular jumlasidandir. Tadqiqot jarayonida funksional yo'naltirilgan qidiruv, iqtisodiy va statistik tahlil, prognozlash va modellashtirishning turli usullari va vositalaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Jahon amaliyotida logistika omborlar to'rt sinfga bo'linadi.

1. "A" sinfi — bu eng zamonaviy omborlarni o'z ichiga oladi. Ular bir qavatli, ship balandligi kamida 10 metr. Pollar changga qarshi qoplama bilan qoplangan, videokuzatuv mavjud. "A+" kichik klassi yanada qat'iy talablarga javob beradigan eng ilg'or binolarni o'z ichiga oladi.

2. B sinfidagi omborlar ko'p qavatli bo'lishi mumkin va ularning ship balandligi 4 dan 8 metrgacha o'zgaradi. Pollarning sifati uchun hech qanday mezon yo'q. Yong'inni oldini olish uchun signalizatsiya va yong'inni o'chirish tizimi o'rnatilgan.

"B+" darajasi logistik omborlar xarakteristikalarini bo'yicha "A" sinfiga yaqin.

3. "C" sinfidagi omborlar respublikaning aksariyat hududlarida eng keng tarqalgan turi hisoblanadi. Binolar shipining balandligi 4 metrga teng, ular shamollatish tizimi bilan jihozlangan va isitiladi, ombordagi harorat +8 dan +14 °C atrofida saqlanadi.

4. "D" toifali omborlar ishlab chiqarish binolarida va podvallarda joylashgan bo'lishi mumkin. Isitish tizimi har doim ham o'rnatilmaydi, lekin harorat va havo namligini tartibga solish tizimi mavjud.

Omborlar, shuningdek, texnik jihozlarga ko'ra ham tasniflanadi. Ushbu mezon bo'yicha ular quyidagi guruhlariga bo'linadi.

1. Mexanizatsiyalanmagan — tovarlarni ko'chirish, buyurtmalarni yig'ish va qabul qilish va jo'natishni qayd etish bo'yicha barcha ishlarni odamlar bajaradi;

2. Qisman mexanizatsiyalashgan — tovarlarni tashishda eng katta jismoniy kuch talab qiladigan vazifalar texnologiya yordamida hal qilinadi;

3. Mexanizatsiyalashgan — yuklar uskunalar yordamida ko'chiriladi;

4. Avtomatlashtirilgan — avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimiga ega omborlar. U operatsiyalarni hisobga olish, xodimlar uchun vazifalarni belgilash va ko'rsatkichlarni tahlil qilish bilan bog'liq funksiyalarni bajaradi. Shu bilan birga, omborning samarali faoliyat ko'rsatishida xodimlarning roli katta bo'lib qolmoqda — ular tovarlarni jo'natish va qabul qilishda, buyurtmalarni yig'ish va qadoqlashda ishtirok etadilar;

5. Robotlashtirilgan — liniya xodimlarining ba'zi vazifalari robotlarga topshiriladi. Bir necha yil oldin Rossiyada to'liq robotlashtirilgan omborlar paydo bo'lgan edi, ular yuqori ish intensivligi va maxsus harorat sharoitlarini talab qiladi.

Bugungi kunda Ўзбекистонда faoliyat olib logistika omborxonalar duch kelayotgan qiyinchiliklar, birinchi navbatda, mamlakatdagi va dunyodagi iqtisodiy va siyosiy hodisalar bilan bog'liq. Ular mehnat bozoriga, xorijiy IT-yechimlar va uskunalarining mavjudligiga, iste'molchi talabining o'zgarishiga ta'sir qiladi.

Hozirgi vaqtda ombor logistikasi sohasidagi asosiy muammo — bu malakali mutaxassislarining etishmasligi — 2023 yilda respublikamizdagi logistika kompaniyalarining 50 foizi bunga duch keldi. Bu chet ellik ishchilarning qisqarishi va elektron tijorat va tarqatishning tez o'sishi tufayli xodimlarni ko'paytirish zarurati bilan bog'liq. Bir xil darajada ishlash va ish izlovchilar nazarida jozibadorlikni oshirish uchun ish beruvchilar xodimlarning mehnat sharoitlarini yaxshilashga majbur bo'ladi.

Respublikamizdagi logistika kompaniyalar omborlari faoliyatidagi yana bir qiyinchilik — bu tovarlar aylanmasini baholash.

Bundan tashqari, so'nggi yillarda tovarlarni identifikatsiya qilish bilan bog'liq muammo paydo bo'ldi. Yetkazib beruvchilarning o'zgarishi va natijada mahsulot matritsasi, ayniqsa elektron tijorat sohasida markalash sifati yomonlashdi va mahsulot ma'lumotlarining aniqligi pasaydi. Bu ularni tanib olishni qiyinlashtiradi va ombor ishiga ta'sir qiladi.

Mahsulot matritsasi o'zgarishlar boshqa muammoni keltirib chiqaradi — etkazib beruvchilar tovarlarning yuqori o'lchovli xususiyatlari haqida ma'lumot bermaydilar. Bu qabul qilishda shakllantirilishi kerak bo'lgan padonlar sonini to'g'ri

hisoblash, ombor maydonini turli xil mahsulot guruhlarini saqlash uchun zonalarga bo'lish va ekspeditorlik hududida bo'sh joyni taqsimlashni qiyinlashtiradi.

Har qanday logistika tizimini oladigan bo'lsak, uning tuzilishi quyidagi funksional yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:




1-rasm. Logistika kompaniyasining omborxonaxo'jaligi.

Logistika omborxonaxo'jaligida ombor — bu mahsulotni qabul qilish, joylashtirish, jamlash, saqlash, qayta ishlash, chiqarish va iste'molchilarga yetkazib berishni o'z ichiga olgan murakkab texnik tuzilma (bino, turli jihozlar va boshqa qurilmalar) sifatida qaraladi.

Bu umumiy ta'rif har qanday omborga mos keladi. U ombor logistikasi faoliyati bilan bog'liq asosiy tushunchalarni o'z ichiga oladi, lekin yana bitta tushuncha, ya'ni xavfsizlik aks ettirilmagan. Xavfsizlik deganda tovar-moddiy zaxiralarning saqlanishi va yaxlitligiga, shuningdek, korxonaning umumiy faoliyatiga ta'sir etuvchi tashqi va ichki omillar majmui tushuniladi.

Buni hisobga olgan holda ta'rifni quyidagicha shakllantirish mumkin: ombor — bu tovar moddiy boyliklarini qabul qilish, saqlash va tarqatish uchun mo'ljallangan, jismoniy ajratilgan, qo'riqlanadigan joy.

Ombor logistika jarayonlari murakkab va katta miqdordagi mehnat va xarajatni o'z ichiga oladi. Tovar moddiy boyliklarini yetkazib berish, qayta ishlash va iste'molchi buyurtmalarini bajarish funksiyalarini to'liq muvofiqlashtirish zarur. Keling, asosiy bosqichlarni sanab o'tamiz:



2-rasm – Ombordagi logistika jarayonlarining asosiy bosqichlari

Keling, omborni zaxiralar bilan ta'minlashga yordam beradigan birinchi bosqichni ko'rib chiqaylik.

1-jadval — Omborni zaxiralar bilan ta'minlab turishga xizmat qiluvchi operatsiyalar.

1.	Omborni tovarlar zaxirasi bilan to'ldirish	Iste'molchi buyurtmalarini to'liq qondirish sharti bilan ularni samarali qayta ishlash imkoniyatiga muvofiq omborni tovarlar bilan to'liq ta'minlaydi.
2.	Kelib tushadigan tovarlar hisobi va nazorati	Tovarlarni qabul qilish va qayta ishlashning to'liq ritmi mavjud ombor hajmidan maksimal darajada foydalanishga, zaxiralarni saqlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga va ularni saqlash vaqtini qisqartirishga yordam beradi.

Yuklarni qayta ishlash va hujjatlar bilan bog'liq operatsiyalarni o'z ichiga olgan jarayonning ikkinchi bosqichini ko'rib chiqaylik:

2-jadval — Yuklarni qayta ishlash va hujjatlarni rasmiylashtirishni osonlashtiradigan operatsiyalar.


1.	Kelib tushadigan yuklarni qabul qilish va tushirish	Kiruvchi yuklarni tushirish avtomobil yoki temir yo'l platformalarida va konteyner maydonchalarida amalga oshiriladi. Yaxshi jihozlangan platformalar, yuklash va tushirish uskunalarini to'g'ri tanlash yuk tushirishni tez va minimal xarajatlar bilan amalga oshirish imkonini beradi.
2.	Omborda – yuklarni ortish/tushirish va joylashtirish	Omborning turli joylari o'rtasida yukning harakatlanishini ta'minlaydi.
3.	Yuklarni joylashtirish va saqlash	Optimal saqlashning asosiy tamoyili — saqlash maydoni hajmidan samarali foydalanish hisoblanadi.

Ombor logistikasini qanday optimallashtirish mumkin

Quyidagi optimallashtirish bilan bog'liq bo'lgan xatarlardan himoyalaniish va jarayonni qayta qurish uchun ajratilgan byudjet doirasida qolishga yordam beradigan ba'zi tavsiyalar berilgan.

Moliyaviy optimallashtirish rejasini tuzishda siz barcha xarajatlarni o'ylab ko'rishingiz kerak. Yechimni sotib olishdan tashqari, pudratchining ishi uchun mablag' ajratish va xodimlarni rag'batlantirishga maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bundan tashqari, unumdorlikning vaqtinchalik pasayishi tufayli kamroq foyda olishga tayyorlanishingiz kerak. Yangi logistika tizimlari va texnologiyalarini o'zlashtirishda bu muhimdir.

Kompaniya qaysi optimallashtirish vositasini tanlamasin, uzoq muddatli samarani ko'rsata olmaydi. Uni saqlab qolish uchun tizimni rivojlantirish, yangilash va texnik xizmat ko'rsatishga muntazam ravishda mablag' sarflashingiz lozim bo'ladi. Optimallashtirish uzoq muddatli jarayon bo'lib, bir martalik xarajatlar bilan cheklanmaydi. Ombor ko'rsatkichlarining optimal nisbatini izlashda buni hisobga olish kerak.



3-rasm — Iste'molchi buyurtmalari portfeli bo'yicha tovarlarni sotishni osonlashtiradigan operatsiyalar

Optimallashtirishni amalga oshirayotganda, qo'shimcha xarajatlarni talab qiladigan qadamlar ishlashga sezilarli ta'sir ko'rsatishni aniq bo'lsa ham, siz ajratilgan byudjetdan tashqariga chiqmasligingiz lozim. Ularning keskin o'zgarishlari modernizatsiyaning keyingi bosqichida dastlabki rejaga amal qilish uchun kamroq mablag' va motivatsiya bo'lishiga va bu jarayonda muvaffaqiyatsizlikka olib kelishi mumkin. Shunday qilib, oldindan ko'zda tutilmagan harakatlar natijasida yuzaga keladigan ta'sir zararsizlantiriladi. Agar siz rejaga amal qilsangiz, natija darhol sezilmaydi, lekin u barqaror bo'ladi va behuda xarajatlar xavfi sezilarli darajada kamayadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ombor logistikasini samarali tashkil etish nafaqat korxonaning biznes jarayonlariga chuqur kirib borishni, balki buning uchun bozorda mavjud yechimlarni o'rganishni ham talab qiladi. Professional maslahatchilar kompaniyani moliyaviy xavf-xatarlarga duchor qilmasdan o'zgartirish vositasini tanlash va amalga oshirishga yordam beradi — ular biznesning o'ziga xos xususiyatlari va mijozning xohish-istaklaridan kelib chiqqan holda variantlarni taklif qiladilar va jarayonni qayta qurishning barcha bosqichlarida unga hamroh bo'lishadi.

Korxonada ombor nima uchun kerak, degan savol mahsulot ishlab chiqarish bilan shug'ullanadigan har qanday tadbirkor uchun paydo bo'lmasligi kerak. Jarayonning to'g'ri tashkil etilishi savdo bozorini kengaytirish, mijozlar sonini ko'paytirish va yakuniy iste'molchi uchun mahsulot sifatini yaxshilash imkonini beradi. Ammo shu bilan birga, jarayonni tashkil etishga alohida e'tibor berish kerak. Bu masalada tom ma'noda hamma narsa muhim: binolar soni, ularning hajmi, joylashuvi, ma'lum bir saqlash tizimidan foydalanish, ta'mirlash, nazorat qilish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston respublikasi temir yo‘llarda yuk va yo‘lovchilar tashish xavfsizligini nazorat qilish davlat inspeksiyasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”ги 28.11.2017 yildagi 948-son qarori.
2. Bauersoks Donald Dj., Kloss Deyvid Dj. Logistika: integrirovannaya sep postavok / Per. s angl. M.: ZAO «Olimp — Biznes», 2011.-640 s.
3. Mirotin L.B., Tashbaev I.E. Logistika dlya predprinimatelya: osnovnye ponyatiya, polojeniya i protsedury: Uchebnoe posobie. M.: INFRA-M, 2021.
4. A.A. Trifiljva, A.N. Voronkov. Marketigovaya logistika. Uchebnaya posobiya. Sankt-Piterburg. izd. “Soyuz” 2021 god.
5. F.Xo‘jaev. “Logistika” darslik. Toshkent. Innovatsion rivojlanish nashriyot matbaa uyi 2022 yil.
6. F.Xo‘jaev, I.Muxtorova “Xalqaro logistika” o‘quv qo‘llanma Innovatsion rivojlanish nashriyot matbaa uyi 2023 yil.
7. F.Xo‘jaev “O‘zbekiston Respublikasi eksportini rivojlantirishda logistik boshqaruvni takomillashtirish” PhD ilmiy darajasini olish uchn yozgan dissertasiya 2022 yil.

YOQILG‘I-ENERGETIKA TARMOG‘INING IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH VA OSHIRISH YO‘NALISHLARI

Qo‘ziyeva Nilufar Norxidirovna
Termiz davlat universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada korxonada innovatsion salohiyatini funksional blok bo‘yicha tavsiflaydigan ko‘rsatkichlar tizimi, yoqilg‘i-energetika kompleksi faoliyatining iqtisodiy samaradorligiga ta‘sir etuvchi asosiy omillar bahosi keltirilgan, yoqilg‘i-energetika tarmog‘i faoliyatini rivojlantirish o‘ziga xos xususiyatlari yoritilgan, yoqilg‘i-energetika tarmog‘i faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha vazifalar ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: energiya xavfsizligi, energiya ta‘minoti, elektr energetika, yoqilg‘i-energetika, iqtisodiy samaradorlik, uzatish, sotish, bozor tamoyillari, iqtisodiy mexanizmi, issiqlik elektr stansiyalari, issiqlik elektr markazlari, mintaqaviy energiya bozori, vertikal integratsiya, tariflar, tartibga solish usullari, boshqaruv usullari, iqtisodiy xatarlar.

Аннотация

В данной статье система показателей, характеризующая инновационный потенциал предприятия по функциональным блокам, оценка основных факторов, влияющих на экономическую эффективность топливно-энергетического комплекса, особенности развития топливно-энергетической сети, а также показаны задачи повышения эффективности топливно-энергетической сети.

Калит сўзлар: энергетическая безопасность, энергоснабжение, электроэнергия, топливо и энергия, экономическая эффективность, передача, сбыт, рыночные принципы, экономический механизм, тепловые электростанции, теплоэнергетические центры, региональный энергетический рынок, вертикальная интеграция, тарифы, методы регулирования, методы управления, экономика риски.

Аннотация

In this article, the system of indicators describing the innovative potential of the enterprise by functional block, the assessment of the main factors affecting the economic efficiency of the fuel and energy complex, the specific features of the development of the fuel and energy network, and the tasks for increasing the efficiency of the fuel and energy network are shown.

Key words: energy security, energy supply, electric power, fuel and energy, economic efficiency, transmission, sale, market principles, economic mechanism, thermal power plants, thermal power centers, regional energy market, vertical integration, tariffs, regulatory methods, management methods, economic risks.

KIRISH

Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiyotning globallashuvi, qayta tiklanmaydigan resurslarning qisqarishi, suyuq uglevododlar va qattiq yoqilg‘i turlari

jahon bozorlarida raqobatning kuchayishi sharoitlarida, iqtisodiyotni samarali innovatsion rivojlantirishni ta'minlash uchun mavjud texnologiyalarni zamonaviylashtirish, yangi texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish, shuningdek dunyo yoqilg'i-energetika kompleksi korxonalarida muqobil energiya manbalaridan foydalanish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Dunyo mamlakatlari yoqilg'i-energetika kompleksi iqtisodiy samaradorligi holati shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda energetika sohasida turli innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etishda XXR, Germaniya, AQSH va Yaponiya kabi mamlakatlar yetakchilar hisoblanadi. Xitoyda YOEK tarmog'idagi kapital qo'yilmalar umumiy hajmining deyarli 6,3%, Germaniya – 5,1%, AQSH – 4,5%, Yaponiyada – 3,5% energetika kompleksida innovatsiyalarni joriy qilish va rivojlantirishga yo'naltiriladi[1].

Jahonda yoqilg'i-energetika tarmog'ini iqtisodiy rivojlantirish yuzasidan keng qamrovli ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Xususan, yoqilg'i-energetika tarmog'ini yanada samarali rivojlantirish masalalariga majmuaviy yondashish, yoqilg'i-energetika tarmog'ini samarali rivojlanishini ta'minlaydigan iqtisodiy yondashuvlarni shakllantirish bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlarda yoqilg'i-energetika tarmog'i rivojlanishining ijobiy ta'sirlari qayd etilgan, shunga qaramay, ushbu ta'sirlarning yo'nalishi va ko'lamini bo'yicha kompleks fikr shakllanmagan. Shundan kelib chiqqan holda, yoqilg'i-energetika tarmog'i faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirishning nazariy-metodologik asoslarini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha izlanishlar olib borish lozimligini belgilaydi.

So'nggi yillarda yoqilg'i-energetika kompleksini iqtisodiy jihatdan rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-martdagi "O'zbekiston Respublikasida elektr energetika tarmog'ini yanada rivojlantirish va isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi Qaroriga asosan [2], "O'zbekenergo" AJ negizida bir-biradan mustaqil bo'lgan, "Issiqlik elektr stansiyalari" AJ, "O'zbekiston Milliy elektr tarmoqlari" AJ va "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ tashkil etildi. Shu bilan bir qatorda, respublika energetika sohasida samarali boshqaruv tizimini tashkil qilish va sohani jadal rivojlantirish, uning raqobatbardoshligi va investitsiyaviy jozibadorligini oshirish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 1-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi yoqilg'i-energetika tarmog'ini boshqarish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF 5646-sonli Farmoni qabul qilindi. Mazkur farmonda, O'zbekiston Respublikasi yoqilg'i-energetika tarmog'ini yanada rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari etib quyidagilar belgilangan [2].

ADABIYOTLAR TAHLILI

"Energiya xavfsizligi" tushunchasi borasida bir qancha iqtisodchi olimlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Energiya xavfsizligi hozirgi kunda eng ko'p muhokama qilinadigan mavzulardan biri bo'lib hisoblanadi. Lekin "Energiya xavfsizligi" tushunchasi bo'yicha umumiy qabul qilingan yagona ta'rif yo'q. Shuning uchun ham "Energiya xavfsizligi" yoki "Energiya ta'minoti xavfsizligi" tushunchalari amaliyotda ko'p ishlatiladi. [3].

Tadqiqotda yoqilg'i-energetika kompleksi korxonalari innovatsion rivojlanishining milliy iqtisodiyotga ta'siri, iqtisodiy o'sish va aholi bandligini oshirishning jadal harakatlantiruvchi omili sifatidagi xususiyatlari tadqiq etilgan. Mazkur yo'nalishda olib borilgan izlanishlarni umumlashtirgan holda tadqiqotda yoqilg'i-energetika kompleksi korxonalarining rivojlanish darajasini baholashda metodologik yondashuvlar, jumladan, innovatsion, texnologik, tizimli yondashuvlar tahlil qilinib, ulardan sanoat korxonalari faoliyatini samarali rivojlantirishda foydalanish imkoniyatlari nazariy jihatdan tahlil qilinib, tegishli xulosalar shakllantirilgan. Shu bilan birga, energiya arzonligi uchun xalqaro ko'rinishdagi maxsus standart mavjud emas, u mamlakatlar o'rtasida yalpi ichki mahsulot (YAIM), inflyatsiya darajasi va aholi jon boshiga ko'ra o'rganiladi[4].

Energiya eksport qiluvchi mamlakatlar uchun talabning xavfsizligi, ta'minotning ishonchligi va xavfsizligini ta'minlash kabi muhim bo'lishi mumkin. Ushbu mamlakatlarda iqtisodiyot va davlat budjeti energiya eksportidan keladigan daromadlarga juda bog'liq. Masalan, neft sanoati bo'yicha Saudiya Arabistoni YAIMning 42 foizini, budjet daromadlarining 87 foizini va eksportning 90 foizini tashkil etadi [5].

Biroq ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar o'rtasida narx darajasi va kashfiyotning optimal sur'ati borasida ziddiyatli fikrlar paydo bo'lishi mumkin. Energiya iste'molchi mamlakatlarni birlashtiruvchi Xalqaro Energetika Agentligi, energiya xavfsizligi tushunchasini — energiya manbalarini arzon narxda olish va uzluksizligini ta'minlash, deb hisoblaydi [6].

METODOLOGIYA

Yoqilg'i-energetika tarmog'i faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirish muammolarini tahlil etish bilan shug'ullangan milliy va xorijlik olimlarning ilmiy izlanishlari natijalari mazkur tadqiqotning nazariy-uslubiy bazasi sifatida xizmat qildi. Maqolani tayyorlashda abstrakt va analitik mushohada, qiyosiy va omilli tahlil, indikativ, tanlanma kuzatuv, taqqoslash, iqtisodiy-statistik va boshqa usullardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda neft, gaz va ko'mir yoqilg'i sanoatining asosiy qazib olish mahsulotlari hisoblanadi. YOEMda qattiq yoqilg'i sifatida qazib olinadigan ko'mir qidirib topilgan va sanoat zaxiralari bilan ta'minlangan yoqilg'i resursi bo'lib, ko'pgina mamlakatlarda u milliy energetika barqarorligini belgilaydi. Hozirgacha O'zbekistonda qidirib topilgan ko'mir zaxiralari bir necha yuz yillarga yetadi. Ko'pgina mamlakatlarda ko'mirning narxi neft va gazga nisbatan ancha past bo'lib, elektr energiyasining ko'mir hisobiga ishlab chiqariladigan ulushi AQSHda 52%ni, Germaniyada 53%ni, Xitoyda esa 78%ni tashkil etadi. Dunyo tog'-kon sanoat majmuasining holatini tahlil etgan holda shuni ta'kidlash mumkinki, bir yillik mahsulot ishlab chiqarish hajmi 0,8-0,9 trln. dollarni tashkil etib, jumladan, uning 70%i yoqilg'i-energetika resurslariga to'g'ri keladi.

O'zbekiston Respublikasida milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida

asosiy yetakchi muammolardan biri tabiatdan foydalanish, yoqilg'i-mineral homashyo bazasini rivojlantirish va yer osti boyliklaridan foydalanish samaradorligini oshirishga oqilona yondashishdir. Ushbu holatni aniqlashda quyidagi omillar yuzaga keladi [7]: ichki bozorda yoqilg'i-energetika resurslariga talabning mavjudligi, iqtisodiy va ijtimoiy muammolar, YOEMning davlat tomonidan boshqarilishi va rivojlanishini qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining to'g'ri boshqarilish darajasi. Yoqilg'i-mineral xomashyo bazasi rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi omillar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin: geologik qidiruv ishlarining qisqarishi bilan bog'liq holda zaxiralar hajmining kamayishi, neft, gaz va ko'mirni qazib olish sharoitlarining qiyinlashuvi va murakkablashuvi, shuningdek, energiya tashuvchilarining jahon narxлари konyunkturasi va transport xarajatlarining ortishi. Bularning barchasi mamlakat YOEM rivojlanish strategiyasini qaytadan ko'rib chiqishni taqozo etadi [8].

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan ma'lumki, iqtisodiyotimiz rivojida YOEM yetakchi o'rinni egallab, uning kelajakda ham xuddi shu o'rinni egallab turishi uchun iqtisodiy-ekologik rivojlanishning optimal variantlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Bunda majmuada atrof-tabiiy muhit bilan bevosita uzviylikda faoliyat yurituvchi ko'mir sanoatining iqtisodiy faoliyatini ekologiyalashtirish bo'yicha choratadbirlarni amalga oshirish bir qator ijobiy natijalarga erishish imkonini beradi. Yoqilg'i resurslarini qazib olishning ekologik darajasini oshirish bo'yicha texnik-texnologik tadbirlar ishlab chiqishda 2 ta asosiy tamoyilga yondashish zarur:

1. Istalgan yangi yaratiladigan yoki qo'llaniladigan kon qazib chiqarishning texnika va texnologiyasiga qo'yiladigan asosiy talab uning so'zsiz ekologik xavfsizligidir.

2. Insonni o'rab turgan tabiiy muhitni saqlab qolish mineral resurslarni qazib olish jarayonida xo'jalik faoliyatidagi istalgan texnokratik qarordan shubhasiz ustuvorlikka ega[9].

Yoqilg'i-energetika majmuasi korxonalari faoliyati murakkab va turli ishlab chiqarish jarayonlaridan iborat bo'lib, iqtisodiy-ekologik rivojlanish masalalarini majmuaviy hal etishni taqozo etadi. Asosiy e'tiborni korxonalar faoliyatining iqtisodiy, tashkiliy, boshqaruv va ekologik dasturlarini birgalikda tizimli yondashuv asosida amalga oshirish orqali olinadigan ijobiy samarani yanada oshirishga qaratish lozim. Shu sababli, ayniqsa, yoqilg'i-energetika majmuasining ko'mir sanoat tarmog'i faoliyatini iqtisodiy-ekologik rivojlantirishning integratsiyalashuvini ta'minlash yo'nalishlarini asoslash va uning uslubiyotini ishlab chiqish muhim ilmiy masala hisoblanadi.

Ichki muhitni tahlil qilish va uning innovatsion salohiyatini baholash detalli va diagnostik ko'rinishda amalga oshirilishi mumkin. Ichki muhitni detalli tahlil qilish va korxonaning innovatsion salohiyatini baholash innovatsion loyihani asoslab berish bosqichida amalga oshiriladi. Tizim haqida axborot olish imkoniyati cheklangan holatlarda diagnostik yondashuv qo'llaniladi, ya'ni diagnostika innovatsion loyiha yo'nalishlarini aniqlash va resurslar salohiyatini baholashda faoliyat modellari va rivojlanish masalalari bo'yicha ochiq bo'lgan ko'rsatkichlar doirasi bo'yicha amalga oshiriladi.

Baholash uchun quyidagi baholash ko'rsatkichlari agregatlarini ajratib ko'rsatish

mumkin: mahsulotga oid; funksional; resursga oid; boshqaruv; tashkiliy ko‘rsatkichlar. Ichki muhitning innovatsion salohiyati uchun bazaviy baho tizimning innovatsion imkoniyatlarini belgilab beradigan funksional agregat hisoblanadi. Ushbu agregat bo‘yicha ko‘rsatkichlar 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Korxonada innovatsion salohiyatini funksional blok bo‘yicha tavsiflaydigan ko‘rsatkichlar [10]

Guruhlar	Ko‘rsatkichlar
Xarajat ko‘rsatkichlari	Ishlab chiqarilayotgan mahsulotning ilmiy hajmdorligi (sotuv hajmida ITTKI xarajatlari salmog‘i)
	Patentlar, litsenziyalar, nou-xau xarid qilish xarajatlari
	Innovatsion firmalar xarid qilish xarajatlari
	Jahonda yoki tarmoqda yuzaga kelgan amaliyotga muvofiq innovatsion sikllar bosqichida xarajatlar strukturasi
	Innovatsion ishlanmalarni rivojlantirish fondlari mavjudligi va hajmi
Innovatsion jarayon dinamikasini tavsiflaydigan ko‘rsatkichlar	Yangi mahsulotga talab yoki ehtiyojni anglab yetish vaqtidan uni bozorga yoki iste‘molchiga katta hajmda yetkazish vaqtiga qadar bo‘lgan davr
	Yangi mahsulot yoki texnologiyani ishlab chiqish jarayonining davom etish muddati
	Yangi mahsulot ishlab chiqarishni tayyorlash jarayonining davom etish muddati
	Yangi mahsulotni ishlab chiqarish siklining davom etish muddati
	Marketing tadqiqotlari asosida bajarilgan ishlanmalar salmog‘i
	Ishlanmalar umumiy miqdorida tijorat nuqtayi nazaridan muvaffaqiyatli loyihalar salmog‘i
	Muvaffaqiyatli marketing siyosati tufayli bozorda muvaffaqiyatga erishgan ITTKI bo‘linmalari innovatsion ishlanmalari salmog‘i
Yangilanish ko‘rsatkichlari	Mahsulotning yangilanish dinamikasi ko‘rsatkichlari (umumiy hajmda ikki yildan o‘n yilgacha chiqarilgan mahsulot salmog‘i)
	Xarid qilingan (sotilgan) yangi texnologiyalar miqdori
	Fan-texnika mahsulotlari eksporti hajmi
	Asbob-uskunalarini yangilash koeffitsiyenti, jumladan, tamomila yangi asbob-uskunalar negizida

Muqobil energiya manbalarining energetik salohiyati yuqoridir. Ammo ulardan keng foydalanish ma‘lum bir qiyinchiliklar – noan‘anaviy energiya manbalaridan foydalanish bo‘yicha texnik qarorlarning tajriba-sanoat tavsifi va iqtisodiy cheklovlar bilan bog‘liq [11]. Dunyoda bunday texnologiyalarni qo‘llashning samarador va arzon qiymatli misollari juda ko‘p, ammo ulardan foydalanish ushbu sohada ilmiy-texnik qarorlarning qimmat ekanligi bilan baholanadi (2-jadval).


2-jadval

Turli texnologiyalar asosida elektr energiyasini ishlab chiqarish qiymati [12]

Elektr energiyasini hosil qilish usuli	Elektr energiyasining qiymati, sent/kVt.soat
Ko‘mirda ishlaydigan issiqlik elektr stansiyalari	2,0
Shamol energiyasi	6,4
Geotermal energiya	5,8
Biomassa energiyasi	6,3

Elektr energiyasini hosil qilish usuli	Elektr energiyasining qiymati, sent/kVt.soat
Bugʻ asosida ishlovchi gaz turbinalari	4,8-6,3
Atom elektr stansiyalari	12,5
Fotoelementli quyosh batareyalari	28,4

Demak, yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, xulosa qilish mumkinki, YOEMning koʻmir sanoat tarmogʻini iqtisodiy-ekologik rivojlantirish variantlarini shakllantirish va ishlab chiqarish quvvatlarining takror ishlab chiqarish hamda ijtimoiy-ekologik xarajatlarini minimallashtirishning maqsadli funksiyasi orqali tuziladigan iqtisodiy-matematik model asosida amalga oshirish amaliy ahamiyatga egadir. Shuning uchun koʻmir qazib olishda integratsiyalashgan iqtisodiy-ekologik tizimlarni joriy etish va foydalanishning samaradorligini baholash usullarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir [13].



1-rasm. Yoqilgʻi-energetika kompleksi faoliyatining iqtisodiy samaradorligini baholash koʻrsatkichlari

Manba: muallif tomonidan tizimlashtirilgan.

Uslubiyatga texnik-texnologik innovatsiyalarni joriy qilishdan olingan va ishlab chiqarish xarajatlarning tejalgan summasiga teng boʻlgan yillik iqtisodiy samarani hisoblab chiqish tamoyili asos qilib olingan. Bu tamoyil asosida ushbu korxonalar ichki muhiti obyektlariga multiomilli yondashuvdan foydalanadigan va yer qaʼridan foydalanishning differentsiya qilingan koʻrsatkichlaridan foydalanishni hisobga oladigan yoqilgʻi-energetika kompleksi faoliyatining iqtisodiy samaradorligini baholash koʻrsatkichlari taklif etildi (1-rasm).

2015 – 2022-yillar davomida yoqilgʻi-energetika majmuasida gazni qazib olish surʼatlari oshganligini kuzatish mumkin. Neft qazib chiqarish va mos holda uni qayta ishlash surʼatlari pasayganligi qayd etilib, yildan-yilga koʻmirni qazib olish va shunga muvofiq elektr energiyasini ishlab chiqarish surʼatlari ortishi kuzatilgan (3-jadval).

3-jadval

Yoqilg'i-energetika tarmoqlari bo'yicha umumiy mahsulot hajmining o'sish sur'atlari (o'tgan yilga nisbatan foiz hisobida) [14]

Tarmoq	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2015-2022
Elektr energiya	102,7	101,1	103,0	101,3	102,2	105,8	110,3	103,0	133,1
Ko'mir	98,2	108,5	95,3	109,2	110,0	90,4	111,3	104,4	128,1
Neft qazib chiqarish	101,3	102,9	104,5	97,7	91,9	112,9	96,2	93,7	99,5
Neftni qayta ishlash	90,7	100,9	94,1	105,4	99,9	93,0	97,2	98,9	81,1
Gaz	110,3	100,3	109,7	99,8	96,9	112,5	101,5	100,5	134,7

Elektr energiyasini ishlab chiqarishda foydalaniladigan tabiiy gaz va neft mahsulotlarining o'rnini bosish, respublika yoqilg'i-energetika balansi tuzilmasida ko'mir ulushining oshishi maqsadga muvofiqligi ko'mir sanoatining ustuvor rivojlanishining asosiy omili bo'lib xizmat qiladi.

YOEMning kelgusidagi iqtisodiy-ekologik rivojlanishiga turtki beruvchi omillardan biri innovatsion-investitsion jarayonlar ekanligi shak-shubhasizdir. Sanoatning yoqilg'i-energetika sektorida innovatsion-investitsion jarayonlarning xususiyatlarini o'rganish yoqilg'i sanoati faoliyati samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlarining O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiyalash siyosatiga muvofiq bo'lishini belgilab beradi. 2010 – 2017-yillarda yoqilg'i-energetika tarmoqlarida mahsulot turlarini ishlab chiqarish dinamikasini o'rganish tahlili shuni ko'rsatdiki, majmuaning rivojlanishi turg'un bo'lib (4-jadval), yoqilg'i resurslarini qazib olish quvvatlarining ortishi ekologik zarar yetkazish holatlarining o'sish imkonini yaratadi. Shuning uchun majmua faoliyatida innovatsion-investitsion jarayonlar iqtisodiy-ekologik chora-tadbirlar bilan integratsiyalashgan holda olib borilishi maqsadga muvofiq. Bugungi kunda yoqilg'i resurslari bozori konyunkturasi o'zgaruvchidir. Bunga sabab nafaqat neft narxidagi keskin o'zgarishlar, balki energiya tashuvchilarning kamayib borishi ham taalluqlidir.

4-jadval

Yoqilg'i-energetika tarmoqlarida mahsulot turlarini ishlab chiqarish dinamikasi [15]

Mahsulot turlari	2010-y.	2011-y.	2012-y.	2013-y.	2014-y.	2015-y.	2016-y.	2017-y.
Ko'mir, ming t	3629,4	3844,8	3753,0	4090,0	4396,8	3488,0	3867,3	4038,6
Elektr energiyasi, mln. kVt/soat	51976,3	52806,2	52999,6	54618,6	55766,0	57658,1	59100,5	60092,3
Neft, ming t	2017,9	1901,6	1571,7	1279,8	1031,3	1000,1	867,9	806,0

Mahsulot turlari	2010-y.	2011-y.	2012-y.	2013-y.	2014-y.	2015-y.	2016-y.	2017-y.
Gaz kondensati, ming t	2019,5	1835,6	1765,4	1887,4	1835,8	1728,0	1747,5	1961,7
Avtomobil benzini, ming t	1413,8	1323,2	1237,2	1164,3	1068,1	1064,0	1134,3	1106,2
Dizel yoqilg'isi, ming t	1127,9	1052,0	1009,3	1125,3	982,1	1286,4	1008,3	962,9
Mazut, ming t	321,7	278,3	255,2	202,3	143,7	89,8	93,4	111,4
Suyultirilgan gaz, ming t	369,8	365,4	382,1	559,6	606,8	836,3	654,9	692,9

Investitsiya kiritish jarayonlarini faollashtirish, uning zaxiralaridan foydalanish darajasini oshirish iqtisodiyotdagi mavjud tanglikdan chiqib ketishga sabab bo'lishi kerak. Faqat shu yo'l bilan iqtisodiy islohotlar davri mobaynida investitsion zaxiralar shakllanishining yangi yo'nalishlari, iqtisodiyotning aniq sektorida qayta ishlash bazasining ortib borishiga asos bo'lib xizmat qiladi.

Yuqorida aytib o'tilganlarni, shuningdek, yoqilg'i-energetika kompleksi milliy iqtisodiyotning tizim hosil qiluvchi strukturasi hisoblanishini e'tiborga olgan holda, qayd qilish mumkinki, u iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishi va bu bilan aholi farovonligini oshirishga xizmat qilishi mumkin, ishda muallif tomonidan matematik modellashtirish va mamlakatlararo regressiya tahlili yordamida YAIM va yoqilg'i-energetika kompleksining rivojlanishi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik (2007-2017-yillar uchun VEF ma'lumotlari asosida) tadqiq etildi. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, EAPI (Energy Architecture Performance Index) indeksining musbat o'sishi mamlakat iqtisodiyoti uchun ham, YAIMning barqaror o'sishi uchun ham juda muhim hisoblanadi.

Dunyoda yoqilg'i-energetika resurslarining qazib olinishi, energiya iste'moli bo'yicha statistik ma'lumotlarning tahlili shuni ko'rsatdiki, energiya manbalari orasida ko'mir yetakchi o'rinlarni saqlab qolaveradi (5-jadval). Shu sababli, asosiy xom ashyo sifatida qazib olinayotgan ko'mir bilan birga ikkilamchi resurslar va ko'mirni qayta ishlash natijasida hosil bo'ladigan texnogen resurslar miqdori ortishi tabiiy.

5-jadval

Dunyoda energiya iste'molining prognozi [16]

Energiya manbai	Yillar				
	2020	2025	2030	2035	2040
Neft, mln. t	4377	4531	4650	4738	4820
Tabiiy gaz, mln.t n.e.	3650	4010	4360	4745	5050
Ko'mir, mln.t n.e.	4317	4480	4648	4851	5027
Atom energiyasi, mln.t n.e.	680	752	840	901	940
Gidroenergiya, mln.t n.e.	995	1087	1180	1256	1288

Energiya manbai	Yillar				
	2020	2025	2030	2035	2040
Qayta tiklanadigan energiya manbalari, mln.t n.e.	507	685	871	1085	1310
Jami, mln.t n.e.	14526	15545	16549	17576	18435

Foydali qazilmalardan oqilona va majmuaviy foydalanish, ularni qayta ishlashni kengaytirish va ikkilamchi xom ashyo resurslaridan keng foydalanish, mineral xomashyoni qazib olish va qayta ishlashda yo‘qotishlarni qisqartirish, konlarni to‘la qayta ishlash, “foydali” chiqindilardan foydalanish – konlarni o‘zlashtirishdagi asosiy va doimiy e’tirof etilgan yo‘nalishdir. Umuman, ko‘mir va tabiiy gaz qazib olishda konlardan mineral xomashyoni qazib olish koeffitsiyenti 80-85%ni tashkil etadi. Qazib olish jarayonida topilgan neft zaxiralarining 60-70%i konlarda qolib ketadi [17]. Qurilish materiallari uchun esa bu ko‘rsatkich 30-40%ni tashkil qiladi. Barcha hollarda mutaxassislar foydali qazilmalarni qazib olish koeffitsiyentini oshirish imkoni borligini ta’kidlaydilar.

Yoqilg‘i-energetika tarmog‘ining iqtisodiy samaradorligini baholash va oshirish yo‘nalishlari quyidagicha:

1. Samaradorlikni baholash:

Iqtisodiy ko‘rsatkichlar tahlili: Umumiy daromad, xarajatlar, sof foyda, kapitalning rentabelligi kabi ko‘rsatkichlar orqali samaradorlikni baholash.

Ishlab chiqarish samaradorligi: Yoqilg‘i va energiyaning iste’moli, chiqarilgan mahsulot hajmi bilan taqqoslanishi kerak.

Investitsiyalar qaytishi: Investitsiya kiritilgan loyihalardan qaytgan daromad va vaqt oraliq‘i asosida baholanadi.

Sohaviy samaradorlik: Umumiy iqtisodiyotga ta’sir, yaratilgan ish o‘rinlari va milliy daromadning o‘sishi nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi.

2. Iqtisodiy samaradorlikni oshirish yo‘nalishlari:

Texnologik modernizatsiya: Energiya sarfini kamaytirish va mahsulot ishlab chiqarish jarayonlarini yaxshilash uchun yangi texnologiyalarni joriy qilish.

Ilg‘or boshqaruv usullarini qo‘llash: Tizimli va to‘g‘ri boshqaruv orqali jarayonlarni optimallashtirish, xususan, resurslardan samarali foydalanish.

Innovatsiyalar: Yangiliklarni joriy qilish, energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini qo‘llab-quvvatlash.

Ekologik samaradorlik: Atrof-muhitga salbiy ta’sirni kamaytirish va energiya manbalarini diversifikatsiya qilish.

3. Investitsiya muhitini yaxshilash:

Qonunchilikni takomillashtirish: Investorlar uchun qulay sharoitlar yaratish, investitsiyalardan himoya va barqarorlikni ta’minlash.

Moliyaviy resurslardan foydalanish: Qarz mablag‘lari, xususiy sektor investitsiyalari va davlat subsidiyalarini samarali jalb qilish.

4. Ta’lim va malaka oshirish:

Kadrlar tayyorlash: Zamonaviy bilim va malakaga ega mutaxassislar tayyorlash orqali sohaning raqobatbardoshligini oshirish.

Ilmiy-tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash: Ilmiy va innovatsion tadqiqotlar orqali yoqilg‘i-energetika tarmog‘ini rivojlantirish.

Mazkur yo‘nalishlar orqali yoqilg‘i-energetika tarmog‘ining iqtisodiy samaradorligini yanada oshirish va milliy iqtisodiyotga katta hissa qo‘shish mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Muxtasar qilib aytganda, YOEK tarmoqlari korxonalari faoliyati samarali rivojlanishining muammolarini kompleks tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, resurs soliqlari energetika kompleksi tashkilotlarining rentabellik darajasiga katta bosim o‘tkazadi. Korxonalarning samarali rivojlanishini ta‘minlaydigan muhim omillardan biri sifatida yetarli darajadagi moliyaviy resurslarning mavjudligini inobatga olib, ushbu muammoning yechimlaridan biri sifatida energetika kompleksi korxonalari faoliyatining faollashuvi va jadallashishi uchun qo‘shimcha pul mablag‘larini ajratishga qaratilgan soliq yukini pasaytirish mexanizmi taklif qilinadi.

Shuningdek, yoqilg‘i-energetika tarmog‘i faoliyatini rivojlantirish uchun uchun quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirish lozim:

- barcha energetika sohasi bo‘yicha samarali huquqiy bazani shakllantirish, tabiiy monopoliyalar faoliyatini boshqarish, muvofiqlashtirish va monitoring qilish;

- tegishli davlat organlari tomonidan iqtisodiyotning barcha tarmoqlari va aholini to‘liq darajada ishonchli energiya bilan ta‘minlash bo‘yicha kafolat va nazoratni ta‘minlash;

- energetika sohasida energiya resurslarining strategik zaxiralarini samarali boshqarishni ta‘minlash, qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish;

- energetika sohasining eskirgan texnologik bazasini modernizatsiya qilish, ilmiy-texnik va energetika sohasida investitsiya siyosatini samarali amalga oshirish;

- energetika sohasida zamonaviy xavfsizlik standartlarini ishlab chiqish, ekologik xatarlarni kamaytirish va tabiiy ofatlarning oldini olish bo‘yicha davlat nazorati mexanizmini ishlab chiqish.

Shunday qilib, ko‘rsatib o‘tilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish natijasida Yoqilg‘i-energetika tarmog‘i faoliyati samaradorligini oshirish, ishlab chiqarish va moddiy resurslar tejamini ta‘minlash, xizmat ko‘rsatishning jadallashuvi hamda xarajatlarining kamayishi va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlanishiga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. The World Bank: World Development Indicators. <http://data.worldbank.org/indicator>.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 1 февралдаги “Ўзбекистон Республикаси ёқилғи-энергетика тармоғини бошқариш тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5646-сонли Фармони. <https://lex.uz/docs/4188798>

3. Franki, V., Višković, A. (2015), Energy security, policy and technology in South East Europe: Presenting and applying an energy security index to Croatia. Energy, 90(1), 494-507.

4. Yergin, D. (2006), Ensuring energy security. Foreign Affairs, 85(2), 69-82.

5. Riesman D. Leisure and Work in Post- Industrial Society. Mass Leisure. Eds.E. Larrabee, R.Meyersohn. Glencoe (Ill), 1958. pp. 363-385; Bell D. The Year 2000-The Trajectory of an Idea. Toward the Year 2000. Work in Progress. Ed.by D. Bell. Boston, 1968. pp. 27-33.

6. Кондраков О.В. Классификация угроз энергетической безопасности региона // Социально-экономические явления и процессы. 2012. № 10.

7. Дубровин Е., Дубровин И. Энергетическая безопасность как важная составляющая национальной безопасности. URL: <http://www.eprussia.ru/epr/170/12776.htm> (дата обращения: 11.01.2016).

8. Гольц Г.А. Транспорт и макроэкономика России за три века. Материалы X международной (тринадцатой Екатеринбургской) научно-практической конференции 14-15 июня 2004 года.

9. Муратова Ш.Н. Подходы к выбору мероприятий по обеспечению экономико-экологического развития добычи топливно-минеральных ресурсов. // Микроэкономика. – Москва, 2016. – №4. – С. 59.

10. Аллаева Г.Ж. Проблемы формирования и развития инновационной энергетики в Республике Узбекистан. Проблемы современной экономики. Евразийский международный научно-аналитический журнал. № 3, 2016 г. Санкт-Петербург, Россия. (08.00.00; № 21).

11. Бикеева Э.Р. Энергетическая политика в Узбекистане: перспективы развития энергетического сектора и ориентиры диверсификации баланса первичных энергоносителей в рамках перехода к ресурсосберегающей модели развития: Аналитический доклад. ИПМИ 2015 г.

12. Бобылев С.Н., Ходжаев А.Ш. Экономика природопользования. – М.: 2004. – С. 219.

13. Муратова Ш.Н., Алимходжаев С.Р. Ёқилғи-энергетика мажмуаси тармоқларининг атроф-мухитга таъсири ва уни пасайтириш йўллари. // «Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар» илмий электрон журнали, 2016. – №1, январь-февраль.

14. Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика кўмитаси.

15. Muratova Sh.N. Innovative approach to economic and environmental development of fuel and energy complex. // International Journal of Economics, Commerce and Management, 2016, Vol. 4 (8). – P. 171.

16. Конторович А.Э., Эпов М.И., Эдер Л.В. Долгосрочные и среднесрочные факторы и сценарии развития глобальной энергетической системы в XXI веке. // Геология и геофизика. – 2014. – № 5-6. – С. 694.

17. Сайдахмедов Х.М. Влияние истощения минерально-сырьевых ресурсов на устойчивый экономический рост страны. // Материалы Международной научно-технической конференции «Интеграция науки и практики как механизм эффективного развития геологической отрасли Республики Узбекистан», Часть 1. – Т.: ГП «НИИМР», 2016. – С. 325.

ЭФФЕКТИВНОСТЬ СТРАТЕГИЙ ИНТЕРНЕТ-МАРКЕТИНГА В ЖИЛИЩНО-КОММУНАЛЬНОМ ХОЗЯЙСТВЕ

Кахрамонов Хуршиджон Шухрат угли
PhD, и.о. доцента кафедры «Маркетинг» ТГЭУ

Аннотация. В статье подняты вопросы, касающиеся интернет-маркетинга в Узбекистане и его применения в современных реалиях для продажи и продвижения услуг жилищно-коммунального сектора. Подробно рассмотрены инструменты современного интернет-маркетинга, а также методы проведения всевозможных маркетинговых исследований в сети Интернет. Рассмотрены существующие на сегодняшний день инструменты интернет-маркетинга, проведен анализ платформ для ведения маркетинговой деятельности, дана оценка их эффективности с учетом нынешней ситуации на рынке коммунальных услуг в Узбекистане и его особенностей.

Ключевые слова: интернет-маркетинг, информационное пространство, информация, коммуникативные функции, жилищно-коммунальное хозяйство.

Annotatsiya. Maqolada O'zbekistonda Internet-marketing va uni uy-joy kommunal sektori xizmatlarini sotish va ilgari surish uchun zamonaviy voqelikda qo'llash bilan bog'liq masalalar ko'tarilgan. Zamonaviy Internet-marketing vositalari, shuningdek Internetda barcha turdagi marketing tadqiqotlarini o'tkazish usullari batafsil ko'rib chiqilgan. Bugungi kunda mavjud bo'lgan Internet-marketing vositalari ko'rib chiqildi, marketing faoliyatini olib borish uchun platformalar tahlil qilindi, O'zbekistondagi kommunal xizmatlar bozorida mavjud vaziyat va uning xususiyatlarini hisobga olgan holda ularning samaradorligi baholandi.

Kalit so'zlar: Internet-marketing, axborot maydoni, axborot, kommunikativ funktsiyalar, uy-joy kommunal xo'jaligi.

Abstract. The article raises issues related to Internet marketing in Uzbekistan and its application in modern realities for the sale and promotion of housing and communal services. The tools of modern Internet marketing, as well as methods of conducting various marketing research on the Internet, are considered in detail. The existing Internet marketing tools are considered, the analysis of platforms for conducting marketing activities is carried out, their effectiveness is assessed taking into account the current situation in the public utilities market in Uzbekistan and its features.

Key words: internet marketing, information space, information, communication functions, housing and communal services.

ВВЕДЕНИЕ

В условиях динамичного развития цифровых технологий и их проникновения в различные сферы бизнеса, жилищно-коммунальное хозяйство (ЖКХ) также сталкивается с необходимостью адаптации и внедрения современных подходов к управлению и коммуникации. Интернет-маркетинг, являясь важным инструментом в арсенале современных бизнес-стратегий, предоставляет уникальные возможности для повышения эффективности

управления жилыми комплексами и улучшения взаимодействия с потребителями услуг.

Быстрая цифровизация общества и распространение интернета оказывают значительное влияние на поведение потребителей. Интернет стал основным каналом получения информации, включая поиск и выбор управляющих компаний, что подчеркивает необходимость активного использования цифровых инструментов и платформ для привлечения и удержания клиентов.

В условиях растущего интереса к вопросам прозрачности и ответственности со стороны управляющих компаний, интернет-маркетинг предоставляет инструменты для открытого и эффективного общения с клиентами. Социальные сети, отзывы и рейтинги играют важную роль в формировании репутации компании и доверия со стороны потребителей.

Тема интернет-маркетинга в сфере ЖКХ актуальна, поскольку данное направление маркетинга напрямую связано с цифровизацией общества и развитием Интернета, который с каждым годом имеет все большее значение, как в экономике, так и в других сферах жизни. Однако, далеко не все предприятия сферы жилищно-коммунальных услуг осознают важность этого инструмента и то, как он может повлиять на эффективность коммерческой деятельности предприятия. Это в свою очередь обуславливает необходимость понимания механизмов его работы и инструментов, применение которых наиболее целесообразно в данной отрасли.

АНАЛИЗ ТЕМАТИЧЕСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

Впервые интернет-маркетинг стал применяться в 90-х годах прошлого столетия, именно тогда сайты, на тот момент полностью текстовые, начали распространять рекламу о товарах и услугах [1]. Прошло всего несколько десятков лет, и Интернет стал не просто дополнительным инструментом для продвижения товаров. В некоторых отраслях он практически вытеснил традиционный маркетинг.

Интернет непрерывно развивается и параллельно изменяет методы ведения бизнеса и продвижения продукции, снижая при этом затраты. Сегодня коммерсантам приходится развивать еще один тип деятельности, интернет-маркетинг, то есть планировать, проводить анализ, контроль, организацию, разрабатывать стратегию для поиска возможностей поддержания связи с клиентами посредством сети Интернет и в конечном итоге завоевание рынка.

Появление и стремительное развитие Интернета привело к тому, что на данный момент существует проблема формирования целостного определения интернет-маркетинга. Изначально, в период зарождения коммерческой деятельности в Сети, то есть в конце 20 века, интернет-маркетинг определялся лишь как проведение рекламных кампаний посредством Интернета [2]. Некоторая часть ученых трактовала интернет-маркетинг еще более узко, как баннерная реклама или вообще избегали определение того, что на самом деле подразумевает под собой данное понятие.

В. Холмогоров дает определение интернет-маркетинга как комплекс методов, позволяющих владельцам веб-ресурсов продвигать их в Сети и тем самым продвигать торговую марку и извлекать тем самым дополнительную прибыль для своих предприятий [3].

Несмотря на вышесказанное, достаточно определенно можно утверждать, что основное внимание уделено интернет-рекламе, а не маркетинговым исследованиям интернет-пространства.

Существенным прорывом вперед можно считать подход, который был сформулирован В.В. Диком, А.Э. Родионовым и М.Г. Лужецким. Интернет-маркетинг был определен как комплекс мер, предназначенных для исследования сетевого рынка Интернет, а также для продвижения и продажи товаров и услуг с помощью современных технологий. В соответствии с данным определением, можно сделать вывод, что существует необходимость использования полноценных маркетинговых исследований для успешной деятельности по продвижению продукции в Сети [4].

Е.А. Петрик тоже приводя определение интернет-маркетинга в своих работах выделяет маркетинговые исследования как непосредственную сферу деятельности интернет-маркетинга, а кроме того, определяет и сам Интернет, как новое пространство для ведения экономической деятельности, которое, в свою очередь, имеет иные бизнес-процессы и бизнес-модели, отличные от классического бизнеса [5].

Интернет-маркетинг – это совокупность мероприятий, направленных на повышение рейтинга интернет-ресурса в сети, увеличение посещаемости и, как следствие, привлечение новых клиентов и рост компании. Для обозначения конкретных действий, направленных на улучшение видимости сайта в выдаче поисковых систем, используются термины «поисковая оптимизация» или «продвижение сайта».

Обычно главной задачей веб-маркетинга считают достижение высокого числа посетителей в сутки. Однако, самое главное – это привлечь наибольшее число клиентов из целевого сегмента рынка.

История развития маркетинга сферы ЖКХ существенно отличается от маркетинга в целом, что обуславливает его специфику [6]. В период СССР рынок жилищно-коммунальных услуг был занят предприятиями монополистами, которые обслуживали определенное государством количество потребителей, а потребители в свою очередь не имели выбора предприятия, соответственно не было и необходимости в проведении маркетинговых компаний и исследований, в последнее десятилетие государство активно проводит реформу ЖКХ для постепенного перехода этой сферы к эффективному рыночному хозяйствованию [7].

Таким образом возникли управляющие компании, которые выступают посредником между поставщиками и потребителями и работают на основании лицензии. Также возникли товарищества собственников жилья. Тем самым у потребителей появился выбор, а с ним появилась и необходимость развития маркетинга в сфере ЖКХ

МЕТОДОЛОГИЯ НАУЧНОГО ИССЛЕДОВАНИЯ

Теоретической базой научного исследования послужили теоретико-методические подходы к определению маркетинга в жилищно-коммунальном хозяйстве, методологии эффективного управления маркетингом в управлении жилищным фондом города, обоснованные в научных трудах отечественных и зарубежных ученых.

Исследование прикладных аспектов управления маркетингом жилищно-коммунального хозяйства проведено с использованием эмпирических и теоретических методов познания таких, как наблюдение, сравнение, анализ, классификация, аналитической и статистической группировки.

АНАЛИЗ И РЕЗУЛЬТАТЫ

В целом, маркетинг ЖКХ можно охарактеризовать как процесс разработки и продвижения услуг, связанных с улучшением жилищных условий потребителей, водоснабжением, поставкой электроэнергии, отоплением, уборкой придомовых территорий и поддержанием домов в надлежащем состоянии, тарифной политикой, анализом осуществляемых услуг, а также поддержанию положительной оценки компании со стороны потребителей.

Управление маркетингом в ЖКХ состоит из нескольких направлений, а именно управление маркетинговой деятельностью поставщиков услуг ЖКХ и организаций посредников (рис 1).



Рис. 1. Структура управления маркетингом в ЖКХ

Специфику управления маркетингом в сфере жилищно-коммунальных услуг можно охарактеризовать невозможностью использования прямого маркетинга и применением маркетинг-микса в условиях квазирынка.

Комплекс маркетинга в ЖКХ присутствует, однако он реализуется путем поиска и адаптации инструментария к специфике деятельности и условиями взаимодействия с внешней средой [8]. Маркетинговые исследования также играют важную роль в условиях современного рынка ЖКХ, обеспечивая основу для принятия коммерческих решений и позволяя эффективнее удовлетворять

потребности потребителей, тем самым сохраняя и повышая конкурентоспособность предприятия.

В контексте ЖКХ маркетинговые исследования практически не отличаются от аналогичных в других отраслях и сферах коммерческой деятельности и включают в себя сбор, обработку и анализ информации о потребителях и конкурентах. В результате маркетинговые исследования позволяют управляющей компании получать актуальные сведения о состоянии внешней среды предприятия, информацию о проблемах, доступных ресурсах, что дает возможность выстроить последовательность действий и определить методы решения проблем.

Современные интернет-маркетинговые инструменты позволяют собирать и анализировать большие объемы данных о потребителях, что способствует более точному таргетированию рекламных кампаний и улучшению персонализированного обслуживания. Это может привести к повышению уровня удовлетворенности клиентов и оптимизации внутренних процессов.

Маркетинговые исследования в сфере жилищно-коммунальных услуг в зависимости от целей подразделяют на несколько видов:

- ресурсный анализ;
- мониторинг социально-экономического положения;
- исследование потребительского рынка;
- мониторинг конкуренции;
- социальный мониторинг (обратная связь с населением);
- комплексный маркетинговый анализ муниципальных бизнес-проектов.

По методам сбора информации маркетинговые исследования в сфере ЖКХ подразделяются на:

- полевые (основанные на сборе, обработке и анализе первичной информации);
- кабинетные (предполагающие изучение и оценку вторичной информации);
- комбинированные.

Полевые исследования проводятся в форме наблюдения, эксперимента либо опроса. Кабинетные, в свою очередь, бывают внешними и внутренними.

Немаловажную роль в маркетинге ЖКХ занимают маркетинговые коммуникации, то есть процессы, связанные с передачей информации целевой аудитории. Целевой аудиторией управляющей компании являются потенциальные и реальные потребители. Таким образом с помощью маркетинговых коммуникации достигается реализация взаимодействия предприятия с группами заинтересованных в сотрудничестве сторон. От того насколько эффективно выстроена система коммуникаций зависит вероятность положительного отклика на маркетинговую кампанию.

Для маркетинговых коммуникаций в ЖКХ существуют и применяются как традиционные офлайн точки контакта, так и онлайн.

Оффлайн точки контакта включают: СМИ, брошюры, вывески, листовки, бюллетени, памятки, офис компании и фирменная одежда сотрудников. Онлайн точки контакта включают: социальные сети, контекстная реклама, чаты и каналы в мессенджерах, видеохостинги и другие [9]. Отличие интернет-маркетинга от традиционного заключается только в том, что он осуществляется в виртуальной среде. Однако, несмотря на это у предприятий как среднего, так и малого бизнеса, включая предприятия сферы ЖКХ, возникает большое количество трудностей в процессе перехода в онлайн.

Raqamli iqtisodiyot bu noldan boshlab yaratilishi lozim bo‘lgan qandaydir boshqacha iqtisodiyot emas, bu yangi texnologiyalar, platformalar va biznes modellari yaratish va ularni kundalik hayotga joriy etish orqali mavjud iqtisodiyotni yangicha tizimga ko‘chirish deganidir. Raqamli iqtisodiyotning bir qancha afzalliklari hamda ijobiy tomonlari mavjud. Masalan, axborot-kommunikatsion texnologiyalarining rivojlanishi inson uchun eng qimmatbaho bo‘lgan vaqtni tejashga, undan unumli foydalanishga ko‘maklashishi mumkin. Biron bir kitobning chop etilgan ko‘rinishini sotib olish shu kitobning elektron formatini sotib olishdan qimmatroqqa tushadi. Bundan ko‘rinadiki, biz axborot-kommunikatsion texnologiyalarining rivojlanishi orqali pul mablag‘larimizni ham qisman tejab qolishimiz mumkin. Kommunal to‘lovlarni amalga oshirish uchun banklarda soatlab navbat kutib turishimizga hojat qolmaydi, istalgan joydan turib, istalgan ishni amalga oshirishimiz mumkin bo‘ladi. Uyda o‘tiradigan yoki yosh bolali ayollarimiz uchun ham bu ancha qo‘l keladi. Ular uy yumushlarini bajargan holda, uylaridan chiqmay turib, onlayn savdo bilan shug‘ullanib, pul topish imkoniyatiga ega bo‘lishlari mumkin. Bundan tashqari, ushbu texnologiyalardan ta’lim sohasida ham unumli foydalanish mumkin bo‘ladi. O‘quvchi va talabalarning davomatini nazorat qilish, darslarni o‘zlashtirish natijalari hamda yutuqlaridan xabardor bo‘lish imkoniyati tug‘iladi.

Raqamli iqtisodiyotga o‘tish albatta, ishlab chiqarish samaradorligining oshishiga, kompaniyalar raqobatbardoshligining o‘shishiga, ishlab chiqarish xarajatlarining kamayishiga, yangi ish o‘rinlarining yaratilishiga, yangi zamonaviy

kasblarning paydo bo'lishiga ta'sir etmay qolmaydi. Qisqacha qilib aytganda, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi hayotimizni ijobiy tomonga o'zgartirishi mumkin.[2]

ADABIYOTLAR TAHLILI

Mamlakatimizda 2030 yilgacha barcha sohalarda raqamli transformatsiyalashuv jarayonlarini jadal amalga oshirish va bu orqali mamlakat iqtisodiy qudratini mustahkamlash, jahon hamjamiyatida o'z o'rnini munosib turish vazifalari ham belgilangan. Shu yo'sinda raqamli iqtisodiyot va elektron tijorat tushunchasiga oydinlik kiritib olamiz.

Raqamli iqtisodiyot — bu jarayonlarni tahlil qilish natijalaridan foydalanish va katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash asosida turli xildagi, texnologiyalar, asbob-uskunalar, tovar va xizmatlarni saqlash, sotish va yetkazib berish samaradorligini jiddiy ravishda oshirishga imkon beradigan, raqamli texnologiyalarga asoslangan elektron biznes va elektron tijorat bilan chambarchas bog'liq iqtisodiy faoliyat, hamda shu faoliyat natijasida ishlab chiqariladigan va sotiladigan raqamli tovarlar, xizmatlar yig'indisidir. Ba'zida u internet iqtisodiyoti, yangi iqtisodiyot yoki veb-iqtisodiyot degan terminlar bilan ham ifodalanadi.

Elektron tijorat (e-tijorat, ingl. "e-commerce") — bu internet orqali savdo-sotiq amaliyotlarini tashkil etish. Elektron tijoratga hozirgi eng katta internet auksioni va do'koni bilan misol qilishimiz mumkin. Bugungi kunga kelib, elektron tijorat – O'zbekiston iqtisodiyotida keng ko'lamli ishlarni amalga oshirdi va mamlakatdagi mavjud holat, muammolar va istiqbollarni o'rganishga zamin yaratildi.

Iqtisodiyot va jamiyatning "raqamlashtirish" jarayoni (ingliz tilida — "digitization" ya'ni, raqamlashtirish, ba'zan esa "digitalization" ya'ni raqamlashtirilishi ma'nosini bildiradi) haqida gapirganda, birinchi navbatda, terminologiyaga aniqlik kiritish kerak. Keng ma'noda "raqamlashtirish" jarayoni, odatda, raqamli texnologiyalarni keng qo'llash va assimilyatsiya qilish tashabbusi bilan boshlangan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishni anglatadi. Raqamli iqtisodiyot tushunchasiga bir qator ta'riflar berilgan. Jumladan, professor V.Ivanov "Raqamli iqtisod — haqiqatimizni to'ldiradigan virtual muhit," deb ta'rif bergan [2]. Professor D.Kungurovning fikricha, "raqamli iqtisod" atamasiga ikkita – klassik va an'anaviy yondashish mavjud. Raqamli texnologiyalar asosida iqtisodiyotning va elektron tovar va xizmatlar eksklyuziv domen tavsiflovchi raqamli iqtisodiyot: birinchi yondashuv "klassik" deb nomlanib, klassik misollar – teletibbiyot, masofaviy ta'lim, dori-darmonlarni sotish (filmlar, televizorlar, kitoblar va boshqalar). Ikkinchi yondashuv: "raqamli iqtisod" ilg'or raqamli texnologiyalardan foydalangan holda iqtisodiy ishlab chiqarishdir. M.L. Kalujskiy raqamli iqtisodiyot – iqtisodiy internet faoliyati, shuningdek, shakllari, usullari, vositalari va uni amalga oshirish aloqa muhitidir, deb ta'riflagan [3]. Manbalarda keltirilishicha "Raqamli iqtisodiyot" iqtisodiyotning bunday turi ma'lum darajada amalda ishlaydigan turdagi model hisoblanadi. Raqamli iqtisodiyot — bu ishlab chiqarish kompleksi, inson uchun hayot va qulaylikni ta'minlaydigan mahsulot va xizmatlarni yaratadigan ishlab chiqarish tizimi bo'lib, u yerda ma'lum bir kiber-jismoniy (kiberfizicheskaya) tizim paydo bo'ladi. Fikrimizcha, raqamli iqtisodiyot bu ishlab chiqarish kompleksi insonlar uchun qulayliklarni

ta'minlaydigan mahsulot va xizmatlarni yaratadigan virtual muhit bo'lib, raqamli texnologiyalardan foydalangan holda iqtisodiy ishlab chiqarish tizimi sanaladi [3]. Raqamli iqtisodiyotga bo'lgan qiziqish jamiyat va iqtisodiyotda ro'y bergan jiddiy o'zgarishlar tufayli sezilarli darajada o'sdi. Zamonaviy texnologiyalar va platformalar mijozlar, hamkorlar va davlat tashkilotlari bilan shaxsiy muloqotni minimallashtirish hisobiga korxonalar va jismoniy shaxslarga xarajatlarni qisqartirishga yordam berdi, shuningdek, o'zaro muloqotni yanada tez va oson yo'lga qo'yishga imkoniyat yaratdi.

Hozirgi kunda raqamli iqtisodiyot tushunchasi bir qator mamlakatlarning iqtisodiy nazariyasi va amaliyotida paydo bo'ldi. Bu raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi, axborot sohasida inqilob va iqtisodiyotning globallashtirish jarayonlarini tezlashtirish bilan ajralib turdi. Ulardan foydalanish samaradorligi ortib borayotgan bilimga aylantirildi va ijtimoiy-iqtisodiy aloqalar tobora kengayib bormoqda.

Raqamli iqtisodiyot ikki xil turli tushunchalarni ifodalash uchun ishlatiladi. Birinchidan, raqamli iqtisodiyot — bu rivojlanishning zamonaviy bosqichi hisoblanib, u ijodiy mehnat va axborot ne'matlarining ustuvor o'rni bilan tavsiflanadi. Ikkinchidan, raqamli iqtisodiyot — bu o'ziga xos tushuncha bo'lib, uning o'rganish obyekti axborotlashgan jamiyat hisoblanadi. Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan global iqtisodiyot sharoitida raqamli iqtisodiyot o'z rivojlanishining boshlang'ich davrida bo'lib, zamonamizning raqamli axborot bosqichiga butunlay o'tishi atiga bir necha yilni tashkil etadi.

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev takidlaganidek, "Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo'lidan borish imkoniyatini beradi".

METODOLOGIYA

"Raqamli iqtisodiyot" atamasi birinchi bo'lib 1995-yilda Don Tepkott muallifligida chop etilgan "Raqamli iqtisodiyot: tarmoqli intellekt asrida va'da va xavf-xatar" (The Digital Economy: Promise and Peril in the Age of Networked Intelligence) nashrida alohida tushuncha sifatida istiloh etilgan. Ushbu nashrda raqamli iqtisodiyotning asosiy tarkibiy qismlariga fundamental innovatsiyalar (yarim o'tkazgichlar, protsessorlar), asosiy texnologiyalar (kompyuterlar) va bog'lovchi infratuzilmalar (internet va telekommunikatsiya tarmoqlari) ajratib ko'rsatiladi. Raqamli iqtisodiyot ikki xil turli tushunchalarni ifodalash uchun ishlatiladi. Birinchidan, raqamli iqtisodiyot — bu rivojlanishning zamonaviy bosqichi hisoblanib, u ijodiy mehnat va axborot ne'matlarining ustuvor o'rni bilan tavsiflanadi. Ikkinchidan, raqamli iqtisodiyot — bu o'ziga xos tushuncha bo'lib, uning o'rganish obyekti axborotlashgan jamiyat hisoblanadi. Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan global iqtisodiyot sharoitida raqamli iqtisodiyot o'z rivojlanishining boshlang'ich davrida bo'lib, zamonamizning raqamli axborot bosqichiga o'tishi atiga bir necha o'n yilni tashkil etadi.

Axborot texnologiyalarining tezlik bilan rivojlanishi iqtisodiyotda ham o'z aksini topmasdan qolmaydi. Hozirgi kunda iqtisodiyotda, ayniqsa zamonaviy marketing sohasida erishilayotgan yutuqlar negizida aynan axborot texnologiyalari turli segmentlarining yuqori darajada rivojlanganligi va samarali qo'llanishi yotadi.

O‘zbekiston iqtisodiyoti ham bundan mustasno emas albatta. Yaqqol misol sifatida axborot texnologiyalarining bir qator segmentlari masalan, ma’lumotlar yetkazish tarmoqlari, axborot internet-resurslari va ular orasidagi elektron hujjat almashuv, internet marketing tizimlari, biznes va tijoratning barqaror rivojlanayotganini keltirish mumkin. O‘zbekiston uchun axborot texnologiyalarini rivojlantirish yangi iqtisodiy aloqalarni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Lekin bu jarayon, axborot texnologiyalari sohasida ta’lim standartlarining oshishi, milliy telekommunikatsiya tarmoqlarining modernizatsiyalashuvi, huquqiy bazaning shakllanishi oqibatida vujudga keladigan jamiyatning ma’lum darajadagi informatsion tayyorligi mavjud bo‘lgan holatdagina sodir bo‘ladi.

O‘zbekiston iqtisodiyotining ham bosqichma-bosqich rivojlanishi oqibatida biznes faoliyatini yuritishning yangi prinsiplari, ayniqsa, elektron tijoratning ahamiyati juda oshdi. Bugungi kunga kelib, har bir internet foydalanuvchisi elektron tijorat so‘zining ma’nosini tushunishga harakat qilib ko‘rgan. Hali o‘zining uzoq tarixini qurishga ham ulgurmagani bunday faoliyat bilan bog‘liq AQSh bozorlarida yiliga o‘rtacha 1,5 — 2 trln. AQSh dollari miqdorida mablag‘lar aylanadi. “Elektron tijorat” termini EDI (Elektronic Data Interchange — ma’lumotlarni elektron almashish), elektron pochta, internet, intranet (kompaniya ichida axborot almashish) va ekstranet (tashqi dunyo bilan axborot almashish) kabi texnologiyalarni o‘z ichiga oladi. O‘z navbatida Elektron tijorat tizimini uch sinfga bo‘lish mumkin:

- Chakana savdoni tashkil qilish bo‘yicha (biznes-iste’molchi, B2C);
- Biznes hamkor bilan aloqalar o‘rnatish (biznes-biznes, B2B);
- Iste’molchilar o‘rtasidagi savdo (iste’molchi-iste’molchi, C2C).

Elektron tijorat kundan — kunga tovar va xizmatlar assortimentini oshira boshlagan sari alohida shaxslarni, korxonalarni, sohalarni, davlat muassasalarini va nihoyat davlatlarni bir hamjamiyatga birlashtirib, hamkorlarning o‘zaro ta’siri axborot va telekommunikatsion texnologiyalar yordamida samarali va to‘siqlarsiz kelishuvlarga erishishiga imkon berdi.

Jahon amaliyotining ko‘rsatishicha, raqamli iqtisodiyotning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi, shu davlatdagi rivojlanish ko‘rsatkichlaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Tabiiyki, bu ko‘rsatkich rivojlangan mamlakatlarda yuqori.

Raqamli iqtisodiyotning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi AQSHda — 10,9 foizni, Xitoyda — 10 foizni, Hindistonda — 5,5 foizni tashkil etgani holda, O‘zbekistonda 2 foizdan ham oshmaydi. Ushbu sohani rivojlantirish hozirgi zamon talabiga aylanib bormoqda.

Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish O‘zbekiston uchun, uning dunyo miqyosidagi raqobatbardoshligini belgilab beradigan muhim, strategik ahamiyatga ega vazifa bo‘lib, bu davlatimizga ushbu sohani rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlarni yaratib berish, bu jarayonni rag‘batlantirish zarurligini ko‘zda tutadi.

O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish uchun imkoniyatlar, shart-sharoitlar yetarlicha, biroq rivojlanish bosqichi juda sekin bormoqda. Bunga sabab bo‘layotgan bir qancha omillar mavjud bo‘lib, ularning eng asosiylari internet tezligi va sifatining pastligi, ko‘plab sohalarda monopoliyalarning mavjudligi, axborot texnologiyalari sohasidagi qonunchilikning zamondan ortda qolganligi, kompyuter

savodxonligi darajasining pastligi, axborot texnologiyalari mutaxassislarining yetishmasligi, axborot texnologiyalari xavfsizligining yetarli darajada emasligidir.

“Raqamli iqtisodiyot” atamasi ilmiy amaliyotga ispaniyalik va amerikalik sotsiolog, axborotlashgan jamiyatning yetakchi tadqiqotchisi Manuel Kastels tomonidan kiritilgan. Bu borada u o‘zining “Axborot davri: iqtisod, jamiyat va madaniyat” nomli uch jildli monografiyasini chop etgan. Hozirgi vaqtga kelib, raqamli iqtisodiyot nazariyasi to‘laligicha hali shakllanmagan va ko‘pchilik iqtisodchilar tomonidan keng miqyosda o‘rganilmoqda. Ilmiy adabiyotlarda hozirgi zamon “Yangi raqamli iqtisodiyoti” turli xil atamalar bilan nomlanadi. Masalan, “Postindustrial iqtisodiyot” (D.Bell), “Axborotlashgan iqtisodiyot” (O.Toﬀler), “Megaiqtisodiyot” (V.Kuvaldin), “Axborot va aloqaga asoslangan iqtisodiyot” (I.Niiniluto), “Texnoiqtisodiyot yoki raqamli iqtisodiyot” (B.Geyts), “Bilimlarga asoslangan iqtisodiyot” (D.Tapskott). Mark Porat birlamchi va ikkilamchi iqtisodiyot sektorlari orasiga farq kiritgan amerikalik olimlardan biri bo‘lib hisoblanadi.

Birlamchi sektor aniq iqtisodiy baholanishi mumkin, chunki u bevosita bozor qiymatini yaratadi. Ikkilamchi sektor iqtisodiyot uchun muhim hisoblansa-da, ammo uni iqtisodiy baholashni amalga oshirish ancha mushkul amal hisoblanadi, chunki u kompaniyalar va davlat korxonalari ichidagi axborot faoliyatini o‘z ichiga oladi. Globallashuv sharoitida raqamli iqtisodiyot tendensiyalarining o‘zgarishini rossiyalik olim N.S.Revenko ham o‘rgangan, raqamli iqtisodiyotni shakllantirish, rivojlantirish va takomillashtirish masalalari bilan esa V.M.Bondarenko shug‘ullangan.

1-jadval

Raqamli iqtisodiyotga berilgan ta’riflar

№	Ta’rif	Ta’rif manbasi
1	Elektron iqtisodiyot (raqamli, web, internet iqtisodi) – elektron biznes va elektron tijorat bilan bog‘liq, raqamli texnologiyalarga asoslangan iqtisodiy faoliyat, ular tomonidan ishlab chiqarilgan va sotilgan elektron tovar va xizmatlar	Wikipedia: https://ru.wikipedia.org/wiki/E-economy
2	Tarmoq iqtisodiyoti (virtual, raqamli, elektron) – elektron tarmoqlar (raqamli telekommunikatsiyalar) yordamida amalga oshiriladigan iqtisodiy faoliyat. Texnologik nuqtai nazardan, tarmoq iqtisodiyoti qonuniy bo‘lgan muhitdir	Glossary.ru: http://www.glossary.ru/cgi-bin/gl_sch2.cgi?RRlylig9!_qutusoqg
3	Raqamli iqtisodiyot – bu shunday iqtisodiy faoliyatki, unda ma’lumotlar raqamli shaklda bo‘ladi. Ular har xil turdagi ishlab chiqarish samaradorligini oshirishlari mumkin.	http://kremlin.ru/acts/bank/41919
4	Raqamli iqtisodiyot – bu raqamli rivojlanish bilan bog‘liq bo‘lgan kompyuter texnologiyalari. Bunga quyidagilar kiradi:	http://www.fingramota.org/teoriyafinansov/item/2198-chtotakoetsifrovaya-ekonomika

№	Ta'rif	Ta'rif manbasi
	onlayn xizmatlar, elektron to'lovlar, onlayn savdo, krossfanding va boshqalar.	
5	Raqamli iqtisodiyot – bu raqamli axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy aloqalar.	http://www.tadviser.ru/index.php/Article3AdigitalEconomyofRussia
6	Raqamli iqtisodiyot – bu tijorat maqsadida foydalaniladigan global iqtisodiy faoliyat tarmog'i.	http://www.tpinauka.ru/2018/02/Skripko.pdf
7	Raqamli iqtisodiyotning oddiy iqtisodiyotdan farqi.	https://sof.uz/uz/post/raqamli-iqtisodiyot-haqida-nimalarni-bilish-kerak

Tadqiqotning maqsadi raqamli iqtisodiyotning mohiyatini yoritish, uning afzalliklari va kamchiliklarini aniqlash, hamda O'zbekistonda ushbu sohani yanada rivojlantirish bo'yicha ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot metodlari. Maqolani tayyorlash jarayonida dialektik, tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, ilmiy abstraksiya, monografik kuzatuv, tizimli va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi. Asosiy natijalar. Raqamli iqtisodiyot atamasini birinchi eshitganimizda, “raqamli iqtisodiyot” o'zi nima? U qayerdan kelib chiqqan? degan savollar tug'ilishi tabiiy. “Raqamli iqtisodiyot” tushunchasining kelib chiqish tarixini o'rganadigan bo'lsak, raqamli iqtisodiyot juda uzoq bo'lmagan vaqtda, 1995 – yili Massachusetts universitetida faoliyat yurituvchi amerikalik olim Nikolas Negreponte tomonidan aniqlangan. U axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining intensiv rivojlanishi orqali eski iqtisodiyotdan yangi iqtisodiyotga o'tishda qanday o'zgarishlar kuzatilishi mumkinligini aytib o'tgan. Yuqorida aytib o'tilganidek, hozirgi vaqtga kelib, raqamli iqtisodiyot nazariyasi to'laligicha hali shakllanmagan va ko'pchilik iqtisodchilar tomonidan keng miqyosda o'rganilmoqda. “Raqamli” davlatlar – ya'ni raqamli iqtisodiyot yuksak rivojlangan davlatlar bugungi kunda Norvegiya, Shvesiya va Shvesariya hisoblanadi. AQSh, Buyuk Britaniya, Daniya, Finlandiya, Singapur, Janubiy Koreya hamda Gongkong raqamli iqtisodiyot rivojlangan davlatlar 10 taligiga kiradi. Ushbu davlatlar tajribasini o'rganib chiqish va bular asosida harakatlanish ko'zlangan maqsadga tezroq erishishga yordam beradi[4].¹

Zamonaviy taraqqiyotning keyingi istiqbolida katta hajmli ma'lumotlar bilan ishlash texnologiyalari (Big Data), sun'iy intellekt, neyrotexnologiyalar, kvant texnologiyalari, buyumlar interneti, robototexnika va sensorika, raqamli elektron platformalar, bulutli va mobil texnologiyalar, virtual va qo'shimcha reallik texnologiyalari, kraudsorsing, blokcheyn texnologiyalari, kriptovalyutalar va ICO, 3D-texnologiyalari singari raqamli texnologiyalar hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda. Raqamli iqtisodiyot hozirgi mavjud sohalarning yarmidan ko'prog'ida beqiyos

¹ P.Z.Xashimov. Z.F.Faxriddinova. O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish istiqbollari. — “AXBOROT TEXNOLOGIYALAR IQTISODIYOTI” jurnal.

o'zgarishlar keltirib chiqarishi ta'kidlanmoqda. Jumladan, Jahon banki ekspertlari fikricha, tezkor internetdan foydalanuvchilar sonining 10 foizga ko'payishi milliy iqtisodiyotlar yalpi hajmini har yili o'rtacha 0,4-1,4 foizga oshirish imkonini beradi. Dunyoda raqamli iqtisodiyot o'sishining sur'atlari yiliga deyarli 20 foizni tashkil etmoqda. Taraqqiy etgan davlatlarda raqamli iqtisodiyotning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 7 foizga yetgan. Ular hozirning o'zida raqamli iqtisodiyotning joriy qilinishidan juda katta naf ko'rishmoqda. Xususan, Amerika Qo'shma Shtatlari yiliga 400 milliard AQSh dollaridan ko'proq raqamli xizmatlarni eksport qilmoqda. Mazkur davlat yalpi ichki mahsulotining 5 foizidan ko'prog'i bevosita internet va axborot-telekommunikatsiya texnologiyalari bilan bog'liq sohalarga to'g'ri keladi. 2025 yilgacha AQSh sanoatni raqamlashtirishdan qo'shimcha 20 trln. dollar daromad olishi kutilmoqda. Bunday iqtisodiy samaradorlik, ayniqsa iste'mol tovarlari ishlab chiqarish (10,3 trln. dollar), avtomobil sanoati (3,8 trln. dollar) va logistikada (3,9 trln. dollar) yuqori bo'lishi ta'kidlanmoqda. Turli tadqiqotlar natijalari bo'yicha raqamli iqtisodiyotning dunyo iqtisodiyotidagi salmog'i 4,5-15,5 foizni tashkil etadi. Jahon axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sektorida yaratilayotgan qo'shilgan qiymatning deyarli 40 foizi va blokcheyn texnologiyalari bilan bog'liq patentlarning 75 foizi Amerika Qo'shma Shtatlari va Xitoy Xalq Respublikasi hissasiga to'g'ri keladi.

Jahon iqtisodiyotining globallasuvi va texnologik rivojlanish sharoitida O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanishini raqamli iqtisodiyotsiz tasavvur qilish qiyin. Tadqiqotlar natijalariga ko'ra, 2022-yilga kelib global YaIMning chorak qismi raqamli sohada bo'lishini taxmin qilinmoqda. Lekin, xalqaro axborot kommunikatsiya texnologiyalari rivojlantirish indeksi bo'yicha O'zbekiston 170 dan ortiq davlat ichida 103-o'rinni egallab turishining o'zi mamlakatimizda bu sohada hali o'z yechimini kutayotgan masalalar va qilinishi lozim bo'lgan ishlar ko'pligidan dalolat beradi. Davlatimiz rahbarining ta'kidlashicha, "yurtimiz xalqaro axborot kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish indeksi bo'yicha 2019-yilda 8 pog'onaga ko'tarilgan bo'lsa-da, hali juda ham orqada. Aksariyat vazirlik va idoralar, korxonalar raqamli texnologiyalardan mutlaqo yiroq, desak, bu ham haqiqat. Albatta, raqamli iqtisodiyotni shakllantirish kerakli infratuzilma, ko'p mablag' va mehnat resurslarini talab etishini juda yaxshi bilamiz. Raqamli texnologiyalar nafaqat mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi, ortiqcha xarajatlarni kamaytiradi. Shu bilan birga, meni juda qattiq tashvishga soladigan va bezovta qiladigan eng og'ir illat — korrupsiya balosini yo'qotishda ham ular samarali vositadir. Buni barchamiz teran anglab olishimiz darkor. Davlat va jamiyat boshqaruvi, ijtimoiy sohada ham raqamli texnologiyalarni keng joriy etib, natijadorlikni oshirish, bir so'z bilan aytganda, odamlar turmushini keskin yaxshilash mumkin".

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'z o'rnida qayd etib o'tish lozimki, mamlakatimiz hayotida raqamli iqtisodiyotning ayrim elementlari allaqachon muvaffaqiyat bilan faoliyat ko'rsatmoqda. Jumladan, hujjatlar va kommunikatsiyalarning ommaviy ravishda raqamli vositalarga o'tkazilishini hisobga olib, elektron imzoga ruxsat berish, davlat

bilan muloqot qilish ham elektron platformalarga o'tkazilmoqda. BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrishning ta'бири bilan aytganda, "raqamli iqtisodiyot yangi xavf-xatarlarni vujudga keltirishi mumkin, shu jumladan, kiberxavfsizlikka tahdidlar, noqonuniy iqtisodiy faoliyatning yengillashuvi, shaxsiy hayot daxlsizligini buzilishi bilan bog'liq sabablarni keltirish mumkin. Yangi qarorlar qabul qilish hukumatlar, fuqarolik jamiyati, akademik guruhlar, ilmiy hamjamiyat va texnologik sektorlarning hamkorlikdagi harakatini talab etadi".

Raqamli iqtisodiyotni yanada rivojlantirish maqsadida quyidagi yo'nalishlarga alohida e'tibor qaratilishi lozim:

1. Raqamli iqtisodiyotga butkul o'tish uchun yetarlicha shart-sharoitlar yaratib berilishi darkor. Jumladan,

- yangi axborot-kommunikatsion texnologiyalarni yaratish;
- mamlakatdagi kompyuter savodxonligini oshirish;
- ushbu sohada faoliyat olib boruvchi malakali kadrlar sonini ko'paytirish;
- respublikaning barcha tarmoq va sohalarida raqamli iqtisodiyotning qo'llanilishini rag'batlantirish;
- internet tezligini oshirish va sifatini yaxshilash;
- mamlakatning chekka hududlariga ham internet xizmatlarining yetib borishini ta'minlash.

2. Raqamli iqtisodiyot nima uchun zamon talabiga aylanib borayotganligi va uning istiqbollari, imkoniyatlari haqida va faqatgina blokcheyn texnologiyalari hamda kriptoalyutalardan iborat emasligini aholiga tushuntirish ham muhim sanaladi.

3. Elektron tijorat (onlayn savdo) ishtirokchilari o'rtasidagi raqobatni qo'llab-quvvatlash, yanada rivojlantirish uchun rag'batlantirish tizimini ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish lozim.

4. Yosh kadrlarni ushbu sohaga jalb etish, "Raqamli" davlatlarning oliygohlarida o'qitib, malaka oshirishlariga ko'maklashish yaxshi natijalarga erishishga imkon yaratishi mumkin.

Bugungi kunda O'zbekiston sharoitida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning qonuniyatlari, tendensiyalari va imkoniyatlarini, xususan, axborot texnologiyalarining iqtisodiyotning turli sohalariga kirib borish darajalarini ilmiy asosda o'rganish nihoyatda dolzarb ahamiyat kasb etadi. Vatanimiz taraqqiyoti va istiqboli, mamlakatimizda keng ko'lamda amalga oshirilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati milliy iqtisodiyotimizga yangi innovatsiyalarni joriy qilishga bevosita bog'liqdir. Shu sababli raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, uning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va huquqiy asoslarini ilmiy-amaliy jihatdan tadqiq etish muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2020-yil 21-yanvardagi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga va Senetiga Murojaatnomasi. <http://turkiston.uz> (murojaat sanasi: 16.03.2020)

2. Parpieva M.M. O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot rivojlanishida raqamli texnologiyalarning ahamiyati. Davlat statistika qo'mitasi huzuridagi Kadrlar

malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar institutining “O‘zbekiston statistika axborotnomasi” ilmiy elektron jurnali. 2022 yil, 2-son

3. Parpieva M.M. Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishdaiinnovatsiyalarning roli. Davlat statistika qo‘mitasi huzuridagi Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar institutining “O‘zbekiston statistika axborotnomasi” ilmiy elektron jurnali. 2022 yil, 3-son

4. P.Z.Xashimov. Z.F.Faxriddinova. O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish istiqbollari. — “Axborot texnologiyalar iqtisodiyoti” jurnal.

5. Boyjigitov S. K. Raqamli iqtisodiyot sharoitida elektron tijoratni rivojlantirish imkoniyatlari. Journal of marketing, business and management (JMBM)

6. Gulyamov S.S., Ayupov R.H, Abdullaev O.M., BaltabaevaG.R. Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalar. — T.: TMI, “Iqtisod-Moliya” nashriyoti, 2019.

7. Petrukhina E.V., Gujin A.A., Velichko N.Yu., Nijaradze L.D., Volkova A.V., Oveshnikova L.V. Sovremennyye teorii menedjmenta, Oryol, 2014. — 110 s.

8. Abduraxmanova G.I., Vishnevskiy K.O., Volkova G.L. , Goxberg L.M. i dr Indikatory sifrovoy ekonomiki: 2018 : statisticheskiy sbornik /.; I60 Nas. issled. un-t «Vysshaya shkola ekonomiki». – M.: NIU VShE, 2018. – 268 s. – 300 ekz. – ISBN 978-5- 7598-1770-3.

9. Brayan A. Vtoraya ekonomika [Elektronnyy resurs]. – Rejim dostupa: <http://www.obs.ru/article/1887/>

Internet saytlari:

9. <https://www.texnoman.uz/post/raqamli-iqtisodiyot-nima.html>

10. <https://www.xabar.uz/uz/texnologiya/koreya-ozbekistonda-elektron-huku-matni-rivojlantirish>

11. <http://www.biznes-daily.uz/ru/birjaexpert/65417-raqamli-iqtisodiyotning-fzal-liklari-vaistiqbolli-yunalishlari>

12. <https://review.uz/oz/post/raqamli-iqtisodiyot-mamlakatimiz-taraqqiyoti-ga-rovidir>

JAHON BOZORLARI RIVOJLANISHINING ELEKTRON TIJORAT STRATEGIYALARIGA TA'SIRI

Xakimdjanova Dildora Kamilevna

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU,
“Menejment va marketing” kafedrasida katta o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada jahonda elektron tijorat strategiyalarining rivojlanishi va nazariy qarashlar, jahon bozorida elektron tijorat strategiyalarining ahamiyati, jahon elektron tijoratining rivojlanish istiqbollari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Undan tashqari jahon bozorlari rivojlanishining elektron tijorat strategiyalariga ta'sirini tahlil qilish haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Elektron tijorat, axborot tarmog'i, elektron tijorat bozori, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, onlayn marketing, global elektron tijorat, to'lov tizimi, onlayn savdo, mobil aloqa, an'anaviy va elektron sotuvchi, global onlayn savdo.

Аннотация

В данной статье представлена информация о развитии и теоретических взглядах на стратегии электронной коммерции в мире, о значении стратегий электронной коммерции на мировом рынке, а также о перспективах развития глобальной электронной коммерции. Кроме того, представлена информация по анализу влияния развития мировых рынков на стратегии электронной коммерции.

Ключевые слова: Электронная коммерция, информационная сеть, рынок электронной коммерции, информационно-коммуникационные технологии, онлайн-маркетинг, глобальная электронная коммерция, платежная система, онлайн-торговля, мобильная связь, традиционный и электронный продавец, глобальная онлайн-торговля.

Abstract

In this article presents information about the development and theoretical views of e-commerce strategies in the world, the importance of e-commerce strategies in the world market, and the prospects for the development of global e-commerce. In addition, information is provided on the analysis of the impact of the development of world markets on e-commerce strategies.

Keywords: E-commerce, information network, e-commerce market, information and communication technologies, online marketing, global e-commerce, payment system, online commerce, mobile communications, traditional and electronic seller, global online commerce.

KIRISH

Ma'lumki, dastlab biror bir ishning yoki mahsulotning vujudga kelishiga nimadir turtki bo'ladi. Elektron tijorat yetkazib beruvchilar va ularning biznes mijozlari o'rtasida buyurtmalar yoki schyot-fakturalar kabi biznes hujjatlarini almashish uchun standart sifatida paydo bo'ldi. Bu kelib chiqishi 1948-1949- yillarga to'g'ri keladi.

Berlin blokadasidan soʻng va teleks orqali buyurtmalarni havo orqali tashish. Birinchi umumiy standart 1975 yilda nashr etilishidan oldin keyingi oʻn yilliklar davomida turli sohalar tizimni ishlab chiqdi. Natijada kompyuterlar oʻrtasida elektron maʼlumotlar almashinuvi (EDI) standarti koʻpgina oddiy elektron biznes operatsiyalarini bajarish uchun yetarlicha moslashuvchan hisoblanadi. 1991 yilda Internetning keng qoʻllanilishi va World Wide Web paydo boʻlishi va 1993 yilda unga kirish uchun birinchi brauzer paydo boʻlishi bilan koʻpchilik elektron tijorat Internet orqali amalga oshirilib boshladi.

Smartfonlarning global tarqalishi va tezkor keng polosli Internet ulanishlarining mavjudligi bilan koʻpchilik elektron tijorat mobil qurilmalarga, jumladan planshetlar, noutbuklar va soatlar kabi taqiladigan narsalarga oʻtganligiga guvohmiz. Innovatsion va aqlli texnologiyalarni joriy etish natijasida yuzaga kelgan yangi global oʻzgarishlar savdo bozoriga, shuningdek, ularning ishtirokchilariga taʼsir koʻrsatdi. Axborot tarmogʻi iqtisodiyoti deb ataladigan ehtiyojlarni qondirish uchun tovarlar va xizmatlarni ilgari surishning yangi texnologik hodisasi mavjud. Axborot tarmogʻi iqtisodiyoti — bu bozor ishtirokchilari yoki iqtisodiy agentlar oʻrtasida Internet yoki boshqa elektron virtual vositalar orqali munosabatlar mavjud boʻlgan butun bir global tizim boʻlib, u har qanday mamlakat yoki sanoatning samaradorligini oshiradi. Axborot va tarmoq iqtisodiyoti bir nechta elementlarni oʻz ichiga olgan yirik tizim boʻlib, ulardan birini elektron tijorat deb atash mumkin. Elektron tijoratni oʻrganish xorijiy mamlakatlarda ham amaliy, ham ilmiy nuqtai nazardan uzoq vaqtdan beri dolzarb boʻlib kelgan. Elektron tijoratni tovarlar va xizmatlarni sotib olish va sotish yoki Internetning elektron tarmogʻi orqali pul yoki maʼlumotlarni uzatish deb atash mumkin. Elektron tijoratni nafaqat savdoning oddiy turi sifatida tushuntirish mumkin, uning tushunchasi kengroq va innovatsion axborot texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan. Shuningdek, u bir nechta biznes jarayonlaridan iborat boʻlgan marketingdagi eng yirik tizimlardan biridir. Amalda, elektron tijorat oʻzining jozibadorligi va samaradorligini koʻrsatdi, chunki u kamroq xarajatlarni talab qiladi yoki umuman talab qilinmaydi, shuning uchun mijozlar xizmatlarni farqlash va har qanday isteʼmolchiga samarali xizmat koʻrsatish qobiliyatiga ega boʻlgan katta bozorga osongina kirishlari mumkin.

Maʼlumki jahonda yuz bergan pandemiya juda koʻp oʻzgarishlarga olib keldi. Covid-19 tufayli 2015- 2020-yillar oraligʻida onlayn elektron tijorat savdolari 140% ga oshdi va eng katta bozorlar AQSh va Xitoy ekanligini taʼkidlash kerak. Shuningdek, elektron tijorat sohasidagi mutaxassislarining fikricha, 2025-yilga borib elektron tijoratda chakana savdo hajmi 7,4 trillion dollarga yetishi mumkin. Elektron tijorat bozorining yetakchi ishtirokchilari: Amazon.com, Inc JD.com, Inc Apple, Inc Alibaba Walmart, Inc Ebay Inc The Home Depot Otto GmbH& Co Priceline.com Groupon, Inc 2020 yilga kelib Xitoy bozori eng yirik elektron bozorga aylandi. Dunyodagi savdo bozori, uning hajmi 2,780 mlrd. Xitoy bozori yaqin 3-4 yil davomida oʻzining yetakchi mavqeyini saqlab qolishi va 2025-yilga borib oʻsish surʼati 8–8,5 foizgacha yetishi kutilmoqda. Elektron tijorat bozorida ikkinchi oʻrinni 2020-yilga borib daromadi 840,2 milliard dollarni tashkil etgan Qoʻshma Shtatlar egallagan. Dunyodagi uchinchi yirik elektron tijorat bozori Yevropa boʻlib, umumiy daromadi taxminan 385,34 milliard

dollarni tashkil etadi, bunda Fransiya, Buyuk Britaniya, Ispaniya va Germaniya yetakchilik qiladi. Qayd etilgan mamlakatlarda elektron tijoratning jadal o'sishi nafaqat Internetga kirish imkoniyati, balki kirishdagi to'siqlarning kamayishi bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin. COVID-19 pandemiyasi biznes va iste'molchilarni raqamli tizimga o'tishga, onlayn platformalarda mavjud bo'lgan tovarlar va xizmatlarga tobora ko'proq kirishga undadi.

Bugungi kunda aynan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari iqtisodiy taraqqiyotning hal qiluvchi omili bo'lib xizmat qilmoqda. Elektron tijorat bilan bog'liq masalalarni o'rganishda quyidagi hal qiluvchi omilni ajratib ko'rsatish kerak — amalga oshirilishi yoki tuzilishi Internetda amalga oshiriladigan va tomonlarning jismoniy ishtirokisiz sodir bo'ladigan tijorat bitimining mavjudligi. Natijada, xizmat yoki mahsulotga egalik huquqi bir ishtirokchidan boshqasiga o'tadi. Elektron tijorat (tijorat) quyidagi operatsiyalarni qamrab oladi:

- onlayn marketing;

– tovar yetkazib beruvchilar bilan internet aloqalari;

– sotishdan keyingi xizmat – to'lov tizimi;

– logistika va tovarlarni yetkazib berish. Yuqoridagi barcha elementlar asosiy

havadan — Internetdagi tijorat bitimidan mahrum bo'lib, elektron tijorat jarayoni doirasidan tashqarida yotadi va bu holda elektron tijorat turlari deb atash mumkin emas. Hozirgi vaqtda elektron tijorat texnologiyalaridan foydalanishning iqtisodiy samarasi ijobiy va ijobiy o'sish dinamikasiga ega. Ijtimoiy taraqqiyotning hozirgi bosqichida ushbu faoliyat sohasi inson hayotining ajralmas qismi hisoblanadi. Elektron tijorat ko'plab afzalliklarga ega bo'lib, bu xizmatlar va tovarlar narxining pasayishiga olib keladi. O'z navbatida, bu onlayn savdo hajmini oshirishga yordam beradi. Zamonaviy ma'lumotlarni uzatish tizimlaridan foydalanish tufayli tijorat operatsiyalarini amalga oshirish qulayroq bo'ldi. Masalan, hujjatlarni almashish jarayoni sezilarli darajada soddalashtirildi: bosma narx-navolar, schyot-fakturalar, birja kotirovkalari, xarid buyurtmalari va boshqa hujjatlar o'rniga kontragentga elektron versiyalar yuboriladi. Xuddi shunday holat elektron pul o'tkazmalari (to'lovlar) sohasida ham shakllandi. Mijozlarning hisobvaraqlarini kreditlash va debetlash bo'yicha moliya institutlari o'rtasida samarali o'zaro hamkorlik mexanizmi yaratildi va faoliyat ko'rsatmoqda. Onlayn savdo kichik va o'rta tashkilotlarga yirik korporatsiyalar bilan muvaffaqiyatli raqobatlashish imkonini beradi. Amerika Qo'shma Shtatlarida Internetdan faol foydalanadigan kichik tashkilotlar o'z faoliyatida Internetdan foydalanmaydiganlarga qaraganda 46% tezroq kengayadi.

2008-yilgi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi Internetda kichik biznes rivojlanishining sabablaridan biriga aylandi. 10 tagacha ishtirokchi ishtirok etadigan loyihalar soni sezilarli darajada oshdi. Ishbilarmonlik faolligining umumiy pasayish tendensiyasiga qaramay, ushbu segmentdagi o'sish to'xtamadi. Buning sababi, tadbirkorlik faolligining umumiy pasayishi va xodimlarning qisqarishi sharoitida ayrim yosh mutaxassislar o'z bizneslarini ochishga qaror qilishdi. Bundan tashqari, Internetda biznes boshlash katta investitsiyalarni talab qilmaydi. Ushbu afzallik onlayn savdoni barcha xo'jalik yurituvchi subyektlar — ham kichik, ham yirik biznes uchun jozibador qiladi. 2008 yildagi inqiroz ko'plab tadbirkorlik subyektlarini radikal

choralar ko‘rishga majbur qildi — xodimlarni qisqartirish, xodimlarni ishdan bo‘shatish va budjetni qisqartirish. Ko‘pgina kompaniyalar qimmat tashqi reklamalarni sotib olish imkoniyatiga ega emas edi. Shu munosabat bilan, shuningdek, xizmatlar va tovarlarni ilgari surish imkoniyatlari nuqtayi nazaridan katta salohiyat tufayli Internetning roli sezilarli darajada oshdi. Onlayn savdo asta-sekin jahon iqtisodiyotining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Ammo mikrohududlarda yangi yo‘nalishni rivojlantirish turli sur‘atlarga ega. Segmentning mutlaq yetakchisi Osiyo-Tinch okeani mintaqasi hisoblanadi. Onlayn savdo aylanmasi bo‘yicha Shimoliy Amerikadan ikki baravar ko‘p aylanmaga ega bo‘lgan Xitoy hisobiga). Bu tendensiya asosan Osiyodagi rivojlanayotgan mamlakatlarning faol iqtisodiy o‘shishi va axborotlashtirish bilan izohlanadi. Shu bilan birga, yangi bozor an‘anaviy chakana savdoga nisbatan kamroq shaffof va madaniyatli. Bu ko‘p jihatdan virtual texnologiyalarning xususiyatlariga bog‘liq. Biroq, onlayn savdoning global tabiati o‘shishning kuchli haydovchisi va ayni paytda ushbu sektorni qonuniylashtirish uchun samarali moliyaviy va huquqiy vositalarni yaratishga asosiy to‘siq bo‘lib xizmat qiladi. Ayrim hollarda vujudga kelayotgan tovar-pul munosabatlarini bir davlat hududida amalda bo‘lgan qoidalar va qoidalar bilan tartibga solish qiyin. Yurisdiksiyadan qat’iy nazar, transchegaraviy va ichki onlayn savdoni yagona tamoyillar asosida tartibga solish zarurati yaqqol namoyon bo‘ladi. Ammo bugungi kunga kelib, davlat tomonidan tartibga solishning yagona amaliyoti mavjud emas. Shu bilan birga, ko‘plab mamlakatlarda milliy (mahalliy) ishlab chiqaruvchilar va onlayn-riteylarlarni rag‘batlantirish uchun proteksionistik choralarni ommalashtirish tendensiyasi aniq kuzatilmoqda (AQSh va bozorni o‘z-o‘zini tartibga solish kursini olgan boshqa ba’zi davlatlar bundan mustasno).)

Onlayn savdo hajmlari haqida gapirganda, keling, quyidagi fikrlarga e‘tibor qaratamiz. Shunday qilib, eMarketer ekspertlarining ma‘lumotlariga ko‘ra, 2015 yilda bu ko‘rsatkich 1,8 trillion dollar darajasida edi. 2014 yilga nisbatan uning o‘shishi 17,7 foizni tashkil etdi. 2016 – 2017 – yillarda sektor o‘shishi biroz sekinlashdi. O‘shishning eng kuchli omillari quyidagilar bo‘lishi mumkin:

– Internetning kirib borishi (ayniqsa, mobil aloqa) – iste‘molchilarning xarid qobiliyatining oshishi (asosan Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi rivojlanayotgan mamlakatlarda). Soha mutaxassislarining fikriga ko‘ra, sezilarli o‘shishga nomoddiy tovarlarning elektron savdosi orqali erishish mumkin (yiliga taxminan 20-25%), bu bozor mutaxassislari tomonidan onlayn savdoning umumiy hajmida deyarli hisobga olinmaydi. Buni bugungi kunga qadar rivojlanayotgan onlayn savdo bozori ko‘rsatkichlarini hisobga olish va baholashning yagona xalqaro amaliyoti rivojlanmaganligi bilan izohlash mumkin. Davlatlarning xizmatlar va tovarlarning onlayn savdosi bozoridagi o‘rni beqiyos darada ekanligi ma‘lum. Remarkety ma‘lumotlariga ko‘ra, Xitoy 2017 – yilda dunyodagi eng yirik onlayn savdo bozoriga aylandi. O‘shishning asosiy omili mamlakat aholisidir.

Global elektron tijorat savdosi qariyb 6 trillion AQSh dollarini tashkil etadi, bu butun dunyo bo‘ylab chakana savdoning 19,5 foizini tashkil qiladi.

Ba’zi mamlakatlar elektron tijoratni qabul qilishda sezilarli darajada oldinda yoki orqada, buni siz ushbu postda ko‘rasiz. Agar siz qaysi mamlakatlarda elektron

tijorat eng ko'p sotilishi haqida qiziqsangiz, siz to'g'ri joydasiz. Biz sizga dunyodagi eng yaxshi elektron tijorat bozorlarini, shuningdek, elektron tijorat eng tez rivojlanayotgan mamlakatlarni va jami chakana savdoga nisbatan onlayn savdo ulushi eng yuqori bo'lgan mamlakatlarni ko'rsatamiz.

Xitoy juda katta farq bilan dunyodagi birinchi elektron tijorat bozori bo'lib, yiliga 3 trillion dollardan ortiq elektron tijorat savdosini ishlab chiqaradi, bu butun dunyo bo'ylab onlayn savdolarning yarmidan ko'pini tashkil qiladi.

Keyingi o'rinda AQSh 1 trillion dollardan ko'proq yillik elektron tijorat sotuvi bilan keladi – ta'sirchan, ammo Xitoy har yili qilgan ishining uchdan bir qismi. Shundan so'ng, keyingi yirik elektron tijorat bozorlariga sezilarli pasayish kuzatiladi.

AQSh Buyuk Britaniya Yaponiya Germaniya Fransiya Janubiy Koreya Kanada Rossiya davlati Xitoyning global elektron savdo sohasida yetakchi o'rinlarini saqlab qolish va oshirish so'nggi bir necha yil ichida XXR iqtisodiyotining yuqori o'sish sur'atlaridan dalolat beradi. shuningdek, ularning saqlanishi va yanada o'sishiga oid ekspert prognozlarini. Ba'zi mamlakatlar allaqachon Xitoy onlayn-do'konlari tomonidan taqdim etilayotgan xizmatlar va tovarlarning nisbatan yuqori sifatli va arzon bozoriga proteksionistik to'siqlarni o'z ichiga oladi. Ekspert prognozlariga ko'ra, kelgusi bir necha yil ichida global onlayn savdo bozorida sezilarli o'sishni kutish kerak. Marketer ekspertlari 2019 – yilga kelib savdo hajmi 3,5 trillion dollargacha o'sishini bashorat qilmoqda. Shu bilan birga, onlayn savdoning global chakana savdodagi ulushi 2015 – yildagi 8–9 foizga nisbatan 12 foizgacha oshadi.

Jahon elektron tijorat bozori yilining o'sishi onlayn savdo sektori o'sishining asosiy omili yangi Internet foydalanuvchilari, asosan mobil Internet foydalanuvchilari (planshetlar, smartfonlar) doimiy ravishda kirib kelishidir. Shuningdek, har qanday operatsiya va tranzaksiyalar uchun, agar ularni global tarmoqqa o'tkazish mumkin bo'lsa, xarajatlarni minimallashtirish uchun jamiyatni raqamlashtirishning umumiy global tendensiyasini hisobga olish kerak. Marketer ekspertlari yaqin kelajakda xaridlar soni sezilarli darajada oshishini, shu jumladan, bozor ishtirokchilari o'rtasidagi narx raqobatining kuchayishi hisobiga bashorat qilmoqda. Buning sababi shundaki, onlayn iste'molchilar turli sotuvchilarning narxlarini (jumladan, bozor formatida) solishtirish imkoniyatiga ega bo'lib, bu an'anaviy va elektron sotuvchilar tomonidan muntazam va tez-tez o'tkaziladigan aksiyalarning haydovchisi bo'lib xizmat qiladi. Mutaxassislar fikricha, Xitoy global onlayn savdo bozorida yetakchilikni davom ettiradi (yiliga 26%), asosan eksport chakana savdosi hisobiga. Rivojlanayotgan boshqa mamlakatlar: Hindiston (24%), Indoneziya va Janubiy Koreyada (20% dan ortiq) yuqori o'sish suratlari kutilmoqda. Ushbu hududlarda o'sishning asosiy omillari demografik vaziyat (yuqori aholi) va mobil Internetning kirib borishi hisoblanadi. Rivojlangan mamlakatlar (Yaponiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, AQSH) bozorlarining o'sishiga mobil sotuvlar sezilarli ta'sir ko'rsatadi

Ebay, Amazon va Alibaba kabi onlayn bozordagi global o'yinchilarga kelsak, ularning rivojlanishi tez sur'atlar bilan davom etayotganini ta'kidlaymiz. Ular bozorning muayyan segmentlariga mo'ljallangan loyihalarni joriy etish, shuningdek, boshqa onlayn o'yinchilarni sotib olish orqali o'z pozitsiyalarini mustahkamlaydi. Onlayn tijoratning rivojlanishi va kengayishi tezroq globallashtirishga va tezlashtirilgan

axborot almashinuviga olib keladi. Shu bilan birga, onlayn-tijoratni rivojlantirish iqtisodiy rivojlanishning asosiy global tendensiyalaridan biridir.

1-jadval.

Rivojlangan davlatlarda elektron tijoratning rivojlanishi

№	Davlatlar	Ma'lumotlar
1	Xitoy	2023 – yilda elektron tijorat savdosi: 3,02 trillion dollar Xitoydagi eng yaxshi elektron tijorat brendlari: JD.com (yillik savdo 132,76 milliard AQSh dollari), Tmall (yillik savdosi 22,19 milliard AQSh dollari), VIP.com (yillik savdo 16,38 milliard AQSh dollari)
2	AQSh	2023 – yilda elektron tijorat savdosi: 1,16 trillion dollar AQShdagi eng yaxshi elektron tijorat brendlari Amazon (yillik savdosi 130,27 milliard dollar) Walmart (yillik savdosi 52,40 milliard AQSh dollari) Apple (yillik savdosi 30,99 milliard AQSh dollari)
3	Buyuk Britaniya	2023 – yilda elektron tijorat savdosi: 195,97 milliard dollar Buyuk Britaniyadagi eng yaxshi elektron tijorat brendlari Amazon Buyuk Britaniya (yillik savdosi 15,36 milliard AQSh dollari) Sainsbury's (yillik savdosi 7,04 milliard AQSh dollari) Tesco (yillik savdosi 7,04 milliard AQSh dollari)
4	Yaponiya	2023 – yilda elektron tijorat savdosi: 193,42 milliard dollar Yaponiyadagi eng yaxshi elektron tijorat brendlari Amazon Japan (yillik savdosi 12,83 milliard AQSh dollari) Apple (yillik savdosi 3,61 milliard AQSh dollari) Yodobashi (yillik savdosi 2,50 milliard AQSh dollari)
5	Janubiy Koreya	2023 – yilda elektron tijorat savdosi: 147,43 milliard dollar Janubiy Koreyadagi eng yaxshi elektron tijorat brendlari Coupang (yillik savdosi 18,25 milliard AQSh dollari) Himart (yillik savdosi 1,34 milliard AQSh dollari) SSG (yillik savdo 1,33 milliard AQSh dollari)
6	Hindiston	2023 – yilda elektron tijorat savdosi: 118,90 milliard dollar Hindistondagi eng yaxshi elektron tijorat brendlari AJIO (yillik savdo 2,15 milliard AQSh dollari) Reliance Digital (yillik savdosi 1,37 milliard AQSh dollari) JioMart (yillik savdosi 1,24 milliard AQSh dollari)
7	Germaniya	2023 – yilda elektron tijorat savdosi: 97,32 milliard dollar Germaniyadagi eng yaxshi elektron tijorat brendlari Amazon DE (yillik savdosi 16,10 milliard dollar) OTTO (yillik savdo 5,06 milliard AQSh dollari) Zalando (yillik savdosi 2,92 milliard AQSh dollari)
8	Indoneziya	2023 – yilda elektron tijorat savdosi: 97,14 milliard dollar Indoneziyadagi eng yaxshi elektron tijorat brendlari JD (yillik savdo 1,02 milliard AQSh dollari) Blibli (yillik savdosi 697,4 million AQSh dollari) Orami (yillik savdosi 372,0 million AQSh dollari)
9	Kanada	2023 – yilda elektron tijorat savdosi: 82,81 milliard dollar Kanadadagi eng yaxshi elektron tijorat brendlari Amazon CA (yillik savdosi 11,51 milliard AQSh dollari) Walmart (yillik savdosi 4,15 milliard AQSh dollari) Costco (yillik savdodan 2,55 milliard dollar) 2023 – yilda elektron tijorat savdosi: 82,81 milliard dollar Kanadadagi eng yaxshi elektron tijorat brendlari

№	Davlatlar	Ma'lumotlar
		Amazon CA (yillik savdosi 11,51 milliard AQSh dollari) Walmart (yillik savdosi 4,15 milliard AQSh dollari) Costco (yillik savdodan 2,55 milliard dollar)
10	Fransiya	2023 – yilda elektron tijorat savdosi: 79,36 milliard dollar Frantsiyadagi eng yaxshi elektron tijorat brendlari Amazon FR (yillik savdosi 5,14 milliard AQSh dollari) Shein (yillik savdosi 1,75 milliard AQSh dollari) Veepee (yillik savdosi 1,57 milliard AQSh dollari) Eng tez rivojlanayotgan elektron tijorat bozorlari Endi elektron tijorat eng tez rivojlanayotgan mamlakatlarga qaraylik.

Janubiy-Sharqiy Osiyo sotuvlar o'sishi bo'yicha 10 ta eng yaxshi elektron tijorat bozorida ustunlik qiladi va umuman mintaqa 2023 – yilda 18,6% o'sish bilan elektron tijorat uchun eng tez rivojlanayotgan mintaqadir. Filippin 24,1% o'sish bilan eng tez rivojlanayotgan elektron tijorat bozorlari ro'yxatini boshqaradi. Keyingi o'rinlarda Hindiston, Indoneziya, Malayziya va Tailand. AQSH allaqachon dunyodagi ikkinchi yirik elektron tijorat bozori bo'lsa ham, u hali ham elektron tijoratning o'sishi bo'yicha birinchi o'ntalikka kiradi, bozor 2023 – yilda 10,5 foizga o'sadi. Quyida dunyo bo'ylab eng tez rivojlanayotgan elektron tijorat bozorlarini rivojlanishini ko'rishimiz mumkin.

2-jadval.

Dunyo bo'ylab eng tez rivojlanayotgan elektron tijorat bozorlari o'sishi

№	Davlatlar	Foiz
1	Filippin	24,10 foizga o'sdi
2	Hindiston	22,30 foizga o'sdi
3	Indoneziya	20,00% o'sish
4	Malayziya	18,00% ga o'sish
5	Tailand	16,00% gacha
6	Meksika	14,20 foizga o'sdi
7	Argentina	14,00% ga o'sdi
8	Vetnam	12,50% ga o'sish
9	Janubiy Koreya	10,60 foizga o'sdi
10	AQSh	10,50% ga o'sdi

XULOSA VA TAKLIFLAR

Zamonaviy dunyoda iqtisodiyotni rivojlantirishning eng muhim yo'nalishlaridan biri bu elektron tijoratdir. Elektron tijorat — bu iqtisodiyotning jadal rivojlanayotgan sohasi bo'lib, inson faoliyatining barcha sohalariga kirib borishini osonlashtiradi.

Hozirgi vaqtda elektron tijorat bir necha yil davom etadigan intensiv o'sish bosqichida. U elektron ma'lumotlar almashinuvi, pul o'tkazmalari, to'lov tizimlari, marketing, bank, sug'urta va boshqa elektron xizmatlarni o'z ichiga oladi.

2020 yilgacha elektron tijoratning rivojlanishiga faol internet foydalanuvchilari sonining ko‘payishi ta’sir ko‘rsatdi. 2021-yil yanvar oyida dunyo bo‘ylab 4,66 milliard kishi internetdan foydalanadi, bu o‘tgan yilga nisbatan 316 million (7,3 foiz) ko‘pdir. Shuningdek, elektron tijoratning rivojlanishiga pandemiyaning ham ta’siri bo‘ldi va u quyidagi omillarni keltirib chiqardi:

- Oflayn xaridlarni cheklash;
- Masofaviy ishlashga o‘tish va bu bilan bog‘liq holda aholining yirik shaharlardan chiqib ketishi;
- Oziq-ovqat yyetkazib berishga bo‘lgan talabning ortishi.
- Iste’molchilarning do‘konlarda tovarlar sotib olish imkoni yo‘q edi, shuning uchun izolyatsiya paytida odamlar onlayn xarid qilishga o‘rganib qolishdi.

Hozirgi vaqtda elektron tijorat jahon savdo aylanmasining nisbatan kichik qismini (10-20%) egallab turibdi, biroq u har qanday mamlakatning savdo va iqtisodiyotining eng dinamik rivojlanayotgan segmentlaridan biri bo‘lib, raqamli o‘zgarishlarning zamonaviy texnologiyalarga ta’sirini tavsiflaydi.

Elektron tijoratni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardir: savdo, marketing va sotishni rag‘batlantirish sotishdan oldingi ishlar, dastlabki kelishuvlar, yetkazib berishni moliyalashtirish va tijorat operatsiyalarini sug‘urtalash (buyurtma berish, qabul qilish, to‘lash) mahsulotga xizmat ko‘rsatish va birgalikda mahsulot ishlab chiqarishni qo‘llab-quvvatlash, taqsimlangan qo‘shma ishlab chiqarishdan foydalanish. umumiy va xususiy xizmatlar biznes boshqaruvi (lisenziyalar va ruxsatnomalar olish, soliqlar, bojxona va h.k.) transport, transport texnologiyasi va materiallari umumiy xaridlar elektron tovarlarning avtomatik savdosi buxgalteriya hisobi nizolarni hal qilish va boshqalar. To‘lov davri, elektron tarzda amalga oshirilishi mumkin. Bojxona va soliq majburiyatlarini bajarish bo‘yicha vakolatli markazlar, shuningdek, statistika organlari bilan o‘zaro hamkorlik allaqachon yaxshi yo‘lga qo‘yilgan. Biroq, elektron tijoratning bir qismi bo‘lgan xavfsizlik, intellektual mulk huquqlari, huquqiy muammolar va tartiblar kabi ba’zi masalalar haligacha noaniqlikicha qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. Uzbek Scholar Journal Volume – 21, October, 2023 www.uzbekscholar.com. O‘zbekistonda elektron tijoratning sohalarda rivojlanishi Usmonova Adiba Azim qizi Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
